

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI  
SAMARQANDDAVLAT ARHITEKTURA-QURILISH INSTITUTI**

**ISLAMOVA DILNOZA GAYRATOVNA**

**“ARHITEKTURA YODGORLIKLARINING MUHOFAZA  
HUDUDLARINI TASHKIL ETISH USULLARI”  
FANIDAN  
O'QUV QO'LLANMA**

5A340102 – “Arxitektura nazariyasi va tarixi,  
arxitektura yodgorliklarini tiklash”  
magistratura mutaxassisligi uchun

Samarqand – 2021

Arxitektura yodgorliklarining muhofaza hududlarini tashkil etish usullari. O'quv qo'llanma. SamDAQI, 2021 y.

Islamova Dilnoza Gayratovna

Mas'ul moxarrir: O. M. Salimov- TAQI "Arxitektura tarixi va nazariyasi"  
kafedrasida professori, arx.f.d.

O'quv qo'llanmada shaharsozlik va arxitektura yodgorliklarining muhofaza hududlarini tashkil etishning asosiy tamoyillari haqida fikr yuritiladi. Arxitektura yodgorliklarining muhofaza hududlariga xos bo'lgan umumiy muammolar, moslashtirish loyihasini yaratishda muhofaza hududlarini tashkil etish tamoyillari va amaliyoti ijrosi bo'yicha me'moriy-rejaviy yechimlari va usullari ko'rib chiqilgan.

O'zbekistonning ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishi sharoitlari, uning madaniyatiga bo'lgan xalqaro qiziqishning kun sayin o'sib borishi quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha ilmiy-amaliy izlanishlarni olib borishni taqozo etadi:

- tarixiy shaharlarning arxitektura yodgorliklari va ulardagi ansambllarning ko'rinishini saqlab qolish va qurilishini boshqarish hamda muhofaza hududlarini shaharsozlik nuqtai nazaridan tashkil etish.

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining turdosh oliy o'quv yurtlarida "Arxitektura nazariyasi va tarixi, arxitektura yodgorliklarini tiklash" magistratura mutaxassisligi bo'yicha ta'lim oluvchilarga taklif hamda tavsiyalar ilmiy-tekshirish(izlanish) va loyihalash institutlari hamda ilmiy-ishlab chiqarish korxonalarida foydalanishga mo'ljallangan.

5A340102 – "Arxitektura nazariyasi va tarixi, arxitektura yodgorliklarini tiklash" magistratura mutaxassisligi uchun.

**Taqrizchilar:** -Arxitektura fanlari doktori, professori A.S Uralov

-"NINA STORY SERVIS" MCHJ direktori, dotsent S.B. Boqiyev

O'quv qo'llanma Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti "Arxitektura nazariyasi va tarixi" kafedrasida tayyorlangan.

## Аннотация

В данном учебном пособии рассматриваются основные принципы организации охранной зоны памятников архитектуры и градостроительства, рассматриваются общие проблемы охраны памятников архитектуры, практические занятия, методы и принципы организации охранной зоны при разработке проекта приспособления архитектурных памятников.

Для обеспечения необходимых условий обозрения памятников архитектуры при реконструкции центров исторических городов, памятников древней культуры требуется разработка специальных мер по созданию охранных зон и зон регулирования, на территории которых сталкиваются интересы охраны памятников и современной застройки. Охранная зона – это, прежде всего, средство укрепления планировочно-композиционных связей между памятником и окружающей средой.

Новые социально-экономические условия развития Республики Узбекистан, возрастающий международный интерес к ее культуре, обуславливают проведение научно-практического исследования основного направления по градостроительной организации охранной зоны, зон регулируемой застройки и восприятия памятников архитектуры и ансамблей исторических городов.

Учебное пособие рассчитано на магистрантов обучающиеся по специальности «Теория и история архитектуры, реконструкция памятников архитектуры» и на специалистов-архитекторов, работающих в области сохранения и организации охранной зоны архитектурных памятников.

## FOOTNOTE

In educational the grant is considered main principles of the organization of a security zone of monuments of architecture and town-planning, considered shared problems of protection of monuments of architecture of an expert, methods and principles of the organization of a security zone by working out of the project of the adaptation.

For maintenance of necessary conditions of a review of monuments of architecture at reconstruction of the centers of historical cities, monuments of ancient culture working out of special measures on creation of security zones and regulation zones is required; in which territory interests of protection of monuments and modern building face. A security zone - it; first of all, means of strengthening of plan-composite communications between a monument and its environment.

New social and economic conditions of development of the Republic Uzbekistan, increasing international interest to its culture, cause carrying out of scientifically-practical research of the basic direction on the town-planning organization of a security zone, zones of adjustable building and perception of monuments of architecture and their ensembles of historical cities.

Manual is calculated for Masters trained on a specialty «the Theory and architecture history, reconstruction of monuments of architecture» and for the experts-architects working in the field of preservation and the organization as protection of a zone of monuments stories and cultures.

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	7
<b>1- BOB. SHAHARSOZLIK VA ARXITEKTURA YOGORLIKLARINING MUHOFAZA HUDUDLARINI TASHKIL ETISH</b>	
1.1. Yodgorliklarni muhofaza qilishning asosiy muammolari .....	10
1.2. Muhofaza hududini tashkil etishda tadqiqot usullari .....	19
1.3. Tarixiy- me'moriy majmualarning muhofaza hududlarini loyihalash amaliyoti.....	26
1.4. Arxitektura yodgorliklarining muhofaza hududlarini tashkil etish usullari..	38
1.5. O'zbekistonning tarixiy shaharlarida muhofaza hududlarini tashkil etish usullari.....	58
<b>2- BOB. MUHOFAZA HUDUDLARIDA QO'RIQXONALARNI TASHKIL ETISH USULLARI</b>	
2.1. Shaharsozlikda qo'riqxonalarni tashkil etish tamoyillari.....	78
2.2. Qo'riqxonalarni tashkil etishda loyiha yechimi va ularni tashkil etishda tadqiqot usullari .....	93
2.3. Muhofaza hududlarida olib boriladigan tadbirlar.....	102
2.4. Shaharsozlikda muhofaza hududlarini tashkil etish tartibi.....	108
Mustaqil ish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar .....	125
Terminlar lug'ati.....	127
«Arxitektura yodgorliklarining muhofaza hududlarini tashkil etish usullari» fanidan o'zlashtirish natijasini mustahkamlash bo'yicha savol- javoblar.....	128
Testlar .....	146
Ilova. ....	156
Foydalaniladigan adabiyotlar.....	170

## ОГЛАВЛЕНИЕ

<b>ВВЕДЕНИЕ</b> .....	7
<b>I-ГЛАВА. ОРГАНИЗАЦИЯ ОХРАННОЙ ЗОНЫ ПАМЯТНИКОВ АРХИТЕКТУРЫ И ГРАДОСТРОИТЕЛЬСТВА</b>	
1.1. Основные проблемы охраны памятников.....	10
1.2. Методы исследования и организация охранной зоны.....	19
1.3. Практика проектирования охранной зоны историко-архитектурных комплексов.....	26
1.4. Методы организации охранной зоны памятников архитектуры.....	38
1.5. Организация охранной зоны в исторических городах Узбекистана.....	58
<b>2-ГЛАВА. МЕТОДЫ ОРГАНИЗАЦИИ АРХИТЕКТУРНЫХ ЗАПОВЕДНИКОВ НА ТЕРРИТОРИИ ОХРАННОЙ ЗОНЫ</b>	
2.1. Принципы организации архитектурных заповедников в градостроительстве.....	78
2.2. Проектное решения организации архитектурных заповедников и организовать их методы исследования.....	93
2.3. Мероприятия при организации охранной зоны.....	102
2.4. Порядок проведения организации охранной зоны архитектурных памятников в градостроительстве.....	108
Методические указания по самостоятельной работе.....	125
Словарь терминов.....	127
Вопросы и отведенные рейтинговые баллы по предмету «Методы организации охранной зоны памятников архитектуры» .....	128
Тест.....	146
Приложения.....	156
Список используемой литературы .....	170

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2018 yil 19 dekabrda PQ-4068-son qarori muvofiq Vazirlar Mahkamasi qarori qabul qilindi.

Konstitusiyaning muvofiq nizomlari asosida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan Madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish, ta'mirlash va ulardan foydalanish, shuningdek me'moriy yodgorliklar hududini zonalashtirish bo'yicha qonunlarni qat'iy belgilab beruvchi 30.08.2001 yildagi 269-P sonli "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish haqida"gi qarori, shuningdek 353-P sonli 04.04.2002 yilda tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi shaharsozlik kodeksi" qabul qilingan.

Yodgorliklarni muhofaza qilish bo'yicha O'zbekiston tarixiy shaharlarining ilmiy asoslangan yagona kompleks shaharsozlik tayanch rejasining yo'qligi shaharsozlik, tarixiy-me'moriy qiymatga ega bo'lgan eski qurilishlar hududlarining, xalq me'morchiligi yodgorliklarining, jamoat binolari, ziyoratgoh inshootlarning yetarlicha o'rganilmaganligi, shuningdek, ularning davomiy buzib tashlanishi va buning natijasi o'laroq shaharlar qadimgi topografiyasi, ularning maydon va ko'chalarining yo'q bo'lishi bu mavzuning muhim va zaruriyligini tasdiqlaydi.

Respublikamizda oxirgi yillarda qo'riqxonalarini va me'moriy yodgorliklar atrofida qurilishlarni tartibga solish zonasini aniqlash masalalariga ko'p ahamiyat berilmoqda. Har bir aniq yodgorlik, majmua yoki kompleks yuzasidan obodonlashtirish va yaqin joylashgan hududni tartibga keltirish bo'yicha loyiha takliflarining butun xususiyatlarini hisobga olgan holda qo'riqxonalar tashkil etish imkoniyatlarini o'rganish va tadqiq qilish talab etiladi. Asosiy vazifalardan biri O'zbekiston Respublikasida tarixiy yodgorliklarning shaharsozlik xususiyatlarini tahlil qilish va me'moriy yodgorliklar qo'riqxonalarini aniqlash va hisoblashdan iborat.

O'zbekistonning tarixiy shaharlar sharoitida qo'riqxonalar tashkil etish uslub va prinsiplari hali yetarlicha ishlab chiqilmagan. Yevropa va chet el davlatlarining boshqa tarixiy shaharlari uchun ishlab chiqilgan qo'riqxonalar tashkil etishning tamoyillarini O'zbekiston Respublikasi tarixiy shaharlarida me'morchilik yodgorliklari va ularning majmualari arxitekturasida qator xususiyatlarning mavjudligi, qo'riqxonalar tashkil etishga o'ziga xos yondoshuv zaruriyatini qo'yadi.

Chet el davlatlarining aholi yashaydigan joylarida madaniyat yodgorliklari qo'riqxonalarini, qurilishlarni tartibga solish hududlarini landshaftni tashkil qilishi bo'yicha vazifalar, tarixan tashkil topgan aholi punktlarida shaharsozlik ishlarining

rivojlanishi munosabati bilan qadimiy aholi yashash joylari rejaviy tuzilishini taqozo etadi. Me'moriy qiyofasining umumiy ko'rinishi (silueti)ning va o'ziga xosligini saqlash, yangi qurilishni tarixiy shakllangan rejasi va fazoviy tuzilishi bilan, shahar va tabiiy muhitning xarakterli xususiyatlari bilan umumiy (garmonik) birligini yaratish lozim.

Bu vazifalarni shaharsozlik yodgorligi hisoblangan Buxoro shahri uchun qo'llasa bo'ladi. Bir butun tarixan shakllangan majmua sifatida shahar me'moriy qiyofasining o'ziga xosligini saqlash, tarixiy shahar va tabiiy muhit bilan yangi qurilish garmonik birligini ta'minlovchi tavsiyalar ishlab chiqish asosiy muammo hisoblanadi. Yodgorliklar majmuasi qo'riqxonasini (hududiy chegara, atrof muhitni aniqlash) tashkil etishda xuddi shu masalalar yuzaga keladi. Masalan, Toshkentdagi Ko'kaldosh madrasasi himoya zonasini tashkil etishda bu yodgorlik yon-atrofining ko'rilishi muammosi o'ylanmagan.

Qo'llanmaning 1-bobida **Shaharsozlik va arxitektura yodgorliklarining muhofaza hududlarini tashkil etish**ning asosiy tamoyillari haqida, arxitektura yodgorliklarining muhofaza hududlariga xos bo'lgan umumiy muammolar ko'rib chiqilgan. Jumladan, qo'llanmada muhofaza hududlarini tashkil etishning asosiy qoidalari, uslublari, tamoyillari va amaliyoti ijrosi haqida fikr-mulohazalar yuritiladi.

Tarixiy shahar markazlarini va madaniy yodgorliklarni qayta tiklashda arxitektura yodgorliklarini namoyish eta olish (ularning yaqqol ko'rinishi) uchun zarur bo'lgan sharoitlarni ta'minlash muhofaza hududlarini (arxitektura yodgorliklari joylashgan hududni) va qurilishni tartibga solib turuvchi hududlar (alohida rejimdagi qayta tiklash hududlar)ni yaratish bo'yicha maxsus chora tadbirlarni ishlab chiqish talab etiladi.

Muhofaza hududi – bu, arxitektura yodgorliklari va ularning tevarak-atrofi orasidagi rejaviy-kompozision uyg'unlikni mustahkamlash vositasidir. O'zbekistonning ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishi sharoitlari, uning madaniyatiga bo'lgan xalqaro qiziqishning kun sayin o'sib borishi quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha ilmiy-amaliy izlanishlarni olib borishni taqoza etadi:

- tarihiy shaharlarning arxitektura yodgorliklari va ulardagi ansambllarning ko'rinishini saqlab qolish va qurilishini boshqarish hamda muhofaza hududlarini shaharsozlik nuqtai nazaridan tashkil etish;
- hozirgi va kelajakdagi talablarni hisobga olgan holda e'tiborli muammolarni qoniqtirish uchun arxitektura yodgorliklaridan unumli foydalanish;
- O'zbekistonning tarixiy shaharlarida turizm markazlarini va tarixiy obidalar joylashgan hududlarda zamonaviy xizmat ko'rsatish infratizimini tashkil etish.



Qo'llanmaning “**Muhofaza hududlarida qo'riqxonalarini tashkil etish usullari**” mavzusidagi 2-bobida muhofaza hududlarini tashkil etish mavzusidagi loyihaning asosiy vazifasi – O'zbekiston shaharlari tarixiy markazlarining tuzilishini, qiyofasini va arxitektura jihatidan o'ziga xosligini saqlab qolishdan va yangi qurilishlar bilan shaharning tarixan shakllangan muhitning uzviy bog'liqligini vujudga keltirishdan iborat.

O'zbekistonning tarixiy shahar markazlarini qayta tiklash, arxitektura yodgorliklarini saqlash tamoyillari bo'yicha shaharsozlikning yagona kompleks tayanch rejasi yo'qligi sababli asosiy e'tibor ushbu masalaga qaratilgan va tarixiy yodgorliklarning muhofaza hududlarini tashkil etish bo'yicha tadqiqot ishlari olib borishda ilmiy va nazariy natijalarning amaliy tadbirlar bilan bog'langanlik masalasi ko'rib chiqilgan.

O'zbekistonning tarixiy shahar markazlaridagi yodgorliklarni qayta tiklash, ta'mirlash va ularning muhofaza hududlarini tashkil etish, muommolariga bag'ishlangan qator izlanish (ilmiy-tadqiqot) ishlari va taklif hamda tavsiyalar oliy o'quv yurtlari magistrantlari ilmiy-tekshirish (izlanish), loyiha institutlari va ilmiy-ishlab chiqarish korxonalarida ham foydalanishga mo'ljallangan.

O'quv qo'llanmada yoritilgan ma'lumotlar tarixiy-madaniy meros muhofazasi va ulardan foydalanish muammolari bilan qiziquvchilar va ular ustida ishlovchilar uchun foydalidir.

# **1 BOB.**

## **SHAHARSOZLIK VA ARXITEKTURA YODGORLIKLARINING MUHOFAZA HUDUDLARINI TASHKIL ETISH**

---

---

### **1.1. Yodgorliklarni muhofaza qilishning asosiy muammolari.**

#### **REJA:**

1. *Tarixiy yodgorliklar va boshqa madaniy boyliklarni saqlashga qaratilgan choralar.*
2. *Yodgorliklarning muhofaza hududlarini tashkil etish vazifalarini nazorat qilish.*
3. *“Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni mukammallashtirish haqida”gi qaror.*

#### **Annotasiya:**

*Ushbu mavzu bo'yicha shaharsozlik va arxitektura yodgorliklarining muhofaza hududlarini tashkil etish usullari hamda yodgorliklarni muhofaza qilishning asosiy muammolari yoritilgan bo'lib, bunda O'zbekistonda me'moriy yodgorliklarni ta'mirlash va qayta tiklash sohasidagi olib borilgan ishlar va umumiy muammolar holatining tahlili, hamda, me'morchilik yodgorliklari ijarasi uning muhofazasi bo'yicha qator tadbirlari yoritilgan.*

#### **TAYANCHIBORALAR:**

*Tarixiy yodgorlik. Arxeologiya. Muhofaza. Hudud. Me'moriy yodgorliklar. Ansambl. Majmualar. Tarixiy maydon. Ko'cha. Arxeologiya yodgorliklari. Planirovka. Guzarlar.*

Tarixiy yodgorliklar va boshqa madaniy boyliklarni saqlashga qaratilgan choralar. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi (Asosiy qonun)da: “Tarixiy yodgorliklar va boshqa madaniy boyliklarni saqlash haqida qayg'urish - O'zbekiston fuqarolarining burch va vazifasidir” – deyilgan (49 modda).

“Davlat tomonidan muhofaza qilinadi”. Bu mag'rur, mahobatli yozuv ko'p tarixiy binolarda ko'zga tashlanadi. O'z mohiyati bo'yicha-mag'rur, chunki tarix va me'morchilik yodgorliklari - bu, o'zbek xalqining g'ururi, shakli bo'yicha-mahobatli, chunki ko'pincha bunday yozuv o'z ko'rinishi bilanoq hurmat uyg'otuvchi marmar plitada bo'ladi. Ammo bu kabi taxtacha osib qo'yilgan yodgorlikning ko'rinishi hurmat uyg'otadimi? Deyarli ko'p tarixiy yodgorliklar bugungi kunda asta-sekin buzilayotganini ko'rmoqdamiz. Bu, asosan, ikki qarama-qarshi sabab bo'yicha ro'y beryapti: egasizlikdan va yodgorliklar joylashgan hudud rahbarlarining no'noqligidan.

O'n mingdan ortiq tarixiy va shaharsozlik yodgorliklari davlat tomonidan muhofazaga olingan, davlat ularning ta'mirlanishiga va ularning chidamligini ta'minlashga katta mablag' sarflaydi.

Shaharsozlik yodgorliklariga: me'moriy yodgorliklar, ansambl va majmualar, tarixiy maydon, ko'chalar, guzarlar, markazlar, arxeologiya yodgorliklari, qadimiy planirovka, shahar va aholi punktlari qurilishlari qoldiqlari, fuqaro va ziyoratgoh me'morchilik inshootlari, xalq me'morchiligi inshootlari, shuningdek ular bilan bog'liq tasviriy, amaliy bezak, bog'u-roq'lar yaratish san'ati asarlari va tabiiy landshaftlar kiradi.

Me'moriy yodgorlik o'zining jonkuyar egasi bo'lmasa, ulardan madaniy, sayyohlik yoki amaliy maqsadlarda foydalanilmasa, juda tez eskirishini hayot ko'rsatib turibdi. Foydalanish yoki ijarachilik juda oddiy muammo emas. Eng avvalo, tarixiy binoni ijaraga olgan odam (yodgorlikning vaqtinchalik egasi), unga qarashga, shuningdek zarur bo'lganda uning ta'miriga zamonaviy bino qurilishiga sarf bo'ladigan mablag'ni ajratishi lozim, chunki, me'moriy yodgorlik ta'mirlangandan keyin ijarachi sarflashga ketgan mablag'ini oladi. Ikkinchidan, me'morchilik yodgorliklari ijarasi uning muhofazasi bo'yicha qator tadbirlarni o'z ichiga oladi. Masalan, yodgorliklarni qayta tiklashdagi ichki qayta qurilishlar va tashqi tutash binolar qurish, uning tashqi atrof hududini o'zgartirish man qilinadi. Bu esa hammani ham qoniqtiravermaydi.

Shunday qilib, me'morchilik yodgorligiga doimiy parvarish va nazorat zarur. Agar tarixiy bino - yodgorlikdan foydalanuvchi ziyrak bo'lmasa, undan ham yomon. Masalan, O'zbekiston xalq me'morchiligi yodgorligi bo'lgan, xalq ustasi Yusufali Musayev tomonidan yaratilgan Yunusobod hammomi respublika muhofazasi ro'yhatiga olingan edi. Hammom ko'p yillar davomida davolovchi hammom sifatida xalqqa xizmat qilgan. Yaqindagina ehtiyotsizlik natijasida shaxsiy mulk sifatida uni arendator tomonidan buzib tashlandi. Afsuski, bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Ma'lumki, arxitektura yodgorliklarini saqlash-me'morlarning kompleks shaharsozlik faoliyatining muhim vazifalaridan biri bo'lib, yodgorliklarni ijaraga olish bo'yicha shahar xokimiyati tomonidan ishlab chiqilgan qarorlari mavjud. Davlatimiz qonuniga asosan, me'morchilik yodgorliklariga zarar yetkazish yoki uni vayron qilish jinoiy jazo sifatida belgilangan. Lekin, shu paytgacha jinoiy ish qilganlarning birontasi shu kungacha javobgarlikka tortilmagan.

Ma'lum bo'lishicha, buni bajarish oson emas, sababi ushbu qonunni amalda bajarish uchun davlatimiz tomonidan aynan me'moriy yodgorliklarga nisbatan xanuzgacha zaruriy hujjatlar va qo'llanmalar ishlab chiqilmagan. Tarix va madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish bo'limlari behafsala bunday ijarachilarga nisbatan

biror-bir chora qo'llash huquqiga ega emaslar. Hatto-ki jarima ham solisha olmaydilar. Bunday huquqni faqat shahar va rayon me'moriy inspeksiyalari bajarishlari kerak. Tarixiy binodagi me'moriy detal bo'lagini bu inspeksiyadagi ko'p ishchilar oddiy uydagi shu kabi detalning zararlanishi bilan bir xil baholaydilar. Bundan hafsalasizlik va bunday holatlarga butunlay jazo chorasini ko'rilmaligidan kelib chiqadi. Natijada muhokama qilinayotgan muammolar yechimi hal qilinmay qolaveradi.

Muhim zamonaviy ijtimoiy-shaharsozlik vazifalarini hal etish maqsadida hozirgi vaqtda Toshkentda Chig'atoy, Farobiy, Sag'bon va Qorasaroy ko'chalari kengaytirildi. Ko'chalar transport uchun qulay holga keltirildi. Ushbu ko'chalarda 2-3-4 qavatli turar joy va jamoat binolari qurilishi rejalashtirilmoqda. Bularning hammasi shahar muhiti qulayligini ma'lum darajada ko'taradi. Ammo, afsuski, bu ko'chalardagi ba'zi ziyoratgoh binolari va XVIII-XIX asrlarda qurilgan turar joy binolari buzib tashlandi, Natijada tarixiy shaharning shimoli-g'arbiy qismining biroz buzilishiga sabab bo'ldi.


Bu jihatdan Toshkent arxitektura qurilish instituti "Arxitektura tarixi va nazariyasi" kafedrasidan Toshkentning eski shahar qismida joylashgan, XP asrga mansub bo'lgan Suzuk ota majmuasini qayta tiklash loyihasi bajarilgan va ijobiy baholandi, hamda ushbu majmuada joylashgan Amir Temur davrida qurilgan Suzuk ota masjidi – "Emal idishlar ishlab chiqarish zavodi"ning omboridan bo'shatilib o'z vazifasini bajarmoqda. Hozirgi kunda ushbu majmuada qayta tiklangan va bu yerda "Suzuk ota" mahalla qo'mitasi faoliyat ko'rsatmoqda.

Shuningdek, "Cho'pon ota" masjididan tarix muzeyi sifatida foydalanish ko'zda tutilgan. "Polyak Kostyoli" yodgorligini buzilish holatigacha olib kelgan ombor xonalari tozalanib, ushbu yodgorlik qayta ta'mirlangandan keyin, hozirgi kunda katta shuhratga ega "Organ musiqasi" konsert zali sifatida faoliyat ko'rsatmoqda. Samarqand Ishratxona yodgorligi atrofidagi zamonaviy binolarning shakllanishi 1970 yilga to'g'ri kelar ekan. Atrofdagi turar joy binolarning tartibsiz qurilishi natijasida yodgorlikni muhofaza hududini aniqlash va o'rganishga, muhofaza hududini tashkil etish chora tadbirlarini ishlab chiqish zarurligini keltirish mumkin. (1.1.1- Rasm.)

Yodgorliklarning muhofaza hududlarini tashkil etish vazifalarini nazorat qilish.



1.



2.

3.

1. Ёдгорликни умумий куриниши.
2. Ёдгорлик ҳудудида 1970 йилги замонавий бино.
3. 1970 йилги Ёдгорлик ҳудудининг ҳолати (А.САЛИМОВ томонидан)

## ИШРАТХОНАИ ЁДГОРЛИГИ ХУДУДИНИНГ ЗАМОНАВИЙ ҲОЛАТИ. САМАРКАНД.

### *1.1.1-Rasm .Yodgorlik hududida zamonaviy binolarning shakllanishi.*

Yodgorliklarning muhofaza hududlarini tashkil etish vazifalarini nazorat qilishni Madaniyat va sport ishlari Vazirligi qoshidagi madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish ilmiy ishlab chiqarish Bosh Boshqarmasi (GlavNPU) bajaradi. Ta'mirlash ishlarini ishlab chiqarish ustaxonalari, shuningdek qator umumqurilish trestlari va xususiy korxonalar olib boradilar.

Ta'mirlash ishlari loyihalarini "Ta'mirshunos" OTAJ va xususiy firmalar bajarishadi. Muddati va davomiyligini O'zbekiston madaniyat va sport ishlari Vazirligi qoshidagi GlavNPU belgilaydi va nazorat qiladi.

Me'morchilik va shaharsozlik yodgorliklarini muhofaza qilish, ta'mirlash va ulardan foydalanish jarayonlarini boshqarish vazifalarini vakolati biror bir davlat tashkilotlariga birlashtirish vaqti yetdi. Buning uchun tarix va madaniyat yodgorliklari muhofazasi bo'yicha alohida qo'mita tuzish maqsadga muvofiq bo'lardi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2002 yil 29 iyuldagi 269-sonli "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni mukammallashtirish haqida"gi qarori yodgorliklarni muhofaza qilish, foydalanish, ta'mirlash va tashviqot qilishni boshqarishni madaniyat va sport ishlari Vazirligiga topshirdi. Ammo bu markazlashtirish ramziy xarakterga ega, negaki Vazirlikdagi yodgorliklarni muhofaza qilish maxsus tashkilotlari bo'lgan hokimiyatlarning mahalliy organlariga, ta'mirlash tashkilotlariga to'liq ta'sir o'tkaza olmaydi.

Madaniyat va sport ishlari Vazirligi bazasida tashkil etilgan muassasalararo kengash ham yuqorida keltirilgan muammolarni hal eta olmaydi. Aynan shuning uchun, u muassasalararo va biror davlat vakolatiga ega bo'la olmaydi. Bu muammoni hal etish uchun bu sohani tajribali mutaxassislar bilan ta'minlash juda ham muhim.


Ammo me'moriy yodgorliklarni ta'mirlash tarixiy shahar markazlarini qayta tiklash sohasida ixtisoslashtirilgan mutaxassis - ta'mirshunoslar, me'morlar, muhandis va shaharsozlar respublikamizda yetarli emas. Toshkent arxitektura qurilish institutida ham, Samarqand Davlat arxitektura qurilish institutida ham bunday mutaxassislar tayyorlanmaydi. Eng zaruri, bu institutlarda "Arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash va tarixiy shaharlarni qayta tiklash" muvofiq lashtirilgan, ixtisoslashgan kafedra ochish kelajak uchun juda ham zarur.

O'zbekistonda me'moriy yodgorliklarni ta'mirlash va qayta tiklash sohasidagi olib borilgan ishlar va umumiy muammolar holatining bunday qisqa tahlili, butun jamiyatimizning faqat javobgarligini sezish va bu muammoga yondashuvini sezishi bilangina hal etilishi mumkin bo'lgan masalalarning keng ko'lamini ochib berdi.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2018 yil 19 dekabrda PQ-4068-son [qaroriga](#) muvofiq Vazirlar Mahkamasi qarori qabul qilindi.**

**O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniy meros departamenti markaziy apparatining**

**TUZILMASI**



**Takrorlash uchun savollar:**

1. Muhofaza hududlarining asosiy vazifalari nimadan iborat?
2. Muhofaza hududida konsepsiyalarni shakllantirish deganda nimani tushunasiz?.
3. Yodgorliklarning muhofaza hududlarini tashkil etish shart sharoitlari nimalardan iborat?
4. Shaharsozlikda tarixiy madaniy yodgorliklarni saqlash va ulardan foydalanish deganda nimani tushunasiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O.M.Salimov. Magistrlik dissertatsiyasini yozish bo'yicha uslubiy qo'llanma. T., 2003. 24 bet.
2. X.Sh.Po'latov, A.S.Urolov. Arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash va qayta qurish. O'quv qo'llanma. T., 2002. 85 bet.
3. A.M.Salimov. Osnovnie prinsipi rekonstruksii istoricheskix kompleksov gorodov Uzbekistana. Metodicheskiye ukazaniya. T., 1994. 18 str.
4. A.M.Salimov. Osnovnie prinsipi organizatsii oxrannix zon pamyatnikov arxitekturi i gradostroitelstva. Metodicheskie ukazaniya. T., 1994. 18 str.

## ME'YORIY XUJJATLAR

### MADANIY MEROS OBYEKTLARINI MUHOFAZA QILISH VA ULARDAN FOYDALANISH TO'G'RISIDA

#### I. UMUMIY QOIDALAR

##### Ushbu Qonunning maqsadi. (1-modda)

Ushbu Qonunning maqsadi O'zbekiston xalqining umummilliy boyligi bo'lmish madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

##### Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlari.( 2-modda)

Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Qoraqalpog'iston Respublikasida madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlar Qoraqalpog'iston Respublikasi qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

#### O'QUV JARAYONINI TASHKIL

#### ETISHNING INNOVASION SHAKL, VOSITA VA METODLARI.





## 1.1. “Shaharsozlik va arxitektura yodgorliklarining muhofaza hududlarini tashkil etish” mavzusi bo’yicha

### KEYS - TEXNOLOGIYA

*Shaharsozlik va arxitektura yodgorliklarining muhofaza hududlarini tashkil etish mavzusi o’zining mazmuni va maqsadi bilan boshqa mavzulardan o’zining boshlang’ich ma’lumotlari bilan farqli jihatlari mavjud. Avvalo bu mavzu bizni arxitektura yodgorliklarini muhofaza hududlarini tashkil qilish usullarini o’rgatadi. Xo’sh nima maqsadlarda biz bu mavzuni o’rganamiz?”*

#### 1. Keysning maqsadi:

##### **Keysning ta’lim maqsadi:**

Magistrantlarga keyingi ijodiy (loyihaviy va ilmiy tadqiqot) faoliyatida qo’llash uchun arxitektura yodgorliklarini ta’mirlash bo’yicha, hamda muhofaza hududlari saqlash tamoyillarini chuqur o’rganish; zarur hollarda “Arxitektura yodgorliklarini muhofaza hududlarini saqlash”ga oid muammoni hal etish ko’nikmalarini berish.

##### **Rejalashtirilgan o’quv natijalari:**

Magistrantlar shaharsozlik va arxitektura yodgorliklarining muhofaza hududlarini tashkil etishning asosiy tamoyillari haqida, arxitektura yodgorliklarining muhofaza hududlariga xos bo’lgan umumiy muammolarini hal etish usullarini o’rganib chiqish keyingi ijodiy faoliyatlarida ulardan foydalana biladilar.

#### **2. Magistrantlar keysni muvaffaqiyatli yechishlari uchun quyidagi tayanch bilim va ko’nikmalarga ega bo’lishlari lozim:**

- a) Arxitektura yodgorliklarining muhofaza hududlarini tashkil etishning asosiy tamoyillari o’rganib chiqish;
- b) Qadimgi va ilk o’rta asrlar arxitekturasi xususiyatlarini o’rganib chiqish;
- v) Arxitektura yodgorliklarini ta’mirlash hamda muhofaza hududlarini tashkil etish usullari haqida bilishlari kerak;

#### **3. Keysning tipologik belgilari:**

Ushbu keys kabinetli keyslar turkumiga mansub: u hujjatlar ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Keys syujetsiz, keysdagi holat hozirgi zamonga to’g’ri keladi.

Keys obykti: Arxitekturasi yodgorliklari saqlash va ularni muhofaza hududlarini to’g’ri tashkil etish tamoyillari.

Keys o’rtacha miqdordagi, strukturalashgan. O’quv topshiriqni keys-topshiriq yordamida tasvirlanadi.

Keysning didaktik maqsadi magistrantlarga muammoni ajratish va yechish, boshqaruvchanlik qarorlarini qabul qilishga o’rgatishdan iborat.

#### **4. Keys uchun axborot yig’ish yo’llari:** muloqat, hujjatlarni o’rganish.

**5. Axborot yig'ish vositalari:** hujjatlar, ma'lumotnomalar.

**6. Axborot manbalari:**

Arxitektura yodgorliklari, tarixiy obidalar, va boshqalar..

**Kirish.** O'n mingdan ortiq tarixiy va shaharsozlik yodgorliklari davlat tomonidan muhofazaga olingan, davlat ularning ta'mirlanishiga va ularning chidamligini ta'minlashga katta mablag' sarflaydi.

Shaharsozlik yodgorliklariga: me'moriy yodgorliklar, ansambl va majmualar, tarixiy maydon, ko'chalar, guzarlar, markazlar, arxeologiya yodgorliklari, qadimiy planirovka, shahar va aholi punktlari qurilishlari qoldiqlari, fuqaro va ziyoratgoh me'morchilik inshootlari, xalq me'morchiligi inshootlari, shuningdek ular bilan bog'liq tasviriy, amaliy bezak, bog'u-roq'lar yaratish san'ati asarlari va tabiiy landshaftlar kiradi.

**Vaziyat:** Arxitektura yodgorliklarini muhofaza hududlarini tashkil etish usullari fanini o'rganish orqali shaharsozlik yodgorliklariga: me'moriy yodgorliklar, ansambl va majmualar, tarixiy maydon, ko'chalar, guzarlar, markazlar, arxeologiya yodgorliklari, qadimiy planirovka, shahar va aholi punktlari qurilishlari qoldiqlari, fuqaro va ziyoratgoh me'morchilik inshootlari, xalq me'morchiligi inshootlari, shuningdek ular bilan bog'liq tasviriy, amaliy bezak, bog'u-roq'lar yaratish san'ati asarlari va tabiiy landshaftlarni tarixini o'rganish hada ularni muhofaza qilish chora tadbirlari ochib berishdir.

**Muammo** shundan iboratki, Arxitektura yodgorliklarini muhofaza hududlarini tashkil etish usullari qanday tartibda olib borilayotganini taxlilini o'rgansak maqsadga muvofik va yanada samarali bo'ladi.

**Topshiriq:** Arxitektura yodgorliklarini muhofaza hududlarini tashkil etish usullari hamda qadimgi ilk o'rta asrlar arxitektura yodgorliklarini saqlashga qaratilgan chora tadbirlarni aniqlash va baholash.

## 1.2. MUHOFAZA HUDUDINI TASHKIL ETISHDA TADQIQOT USULLARI

### **REJA:**

1. Yodgorlik yoki madaniyat yodgorliklari guruhi atrofida muhofaza hududi va qurilishlarni tartibga solish hududini belgilanishi.
2. Yodgorlikdan zamonaviy maqsadlar uchun foydalanish masalasi.
3. Tarixiy shaharlarni qayta tiklashning loyiha yechimi.

### **Annotasiya**

Ushbu mavzuda muhofaza hududini tashkil etishda tadqiqot usullari o'rganish hamda, shaharlar tarixiy markazlarining umumiy ko'rinishi (silueti) va me'moriy qiyofasining o'ziga xosligini saqlashga qaratilgan bo'lib, har bir aniq yodgorlik, ansambl yoki shahar zamonaviy majmuasini saqlash uchun uning atrof muhit bilan rejaviy-kompozision aloqasini bog'lash masalasi yoritilgan.

### **TAYANCHIBORALAR:**

*Tarixiy yodgorlik. Rejaviy-kompozisiya. Tarixiy-badiiy Me'moriy yodgorliklar. Siluet. Ansambl. Majmualar. Maydon. Muhofaza hududi. Me'moriy rejalashtirish. Yondosh zona. Madaniy yodgorlik. Muhit Me'moriy-fazoviy.*


Amalda qo'llanilayotgan shaharlar qurilishini rejalashtirish qoida va me'yorlarida ta'kidlanishicha, madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish bilan bog'liq me'moriy rejalashtirish tadbirlari tarixiy shahar bosh reja loyihasining alohida bo'limini tashkil qilishi va madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish tashkilotlari bilan kelishilgan holda bo'lishi kerak.

Yodgorlik yoki madaniyat yodgorliklari guruhi atrofida muhofaza hududi va qurilishlarni tartibga solish hududi belgilanadi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, muhofaza hududlarini tashkil etishda jiddiy xato va kamchiliklarga yo'l qo'yiladi.

Muhofaza hududlarini tashkil etishning asosiy usullari shaharlar tarixiy markazlari umumiy ko'rinishi (silueti) va me'moriy qiyofasining o'ziga xosligini saqlash, hamda yangi qurilish va tarixiy shakllangan shahar muhiti garmonik birligini yaratishdan iboratdir.

Har bir aniq yodgorlik, ansambl yoki shahar zamonaviy majmuasini saqlash uchun, uning atrof muhit bilan rejaviy-kompozision aloqasini mustahkamlash uchun tadqiqotning atrof hududni obodonlashtirish va tartibga keltirish bo'yicha loyihaviy takliflarining hamma xususiyatlarini inobatga olgan muhofaza hududlarini yaratish yo'llarini o'rganishga alohida va individual yondoshuv talab etiladi. (1.2.2-Rasm) Loyihaga me'moriy yodgorliklarni saqlash, ularni ko'cha tizimi bilan ta'minlash, shaharsozlik tuzilishi, ularning qayta tiklanishi, sayyohlik maqsadida

obodonlashtirish va foydalanishning turli-tumanligi bilan bog'liq qator murakkab masalalar kiritilishi kerak. Bu masalalar nihoyatda dolzarb va o'z yechimida me'morning chuqur tadqiqoti va loyihaviy ishlovlarini talab qiladi.



**БИНОЛАРНИ ИДРОК ҚИЛИШ ХУДУДЛАРИ ВА ТАРТИБГА СОЛИШ ХУДУДЛАРИНИ АНИҚЛАШ (82)**

*1.2.1-rasm. Binolarni idrok qilish hududlari va tartibga solish hududlarini aniqlash.*

Tadqiqotning bir necha usullarini ajratish mumkin:

1. Shaharning rejaviy tuzilishini uning shakllanish tarixiy jarayonida o'rganish va tadqiq qilish. Bu tadqiqot arxiv materiallari, adabiy manbalar, turli davrlarda bajarilgan tarixiy shaharlarning rejaviy yechimini o'rganish, shuningdek obyektlarning zamonaviy holatda saqlanganligini o'rganib chiqish va uni fotofiksasiya qilish yo'li bilan o'tkazilishi.

2. Maydon va ko'chalarning rejaviy yechimi bo'yicha aloqalari, masshtabli nisbati, fazoviy tuzilishini o'z ichiga olgan shahar majmuasining me'moriy-fazoviy tuzilishi tahlili.

3. Shahar qurilishini uning tarixiy-badiiy va shaharsozlik qiymati hamda zamonaviy holati nuqtai nazaridan tahlil qilish, bunda alohida majmualar va binolarning me'moriy yodgorlik sifatidagi shaharsozlik ahamiyatini inobatga olish.

4. Arxeologik tadqiqotlarni talab qiluvchi hudud madaniy qatlami chegaralarini aniqlash.

5. Shahar majmuasining tashqi ko'rish nuqtalari va yo'nalishlaridan idrok qilinishini inobatga olgan holda vertikal tuzilishini tahlil qilish.

Shu maqsadda tarixiy markaz umumiy chegaralari, ya'ni markaziy me'moriy majmuaning eng yaxshi ko'rinish hududi aniqlanadi. Tarixiy yodgorliklarni idrok etish zonalari va qurilishlarni tartibga solish zonalarini belgilash uchun ko'rib idrok etish qonunlariga tayanuvchi hisob-kitobi hamda uslublari ishlab chiqiladi. Bundan kelib chiqib, sathni (yodgorlikning, kuzatuvchining ko'z balandligining) hisoblash, tik chiziqlarni uning hamma nuqtalarida to'g'ri burchak ostida kesib o'tuvchi yuza sathiga nisbatan olib boriladi.

Tarix va madaniyat yodgorliklariga ega tarixiy shaharlar markaziy qismlarining loyihaviy rejasini ishlashda ularni shunday holatda tekshirib chiqish kerakki, tartib zonalarini o'rnatish bo'yicha zarur shaharsozlik tadbirlarini, shuningdek tarixiy va madaniyat yodgorliklarining muhofazasiga tegishli, ulardan unumli foydalanish, tarixiy-madaniy qiymatini aniqlash talablarini to'liq inobatga olish zarur.

Shaharlarni, qadimgi madaniyat yodgorliklarini qayta tiklashda me'moriy yodgorliklarni yaxlit ko'rishning zarur sharoitini ta'minlash uchun tarixiy hududlarda yodgorliklarni va zamonaviy binolarni muhofaza qilish maqsadida to'qnashuvchi muhofaza hududlari (me'moriy yodgorliklar maydonlarining) va tartibga solish zonalarini (qayta tiklanadigan hududlarning alohida tartib zonalari) yaratish bo'yicha maxsus tadbirlarni ishlab chiqish talab etiladi.

Muhofaza hududi - bu, eng avvalo, yodgorlik va uning atrof muhiti o'rtasidagi rejalashtirilgan kompozision aloqalarni mustahkamlash vositasidir. Muhofaza hududlarini o'rnatish, yodgorliklarning me'moriy-badiiy sifatlarini to'laqonli ochib berish va uni idrok qilishning qulay sharoitlarini yaratib berish bilan bir qatorda, me'moriy yodgorliklardan zamonaviy foydalanish masalalarini ham hal qilishdan iborat, chunki muhofaza hududi o'lchamlari va chegarasini aniqlashda yodgorliklardan zamonaviy foydalanish ham katta ahamiyat kasb etadi. Bu masalalar o'zaro bog'langan, chunki tarixiy binolardan rasional foydalanish - ularning chidamliligini ta'minlashning radikal yo'llaridan biridir.

Yodgorlikdan zamonaviy maqsadlar uchun foydalanish - ularning saqlanishi va zamonaviy rejalashtirish, shuningdek yodgorliklarni sayyohlarga namoyish qilishni tashkillashtirish sharoitlarini aniqlash imkonini beruvchi yodgorliklarni ta'mirlash umumiy loyihasining zaruriy va hal qiluvchi qismidir.

Shahar tarixiy-me'moriy tadqiqoti natijasida tarixiy hududlar tizimi ishlab chiqiladi, ular quyidagicha ajratiladi:

**1.** Daxlsiz zona (tarixiy-me'moriy qo'riqxona) - umumiy rejalashtirish g'oyasi va ma'lum tarixiy muhitni saqlovchi bir qancha yodgorliklar va tarixiy

qiymatga ega binolarga ega me'moriy kompozisiya bilan birlashgan shahar qurilishi va landshafti hududi bir qismini qamrab oladi.

**2.** Muhofaza hududi yoki yodgorliklarni muhofaza qilish zonasi- bevosita yodgorlikni o'rab turuvchi hudud, unda tarixiy rejaviy muhit va landshaft saqlanadi, ularning yo'q bo'lgan elementlarini tiklash imkoniyati paydo bo'ladi.

**3.** Qurilishlarni tartibga solish zonasi (yoki tartibli qurilish) – muhofaza hududlariga yondosh zona, tarixiy va madaniy yodgorliklar uchun muhitni tashkil qilib, shahar me'moriy-fazoviy tuzilishida yodgorlik ahamiyatining saqlanishiga yordam beradi va yodgorliklarni kuzatish hamda tomosha qilishning qulay sharoitlarini ta'minlaydi. Qurilishlarni tartibga solish zonasidagi yangi qurilish binolarning funksional vazifasi, balandligi va uzunligi, kompozitsiyasi, ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish ko'rsatkichi, tektonika, material, stil xususiyati va boshqa joiz ko'rsatkichlar bo'yicha belgilanadi. Chegaralash xususiyati har bir aniq zona uchun yodgorlikka nisbatan uning holatidan kelib chiqib ko'rsatiladi.

**4.** Muhofaza qilinadigan landshaft (tabiat) zonalari- tarixiy landshaftning saqlanishi va tiklanishi hamda uning atrof tabiat bilan uyg'unligini ta'minlashga da'vat qiladi. Bu hududlarning har birida rejaviy yechimi va me'moriy qiyofasini inobatga olgan holda binolardan foydalanish masalalari hal qilinishi kerak.

**5.** Muhofaza hududlari tarkibiga "Tartibga solish hududi" kiradi, ya'ni hudud atrofiga yaqin joylashgan tarixiy va zamonaviy binolar guruhi bo'lgan shahar hududlarida. Tartibga solish hududlarini tashkil qilishda yangi qurilishlar bilan tutashgan me'moriy yodgorliklar to'plangan shahar markaziy qismi alohida murakkablik tug'diradi. "Tartibga solish hududlari"ni tashkil qilishda shaharlarning har birida va ularning markazlarida tarixiy va landshaft vaziyati xususiyatlarini inobatga olish kerak. Shuni ta'kidlash lozimki, qayta tiklashning alohida tartib hududlari qurilishini ko'p qavatli yangi binolar bilan shaharning tarixan yuzaga kelgan ko'rinishi(silueti)ni boyitish lozimligi va maqsadga muvofiqligini belgilagan holda, qurilish ko'rinishi(silueti)ning shakllanishini samarali nazorat qilish imkonini beruvchi zona ichkarisi va tashqarisidagi obyektlarni ko'rish nuqtalari bilan muvofiqlashtirish kerak.

Tarixiy shaharlarni qayta tiklashning loyiha yechimida tarixiy yodgorliklar va yangi qurilishlar oraliq'ida "tartibga solish hududi"ni ajratish tavsiya etiladi. Shaharning bunday joylarini "qayta tiklashning alohida tartib hududi" yoki yangi binolar qurilish hududi deb atash mumkin. Bog'lar uchun muhofaza hududlari maydoni mavjud chegaralar bo'yicha belgilanadi.

Faqat alohida badiiy yoki tarixiy ahamiyatga ega majmualar bundan mustasno, bunday bog'lar uchun muhofaza hududlari bog'ning eskirgan joylarini tiklashni

inobatga olgan holda belgilanadi, saroy va qo'rg'oncha bog' -rog' majmualarining muhofaza hududlarini tashkil etishda esa butun majmua uchun yagona muhofaza hududini yaratish zarur.

### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Muhofaza hududlarini tashkil etish loyihasini bajarish uchun nimalarga ahamiyat berish kerak?
2. Muhofaza hududida bajariladigan amaliy ishlar nimadan iborat?
3. Arhitektura yodgorliklarining muhofaza hududlarini tashkil yetish uslublari nimalardan iborat?
4. Arhitektura yodgorliklarini muhofaza qilishning nazariy asoslari nimalardan iborat?
5. Muhofaza hududlarida yodgorliklar uyg'unligini aniqlashdagi nimalar e'tiborga olinadi?

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O.M. Salimov. Magistrlik dissertasiyasini yozish bo'yicha uslubiy qo'llanma. T., 2003. 24 bet.
2. X.Sh. Po'latov, A.S. Urolov. Arhitektura yodgorliklarini ta'mirlash va qayta qurish. O'quv qo'llanma. T., 2002. 85 bet.
3. A.M. Salimov. Osnovnyye printsipy rekonstruktsii istoricheskix kompleksov gorodov Uzbekistana. Metodicheskiye ukazaniya. T., 1994. 18 str.
4. A.M. Salimov. Osnovnyye printsipy organizatsii ohrannyykh zon pamyatnikov arhitektury i gradostroitelstva. Metodicheskiye ukazaniya. T., 1994. 18 str.

## **ME'YORIY XUJJATLAR**

### **MADANIY MEROS OBYEKTLARINI MUHOFAZA QILISH VA ULARDAN FOYDALANISH TO'G'RISIDA**

#### **I. UMUMIY QOIDALAR**

##### **Asosiy tushunchalar. (3-modda)**

*Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:*

-Ansambllar- tarixan tarkib topgan hududda aniq ko'zga tashlanadigan, atrof manzarasi bilan umumiyliги yoki aloqadorligi tarixiy, arxeologik, me'moriy, estetik yoki ijtimoiy-madaniy qimmatga ega bo'lgan, ijtimoiy, ma'muriy, diniy, ilmiy, o'quv-ta'lim, istehkom, saroy, turar joy, savdo, ishlab chiqarish va boshqalar ahamiyatga molik hamda rassomlik, haykaltaroshlik, amaliy bezak san'ati, me'morchilik asarlari

bilan bog'liqlikda alohida yoki o'zaro birgalikda turgan yodgorliklar, imoratlar vainshootlar guruhlari, shuningdek tarixiy tarhlarning hamda manzilgohlar imoratlarining qoldiqlari, landshaft arxitekturasi vabog'-rog'san'ati asarlari (bog'lar, istirohatbog'lari, xiyobonlar, sayilgohlar);

-Diqqatga sazovor joylar— inson vatabiat ijodining mushtarak mahsuli, shuningdek tarixiy, arxeologik, shaharsozlik, estetik, etnologik yoki antropologik qimmatga ega bo'lgan hududlar, shujumladan xalq hunarmandchiligi maskanlari, tarixiy manzilgohlar yoki shaharsozlik tarhimarkazlari vatarixiy (shujumladan harbiy) voqyealar, yodgorliklar, atoqlitarixiy shaxslarning hayoti bilan bog'liq bo'lgan imoratlar, xotira joylari, tabiiy landshaftlar, shuningdek ko'hnashaharlar, shahristonlar, manzilgohlar, qarorgohlar imoratlarining madaniy qatlamlari, qoldiqlari, marosimlar bajo etiladigan joylar;

-Yodgorliklar- tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan ayrim imoratlar, binolar vainshootlar, ular bilan bog'liq bo'lgan rassomlik, haykaltaroshlik, amaliy bezak san'ati asarlari hamda shuimoratlar, binolar vainshootlarning tarixan tarkib topgan hududlari, shuningdek memorial uylar, kvartiralar, qabristonlar, maqbaralar vaayrim qabrlar, monumental san'at asarlari, fan vatexnika (shujumladan harbiy texnika) obyektleri, antropologiya, etnografiya, numizmatika, epigrafika, kartografiya, fotografiya materiallari, kinofilmlar, audio-, video yozuvlar hamda boshqajismlardagi yozuvlar, adabiyot vasan'at asarlari, arxiv, qo'lyozma vachizma hujjatlar, qadimgi qo'lyozma kitoblar, harf terish usulida chiqarilgan dastlabki kitoblar, nodir vanoyob nashrlar, notalar, muqaddas buyumlar vameorial xususiyatga ega bo'lgan ashyolar, tosh haykallar, qoyaga o'yib solingan tasvirlar, arxeologiya yodgorliklari;

## **O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISHNING INNOVASION SHAKL, VOSITA VA METODLARI**

### **Innovation o'qitish metodlari.**

#### **1.2 “Muhofaza hududini tashkil etishda tadqiqot usullari” mavzulari bo'yicha**

### **KEYS - TEXNOLOGIYA**

*“Muhofaza hududlari tarkibiga “Tartibga solish hududi” kiradi, ya'ni hudud atrofiga yaqin joylashgan tarixiy va zamonaviy binolar guruhi bo'lgan shahar hududlari mavjud”. Xo'sh tartibga solish hududlarini tashkil qilishda shaharlarning har birida va ularning markazlarida tarixiy va landshaft xususiyatlari qanday yechim topadi?”*



---

## 1. Keysning maqsadi:

### **Keysning ta'lim maqsadi:**

Magistrantlarga keyingi faoliyatida qo'llash uchun tartibga solish hududlarini tashkil qilish tamoyillarini chuqur o'rganishda, tarixiy shaharlarni qayta tiklashning loyiha yechimida tarixiy yodgorliklar va yangi qurilishlar oralig'ida "tartibga solish hududi"ni ajratish me'yorlarini o'rganish tavsiya etiladi.

Yodgorlikdan zamonaviy maqsadlar uchun foydalanish - ularning saqlanishi va zamonaviy rejalashtirish, shuningdek yodgorliklarni sayyohlarga namoyish qilishni tashkillashtirish, yodgorliklarni ta'mirlashda yodgorlikning umumiy loyihasini ishlab chiqish ko'nikmasini berish.

### **Rejalashtirilgan o'quv natijalari:**

Muhofaza hududini tashkil etishda tadqiqot usullarini mohiyatlarini ochib beradilar.

## **2. Magistrantlar keysni muvaffaqiyatli yechishlari uchun quyidagi tayanch bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim:**

a) Yodgorlik yoki madaniyat yodgorliklari guruhi atrofida muhofaza hududi va qurilishlarni tartibga solish hududini aniqlay oladi.

### **3. Keysning tipologik belgilari:**

Ushbu keys kabinetli keyslar turkumiga mansub: u hujjatlar ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Keys syujetli, keysdagi holat hozirgi zamonga to'g'ri keladi.

Keys obyekti: Yodgorlik yoki madaniyat yodgorliklari guruhi atrofida muhofaza hududi va qurilishlarni tartibga solish. Tarixiy obidalar va ularga oid filmlar va slaydlar.

Keys o'rtacha miqdordagi, strukturalashgan. O'quv topshiriqni keys-topshiriq yordamida tasvirlanadi.

Keysning didaktik maqsadi talabalarga qadimgi va bugungi davr arxitekturasi orasidagi farqlarni solishtirish, ularning foydali tomonlarini o'zlashtirish, tahlil qilish hamda o'z ijodiy faoliyatiga qo'llash va yechish, boshqaruvchanlik qarorlarini qabul qilishga o'rgatishdan iborat.

**4. Keys uchun axborot yig'ish yo'llari:** Muloqat, hujjatlarni o'rganish. Tarixiy obidalarga sayohat.

**5. Axborot yig'ish vositalari:** Hujjatlar, ma'lumotnomalar, filmlar.

**6. Axborot manbalari:** Tarixiy yodgorliklar, obidalar, va boshqalar.

**Kirish.** Amalda qo'llanilayotgan shaharlar qurilishini rejalashtirish qoida va me'yorlarida ta'kidlanishicha, madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish bilan bog'liq me'moriy rejalashtirish tadbirlari tarixiy shahar bosh reja loyihasining alohida bo'limini tashkil qilishi va madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish tashkilotlari bilan kelishilgan holda bo'lishi kerak.

**Vaziyat:** Yodgorlik yoki madaniyat yodgorliklari guruhi atrofida muhofaza hududi va qurilishlarni tartibga solish hududini aniqlashni o'rganish orqali tarixiy shahar qismidagi tarixiy yodgorliklarni ta'mirlash, moslashtirish bo'yicha kompleks yechimini topish va yodgorliklarni saqlash chora tadbirlarini qo'llash.

**Muammo** shundan iboratki, tartibga solish hududlarini tashkil qilish, tarixiy shaharlarni qayta tiklashning loyiha yechimida tarixiy yodgorliklar va yangi qurilishlar oralig'ida "tartibga solish hududi"ni ajratishda yo'l qo'yiladigan kamchiliklar.

**Topshiriq:** Muhofaza hududi va qurilishlarni tartibga solish hududini aniqlashni o'rganish hamda tarixiy shahar qismidagi tarixiy yodgorliklarni ta'mirlash, moslashtirish bo'yicha kompleks yechimini topish.

### **1.3. TARIXIY-ME'MORIY MAJMUALARNING MUHOFAZA HUDUDLARINI LOYIHALASH AMALIYO TI**

#### **REJA:**

- 1. Muhofaza hududini tashkil etish uchun ajratish, taklif etilayotgan hudud.*
- 2. Tozalangan maydonlarda tarixiy yuzaga kelgan fazoviy muhit qiyofasini buzuvchi yangi ma'muriy, o'quv va sanoat ahamiyatidagi bino va inshootlar.*
- 3. Yodgorliklarning muhofaza hududini tashkil etish bo'yicha qulay yechimlar.*
- 4. Muhofaza hududlari loyihasida "zona"ga ikki asosiy kirish yechimi taklif etish.*

#### **Annotasiya**

*Ushbu mavzuda tozalangan maydonlarda tarixiy yuzaga kelgan fazoviy muhit qiyofasini buzuvchi yangi ma'muriy, o'quv va sanoat ahamiyatidagi bino va inshootlar qurilishi, hamda turli davrlarda tashkil etilgan qurilishlarni bir-biriga bog'lash tizimini ya'ni binolarni majmua holatida bevosita yaqinlashtirishni tashkil qilish masalasi ko'rilgan. Tarixiy-me'moriy majmualarning muhofaza hududlarini loyihalash, hamda loyihalarda "zona"ga ikki asosiy kirish yechimini taklif etish amaliyoti yoritilgan.*

#### **TAYANCH IBORALAR:**

*Me'moriy majmua. Fazoviy muhit. Badiiy. Madaniy. Masshtab. Muhofaza hududi. Ta'mirlash. Eksteryer va interyer. Muhofaza zonasi. Kompleks. Zamonaviy. An'anaviy. Xom ashyo. Konstruksiya. Yodgorlik Shakl. Kontrast.*

Yuz yillar davomida to'plangan, Toshkentning takrorlanmas qiyofasini yaratuvchi badiiy va madaniy boyliklarni aniqlash emas, balki yangi binolar orasiga uzviy kiritish zarur. Toshkent inshootlarining umumiy fondida qadimgi me'morchilik foizi kamayib bormoqda. Yangi yirik masshtabli tuzilishning mayda qadimiy qurilishlar bilan kompozision aloqalari muammosi hal etilmay qolyapti.

Shaharning asosiy magistralini asrlar davomida bezatib turgan Shayx Xovandi Toxurning tarixiy yuzaga kelgan me'moriy majmuasida binolarning o'zaro bog'lanishi, ularning joylanishi va masshtablari yaqin joylashgan turar joylar va tutashgan ko'chalarni inobatga olgan holda yagona me'moriy g'oyaga bo'ysundirilgan. Ilgarigi Shayx Xovandi Toxur mozorida bir necha qayta qurilgan maqbaralar saqlanib qolgan, jumladan, Shayx Xovandi Toxur, Yunusxon, Qaldirg'ochbiy (To'labiy) maqbaralari.

Tozalangan maydonlarda tarixiy yuzaga kelgan fazoviy muhit qiyofasini buzuvchi yangi ma'muriy, o'quv va sanoat ahamiyatidagi bino va inshootlar paydo bo'ldi. Turli davrlarda tashkil etilgan qurilishlarni bir-biriga bog'lash tizimi, ya'ni binolarni majmua holatida bevosita yaqinlashtirishni tashkil qilish muammosi hal etilmagan. Shayx Xovandi Toxur majmuasining saqlanib qolgan va ta'mirlangan qoldiqlari shahar funksional aloqalari va uning fazoviy sistemasida o'z o'rnini egallamadi, zamon va hayotdan tashqarida bo'lib qoldi.

Turli loyihalash tashkilotlari tomonidan loyihalangan yangi binolar xarakteri yagona shaharsozlik g'oyasiga ega bo'lmagan, me'moriy muhitga aynan yaxlitlik yetishmaydi. Birlikni buzuvchi muhim sabablardan biri yuzaga kelgan muhit asosiy tarkibiy qismlari me'moriy muhitida muvofiqlikning yo'qligidir.

Toshkentdagi Shayx Xovandi Toxur yodgorliklari majmuasining muhofaza hududida saqlanib qolgan me'moriy yodgorliklarni zamonaviy qurilishlarga kiritish, eski va yangi me'morchilikning birikuviga erishish vazifasi turardi.

Yuzaga kelgan atrof qurilishlar, ularning xarakteri, maydon chegarasi yodgorliklarni ko'rish sharoiti hajmi, cheklangan ta'sir radiusiga ega bo'lgan va uzoqroq masofadan idrok qilish qiyin bo'lgan, me'moriy yodgorliklarning unchalik katta bo'lmagan balandliklarini inobatga olib, loyihada, bu hududda unga yaqin bo'lgan muhitni saqlash va qulay tomosha qilish sharoitini yaratish imkonini beruvchi muhofaza hududida landshaft zonasini yaratish taklif etiladi.

Muhofaza hududini tashkil etish uchun ajratish taklif etilayotgan hudud - bu, Shayx Xovandi Toxur umumiy nomi bilan ataluvchi me'moriy yodgorliklarning yaxlit bir guruhi joylashgan va saqlanib qolgan kichik majmua maydonidir. Hududning zamonaviy qurilishlar bilan egallangan qolgan qismida tarixiy joylashishi va qurilishlarni, shuningdek tarixiy muhit va landshaftni tiklashning imkoniyati yo'q. Muhofaza hududi uchun ajratilgan hudud chegarasida majmuaning tarixiy-topografik

maydon hududini qisman qayta tiklash, shuningdek landshaftning ba'zi elementlarini tiklash mumkin.

Muhofaza hududi chegaralari - Navoiy ko'chasi orasidagi hududda "UZLITI shaharsozlik" institutining mavjud korpusi, Ish Boshqaruvi binosi bilan Yunusxon maqbarasi tomonga qarab davom etadi. Shimol tomonda qurilgan "Islom Universiteti"ning ma'muriy binosi va Abdulla Qodiriy prospektidagi "Sharq guli" fabrikasi oralig'idagi hudud chegaralaydi. Sharqdan – "Arxjilproyekt" binosi, Islom Universiteti yotoqxonasi va "Sharq guli" fabrikasi binolari oralig'idagi hudud.

Shunday qilib, hududiy chegaralar chizilgan, shu oraliqda yodgorliklarning saqlanishini kafolatlaydigan tadbirlar amalga oshirilishi kerak. Bu - yodgorliklarni ta'mirlash, ularni yaxshi holatda (eksteryer va interyerlarini) ushlab turish, muhofaza zonasiga tegishli hududni obodonlashtirish.

Loyiha takliflarini ishlab chiqishda yangi qurilgan binolarni sinchiklab o'rganildi, unda me'moriy yodgorliklar orasida yangi me'moriy tuzilish sistemasi hosil bo'lgan. "Eski" va "yangi" binolarning uzviy kompozision o'zaro aloqasining yo'qligi, saqlangan yodgorliklarning emosional ta'sirini ancha kamaytirgan. Yangi va eskining ko'lamlari taqqoslab bo'lmaydigan, ular orasida hech qanday aloqa yo'q, eskidan yangiga o'tishni ta'minlaydigan hech qanday oraliq elementlari ham yo'q.

Yuz yilliklar davomida bu yodgorliklar atrofdagi kam qavatli binolar orasidan ajralib turdi. Endi ular juda kichik bo'lib tuyuladi. Maydonning tarixiy ko'rinish (siluet) i buzildi, nisbatlarning nomuvofiqligi umumiy ko'rinishga nouyg'unlik olib kirdi. Yangi qurilgan inshootlar me'moriy yodgorliklar badiiy qiymatini yo'qotishgacha olib keldi.

Go'yo, simmetriyaning rivojlanuvchi g'oyasi Yunusxon maqbarasining idrok qilinish yaxlitligini kafolatlashi kerak edi. Lekin xatto fazoviy muhitni tashkil qilishning shu kuchli vositasi ham bunday sharoitda kuchsizlik qildi. Masshtab birligi ham muhitni idrok qilishning yaxlitligi uchun katta ahamiyatga ega, ammo bu yerda u ham yo'q. Muhit yaxlitligi ham, kompozisiya ham, qurilgan binolarning umumiy badiiy yechimi ham bu yerda natijasiz qoldi. Yuzaga kelgan sharoitlarda maydonni qayta tiklash o'zining murakkab qonuniyatlariga ega.

Yodgorliklarning muhofaza hududini tashkil etish bo'yicha qulay yechimlar qabul qilish zaruriyati yuzaga keldi. Qaldirg'ochbiy va Shayx Xovandi Toxur maqbaralari oldidagi fazoviy ko'rinishi yangicha namoyon bo'lishi uchun yodgorliklarning umumiy ko'rinishiga xalaqit beruvchi Islom Universiteti yotoqxonasining eski binosini buzib tashlash kerak.

Shunda ularning ajoyib me'moriy yechimi namoyon bo'ladi, Yunusxon maqbarasi tomondan majmuani kuzatish uchun ko'rinish nuqtalari ochiladi. Asosiy

e'tibor me'morchilik yodgorliklariga qaratilishi uchun obodonlashtirish vositalari bilan - o'simliklar, kichik me'moriy shakllar bilan zamonaviy qurilishlarning uzoqlashuviga erishish mumkin. Bunday holda mayda detallar va bo'linishlar ko'rinmaydi, binolarni asosiy kuzatish nuqtalaridan katta masofalarda binolar yaxlit ko'rinadi.

Muhofaza hududlari loyihasida "zona"ga ikki asosiy kirish yechimi taklif etilgan. Navoiy ko'chasi tomonidan yangi bunyod etilgan baland bino orqali ikki tomondan ochiq o'tish yo'li hal qilingan. Bu kirish darvozalarining ko'chaning yuzaga kelgan qurilishiga joylashtirilishi birmuncha shubha uyg'otadi. Yodgorliklarni muhofaza qilish tashkilotlari va Yodgorliklarni saqlash Bosh Boshqarmasi bu binoning joylashishiga ahamiyat bilan yondoshishlari kerak, u Navoiy ko'chasi tomondan Yunusxon maqbarasi ko'rinishini yopadi va Shayx Xovandi Toxur tarixiy majmuasi fazoviy kompozitsiyasi yechimiga nouyg'unlik olib kiradi.

Tarixiy topografik rejaga amal qilib, Shayx Xovandi Toxur majmuasida qo'shimcha qurilishlar bo'lmagan va bu yerda o'sha vaqtning ulug'vor, yirik inshooti - Yunusxon maqbarasi markaziy yadro bo'lgan. Berilgan loyiha majmuadagi qayta tiklash ishlarida yangi ko'rinishni taklif qiladi. U maqbaraga olib boruvchi hiyobondagi maydonni egallashi mumkin. Ushbu loyihada Navoiy ko'chasi tomonidan zinapoyali tantanali kirish qismi nazarda tutiladi. Obodonlashtirilgan hiyobon kichik me'moriy shakllarning joiz qo'llanilishi bilan tomoshabinni bu hududning shakllanishida asosiy rol o'ynagan Yunusxon maqbarasi oldidagi maydonga olib borishi kerak.

Bu maydonga Qaldirg'ochbiy va Shayx Xovandi Toxur maqbaralari bilan bog'langan ikkinchi kirish gruppasi tutashgan bo'lib. me'moriy-fazoviy yechimlarning kompozitsion o'zaro aloqasi an'analari loyihada qo'llaniladi. Bu maydonga shaharning turli tumanlarida saqlangan masjid binolari olib kelish rejalashtirilgan. Me'morchilik nuqtai nazaridan kelajakda bu yerda yangi loyihaviy yechimlar amalga oshiriladi.

Hudud markaziga, ikki asosiy kirish qismidan tashqari etnografik muzey joylashtirilishi taklif qilingan maydon orqali Abdulla Qodiriy ko'chasi tomondan ikkinchi darajali kirish qismi olib kiradi. Bu yerda to'siqlar bilan, ochiq o'tish yo'llari birlashgan yopiq va yarim yopiq kichik hovlilar, issiq va quyoshdan himoyalovchi soyabon va ko'kalamzor joylar mavjud.

Madaniy merosni saqlagan va tarix nishonalarini gavalantirgan me'morchilik yodgorliklaridan foydalanish bo'yicha takliflar faqat ularning jismonan mavjudligini nazarda tutib qolmay, ularga yangi vazifa topishlari kerak. Bu vazifa yodgorlikning

fazoviy tuzilishiga muvofiq kelishi va uning badiiy obrazli xarakteristikasi hamda tarixiy birikuviga zid bo'lmashligi kerak.

Arxitektura yodgorliklarining keyingi vazifasini belgilovchi asosiy omil, jamiyatning ma'naviy, g'oyaviy hayoti, shuningdek uning zamonaviy shahar fazoviy-shaharsozlik muhitidagi o'rnidir.

Shayx Xovandi Toxur majmua kompleksi hududidagi ko'rib chiqilayotgan me'moriy yodgorliklar maqbaralar guruhiga tegishli.

Bu inshootlar tektonikasi va konstruksiyasi xususiyatlarini inobatga olib, ularni yangi vazifalar uchun (turli xildagi tasviriy va amaliy san'at ko'rgazmalarini tashkil qilish obyekti sifatida) moslashtirish variantini eng muhim deb topish mumkin. Bu holda yodgorlikning qiyofasi va konstruksiyasi deyarli to'liq saqlanishi mumkin.

Fasad va interyerlarning sifatli ta'miri zarur yodgorlik muhofaza zonasi hududini obodonlashtirish, kichik me'moriy shakllardan foydalanish va yaxshi navli daraxtlar bilan ko'kalamzorlashtirish zarur. Obodonlashtirish loyihasi Arxitektura va qurilish Bosh boshqarmasi (GlavyaAPU) va madaniyat yodgorliklarini saqlash Bosh boshqarmasi (GlavNPU) bilan kelishilgan holda Texnik ish rejasi (TRP) bosqichida bajariladi.

Shunday qilib, Shayx Xovandi Toxur majmuasi muhofaza zona loyihasi yodgorliklarni muhofaza qilish tashkilotlari uchun Toshkent tarixiy-mexmoriy majmualarida hal qiluvchi o'rinni egallovchi to'laqonli zona yaratishda asosiy loyiha bo'lishi kerak.

Hazrati Imom me'moriy majmuasi muhofaza hududi va tartibga solib turuvchi hudud chegaralari Hazrati Imom tarixiy-me'moriy majmuasi Baroqxon madrasasi, noma'lum maqbara, Suyunchxon maqbarasi, Juma masjidi, Mo'yi Muborak madrasasi, Chillaxona, mozorga kirish, hovuz, Kaffol Shoshiy maqbarasi, Boboxoji maqbarasi, Namozgoh masjidlarini o'z ichiga oladi. Majmuanin umumiy maydoni 8 gektar atrofida.

Majmua Toshkentning Sebzor qismida joylashgan mozor bilan bog'langan, ilgari shaxristondan shimolda, ilk o'rta asrlar shahar tashqarisi, Rabod-Daxil hududida, tashqi rabod devorlari ichida. Keyinchalik mozor XII-XVI asrlarda Jinko'chadan janubroqdan o'tgan shahar devori tashqarisiga chiqib qolgan. Keyin u yana XIX asr o'rtalarigacha Toshkentni o'rab turgan devoriga kirgan. Bu yerdan shaharni shimoliy rayonlar, ko'chmanchi qishloqlar bilan bog'lovchi katta qadimiy yo'l o'tgan. Bu majmuaning eng qadimgi yodgorligi Toshkentda din va shariat targ'ibotchisi bo'lgan Abu Bakr Muhammad Kaffol Shoshiy mozori hisoblanadi. Mozor ustidagi maqbara bu yerdagi dastlabki qurilish, hijriy 948, milodiy 1541-42 yillarda vayron bo'lgan ancha qadimgi bino o'rnida bunyod etilgan.

XVI asrning birinchi yarmida Kaffol Shoshiy mozoridan janubda Baroqxon madrasasi qurilgan. Bu yerda eng avval kichikkina sodda gumbazli maqbara bunyod etilgan. Xarakterli xochsimon plan va kesishgan ravoqlar, qalqonsimon yelkanlar sistemasiga tayangan tom bu binoni XV asr ikkinchi yarmi va XVI asr boshlariga tegishli ekanini ko'rsatadi, keyinchalik ikkinchi, yirikroq va chiroyli qilib bezatilgan Gumbazi Baroqxon maqbarasi qurilgan, uning oldidagi hovlini ikki yon tomondan hujralar, sharqiy tomondan esa alohida peshtoqli kirish qismi o'rab turadi. Birinchi kichik maqbara yangi inshoot ichiga kirgan.

Gumbazi Baroqxon bosh binosi kesishgan ravoqlar va qalqonsimon yelkanlar sistemasiga tayangan gumbaz bilan yopilgan xochsimon shakldagi go'rxonadan iborat.

Me'moriy sifatleri bo'yicha Gumbazi Baroqxon XVI asr birinchi yarmi O'rta Osiyo me'morchiligining buyuk binolari qatoriga kiradi. Madrasa qarshisiga Qo'qon xonligi davrida, 1856-1857 yillarda Toshkent hokimi Mirza Ahmad Qushbegi uncha katta bo'lmagan, 13 hujradan iborat Mo'yi Muborak madrasasini qurdirgan. Madrasa bilan yonma-yon bir necha bor qaytadan qurilgan Toshkentning jome masjidlaridan biri Tilla Shayx masjidi joylashgan. Kaffol Shoshiy mozori soyali daraxtlar ekilgan katta maydonni egallagan. Mozorning shimoli-sharqiy qismida Namozgoh masjidi bo'lgan.

Xazrati Imom majmuasi - O'rta Osiyo me'morchiligining tarixan yuzaga kelgan shahar majmuasining xarakterli namunasi. Uning binolari sodda va oddiy. Ammo umumiy taassurot kuchi - ularning qabrlar orasida o'sgan baland daraxtlar, qayrag'och, teraklar, o't va butalar orasida chuqur o'ylanib, joylashtirilganidir.

Bosh hiyobonlarning egri-bugriliklari binolar kompozision joylashuviga o'ziga xos erkinlik baxsh etgan, ularning bunday joylashuvi tasodifiy emas, u majmuaning ma'lum rejaviy yechim tugunlarini paydo qiladi. Ularning muhim elementlari - yirik hovuzlar, ba'zida qirg'oqlarida supalar bo'lgan. Hamma sanab o'tilgan yodgorliklar hozirgi vaqtda ta'mirlangan va tiklangan, obodonlashtirish ishlari o'tkazilgan.

Loyiha quyidagi ishlarni bajargan holda bir bosqichda ishlab chiqilgan:

- tarixiy-arxiv tadqiqotlari;
- ilmiy tadqiqotlar;
- loyiha institutlarida mavjud bosh rejalar, qurilish loyihalarini o'rganish va tahlil qilish;
- yodgorliklar hududlari chegaralari, ularning muhofaza hududlari, tiklanish yoki tarixiy muhitning (turar joy binolari) saqlanish zonalari, zamonaviy binolarni tartibga solish zonalari hududi chegaralarining loyihasi;
- muhofaza hududlari chegaralari asoslangan, binolar zamonaviy holati, me'moriy yodgorliklarni vizual idrok qilinishi tahlil qilingan tushuntirish matni va boshqalar.

Maqsad - yodgorliklar guruhi va ularning muhiti saqlanishini ta'minlash uchun mo'ljallangan hududni ajratish. Yodgorliklarning joylashishiga, ulardan foydalanishga, shuningdek joyning tarixiy topografiyasi va tabiiy sharoitiga bog'liq bu hududlarning chegaralari, o'lchamlari va xarakterini aniqlash. Tarixiy me'moriy yodgorliklarning ommalashuvini inobatga olgan holda zamonaviy rejaviy yechimining tahlilini o'tkazish va zarur bo'lganda yangi loyiha variantini taklif qilishdan iborat.

Vazifa – majmuaning bir qismida va har bir mavjud yodgorlikning muhofaza hududi va zamonaviy qurilishlarni tartibga solish hududlarini aniqlash. Me'moriy yodgorliklardan foydalanish bo'yicha, sayyohlar guruhlarining kelib-ketishini inobatga olib, hududni obodonlashtirish bo'yicha takliflar berish.

Qashqadaryo viloyatidagi Shahrisabzda joylashgan Oqsaroy - XIV asr me'moriy yodgorligining muhofaza hududlari yangi shaharsozlik muhitining qadimiy tarixiy markaz elementlari bilan har qanday birikuvi shahar tarixiy muhitining sekin-asta o'zgarishiga olib keladi.

Shuning uchun tarixiy shaharning markazini qayta tiklash uchun tarixiy-me'moriy va arxeologik meros saqlanishini ta'minlovchi qo'shimcha hujjatlarni ishlab chiqish zarur. Bunday hujjatlarga arxitektura yodgorliklar muhofaza hududlari tizimini belgilovchi loyihaviy ishlovlar kiradi.

Oqsaroy shaharning ilk o'rta asrlarda tarixiy qoldiqlarini saqlab qolgan shimoli-sharqiy qismida joylashgan. Uning peshtoqli kirish qismining ikki ulkan ustunlar ko'rinishidagi qoldiqlari hanuzgacha e'tiborni jalb qilib kelmoqda. Oqsaroy saroyining vayronalari hozirda O'rta Osiyodagi o'rta asrlardan saqlanib qolgan xalq me'morchiligining yagona yodgorligi hisoblanadi.

Saroyning janubiy tomonida ma'muriy maydon va ikkinchi jahon urushi yillarida halok bo'lgan jangchilar haykali joylashgan kichikkina hiyobon yuzaga kelgan. Bu yerda qurilgan jamoat va ma'muriy binolar yagona rejaviy yechimini tashkil qilmaydi. Saroyning shimoliy va sharqiy tomonidan qal'a devori harobalari qad rostlab turibdi. Uning yonida o'tgan asrning 50 yillarida qurilgan stadion, xususiy bino, maktab va bog'cha binolari bor.

Loyihada saroy harobalarini o'rab turgan rejaviy muhitini saqlab qolish ko'zda tutilgan, tarixiy rejaviy tuzilishi va binolarga joiz aralashuv chegaralari aniqlangan, me'moriy yodgorliklardan yangi funksional foydalanish imkoniyatlari va yangi qurilish joylashuvi aniqlangan.

O'tkazilgan ilmiy tadqiqot ishi yodgorlikka tutash hududni zonalashtirishning asosi bo'lib quyidagicha xizmat qiladi:


- a) yodgorlik hududi (arxeologik ishlar hududi);
- b) yodgorlikning muhofaza hududi;



v) qurilishlarni tartibga solish hududi;

g) yodgorlikni vizual idrok qilish muhofaza hududi.

Birlashgan zonalar umumiy maydoni - 54,1 ga, ulardan muhofaza zonasi - 26,6 ga, tartibga solish zonasi - 27,5 ga. (1.3.1-Rasm)



### 1.3.1-rasm. Me'moriy majmualar alohida yodgorliklarni ko'rib idrok qilish hududlarini aniqlash usullari.

Shahrisabzdagi Oqsaroy muhofaza hududini obodonlashtirish loyihasi asosida yodgorlikning me'moriy-badiiy sifatlaridan, uning shaharsozlik ifodaviyligidan, ular bilan aholini va sayyohlarni tanishtirish imkoniyatidan foydalanib, yodgorlik atrofida obodonlashtirish maydoni taklif etilgan. (1.3.2-Rasm)

Loyihada yodgorlikdan zamonaviy foydalanish talablari inobatga olingan, madaniy-maishiy vazifadagi obyektlarni, piyoda yo'lkalarini, avtomobil to'xtash joylarini, ekskursiya guruhlarini to'plash joylarini, ko'rish maydonchalarini joylashtirgan holda park zona loyihalangan. Peshtoq harobalari qarshisida, uning shimoliy tomonida qadimiy shahar qal'a devorini qayta tiklash uchun mo'ljallangan qismi yonida 1500 o'ringa mo'ljallangan sahnali amfiteatr loyihalangan, u yerda shahar aholisi va mehmonlar uchun havaskorlik ansambllari konsertlar beradi.

Oqsaroy qarshisida, g'arb tomonda ko'cha bo'ylab turli an'anaviy tadbirlarni o'tkazish uchun bir qavatli kompleks-"To'yxona" loyihalashtirilgan. Bu yerda xizmat ko'rsatishning to'rt guruhi o'zining ichki hovlilari bilan yagona organizmda to'plangan: kelin-kuyovlar uchun magazin, nikohlarni va chaqaloqlarni ro'yxatga olish joyi, xizmat ko'rsatish xonalariga ega to'y va boshqa tantanalar uchun 300 kishilik zal, 50-70 o'rinli qahvaxona-oshxona. Kompleks fasadlari bir-biriga tutash hajmlar ko'rinishida hal qilingan, g'isht ustunlar ritmini quyoshdan himoyalovchi temirbeton panjaralar to'ldirgan. Kompleks zamonaviy va an'anaviy xom ashyo va konstruksiyalarda, yodgorlikka nisbatan va saroyga bo'ysunuvchi shakllar kontrastida hal qilingan.



1.3.2-rasm. *Shahrisabzdagi Oqsaroy yodgorlik atrofida obodonlashtirish maydoni taklif etilgan.*

#### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Muhofaza hududida bajariladigan amaliy ishlar nimadan iborat?
2. Arxitektura yodgorliklarining muhofaza hududlarini tashkil etish uslublari nimalardan iborat?
3. Tarixiy shahar markazlarida joylashgan yodgorliklar ustida muhofaza hududi loyiha ishlari haqida ma'lumot bering.
4. Muhofaza hududlarida yodgorliklar uyg'unligini aniqlashdagi nimalar e'tiborga olinadi?

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1.M.Salimov. Magistrlik dissertasiyasini yozish bo'yicha uslubiy qo'llanma. T., 2003. 24 bet.
- 2.X.Sh.Po'latov, A.S.Urolov. Arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash va qayta qurish. O'quv qo'llanma. T., 2002. 85 bet.
- 3.A.M.Salimov. Osnovnyye printsiپی rekonstruksii istoricheskix kompleksov gorodov Uzbekistana. Metodicheskie ukazaniya. T., 1994. 18 str.
- 4.M.K.Axmedov. O'rta Osiyo me'morchiligi tarixi. T., 1995., 139 bet.

### **ME'YORIY XUJJATLAR**

## **MADANIY MEROS OBYEKTLARINI MUHOFAZA QILISH VA ULARDAN FOYDALANISH SOHASIDAGI DAVLAT BOSHQARUVI**

### **Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi organlar.(5-modda)**

Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi davlat boshqaruvi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi «O'zarxiv» agentligi va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

### **O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi vakolatlari.(6-modda)**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

- madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini amalga oshiradi;
- madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish davlat dasturlarini tasdiqlaydi;
- moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastrini va Nomoddiy madaniy meros obyektlarining ro'yxatini yuritish tartibini belgilaydi;
- madaniy meros obyektlarining muhofaza qilinishi, asralishi va ulardan foydalanilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish tartibini belgilaydi;
- respublika, ahamiyatidagi moddiy madaniy meros obyektlarining, shujumladan Umumjahonmadaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan obyektlarning hududlari va muhofaza tegralaridan foydalanish tartibotlarini tasdiqlaydi;

- tarixiy-madaniy qo'riqxonalarni, muzey-qo'riqxonalarni vatarixiy manzilgohlarni tuzish tartibi vasaqlash tartibotini belgilaydi;
- madaniy meros obyektlarini tarixiy-madaniy ekspertizadan o'tkazish tartibini belgilaydi;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

**O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISHGA INNOVASION YONDASHUV**  
**1.3. "TARIXIY-ME'MORIY MAJMUALARNING**  
**MUHOFAZA HUDUDLARINI LOYIHALASH AMALIYOTI"**

**mavzusi bo'yicha**  
**KEYS - TEXNOLOGIYA**

*Turli davrlarda qurilgan qurilishlarni bir-biriga bog'lash tizimini yaratish, binolarni majmua holatida bevosita yaqinlashtirishni tashkil qilish va sintezlash hamda muhofaza hududlarini loyihalash amaliyoti. Bu o'rinda ko'proq tarixiy-me'moriy majmualarning muhofaza hududlarini o'rganish va to'g'ri loyihalash taklifi berish. Xo'sh, tarixiy-me'moriy majmualarning muhofaza hududlarini loyihalash amaliyotining asosiy tamoillari va xususiyatlari nimalardan iborat?"*

**1. Keysning maqsadi:**

**Keysning ta'lim maqsadi:**

Magistrantlarga yodgorliklarning muhofaza hududini tashkil etish bo'yicha qulay yechimlar qabul qilishni o'rgatish. Qaldirg'ochbiy va Shayx Xovandi Toxur maqbaralari oldidagi fazoviy ko'rinishi yangicha namoyon bo'lishi uchun yodgorliklarning umumiy ko'rinishiga xalaqit beruvchi Islom Universiteti yotoqxonasining eski binosinining to'g'ri yechimini topish. Yodgorliklarni muhofaza hududini saqlagan holda, turli davrlarda qurilgan binolarni majmuini to'g'ri loyihaviy ajoyib me'moriy yechimi yechishni o'rganish ko'nikmalarni berish.

**Rejalashtirilgan o'quv natijalari:**

Magistranlarga yodgorliklarni muhofaza hududini saqlagan holda, turli davrlarda qurilgan binolarni olish yoki qoldirish bo'yicha eng to'g'ri me'moriy yechimi yechib beradilar.

**2. Talabalar keysni muvaffaqiyatli yechishlari uchun quyidagi tayanch bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim:**

- a) Turli davrlarda qurilgan binolarni shakllanish omillarini o'rganib chiqish;
- b) Yodgorliklar oldida shakllangan yangi binolar xususiyatlarini o'rganib chiqish;

v) Qaldirg'ochbiy va Shayx Xovandi Toxur maqbaralari oldidagi fazoviy ko'rinishini o'rganish;

g) Yodgorliklarning muhofaza hududini tashkil etish bo'yicha qulay yechimlar qabul qilish hakida bilish.

### **3. Keysning tipologik belgilari:**

Ushbu keys kabinetli keyslar turkumiga mansub: u hujjatlar ma'lumotlari asosida tuzilgan. Keys syujetli, keysdagi holat hozirgi zamonga to'g'ri keladi.

Keys obykti: Tozalangan maydonlarda tarixiy yuzaga kelgan fazoviy muhit qiyofasini buzuvchi yangi ma'muriy, o'quv va sanoat ahamiyatidagi bino va inshootlar.

Tarixiy obidalar va ularga oid filmlar va slaydlar.

Keys o'rtacha miqdordagi, strukturalashgan. O'quv topshiriqni keys -topshiriq yordamida tasvirlanadi.

Keysning didaktik maqsadi magistrantlarga yodgorliklarning muhofaza hududini tashkil etish bo'yicha qulay yechimlar qarorlarini qabul qilishga o'rgatishdan iborat.

**4. Keys uchun axborot yig'ish yo'llari:** muloqat, hujjatlarni o'rganish, Tarixiy obidalarga sayohat.

**5. Axborot yig'ish vositalari:** hujjatlar, ma'lumotnomalar, filmlar.

**6. Axborot manbalari:** Arxitekturaviy yodgorliklar tarixi, tarixiy obidalar, va boshqalar.

**Kirish.** Yuzaga kelgan atrof qurilishlar, ularning xarakteri, maydon chegarasi yodgorliklarni ko'rish sharoiti hajmi, cheklangan ta'sir radiusiga ega bo'lgan va uzoqroq masofadan idrok qilish qiyin bo'lgan, me'moriy yodgorliklarning unchalik katta bo'lmagan balandliklarini inobatga olib, loyihada, bu hududda unga yaqin bo'lgan muhitni saqlash va qulay tomosha qilish sharoitini yaratish imkonini beruvchi muhofaza hududida landshaft zonasini yaratish taklif etiladi.

**Vaziyat:** Yodgorliklarning muhofaza hududini tashkil etish bo'yicha qulay yechimlar qabul qilishni o'rgatish. Qaldirg'ochbiy va Shayx Xovandi Toxur maqbaralari oldidagi fazoviy ko'rinishi yangicha namoyon bo'lishi uchun yodgorliklarning umumiy ko'rinishiga xalaqit beruvchi Islom Universiteti

yotoqxonasining eski binosining to'g'ri yechimini topish.

**Muammo** shundan iboratki, Yodgorliklarning muhofaza hududini tashkil etish bo'yicha qulay yechimlar qabul qilishni o'rgansak maqsadga muvofiq va yanada samarali bo'ladi.

**Topshiriq:** Muhofaza hududlarini tashkil etish loyihasini bajarish uchun imalarga ahamiyat berish kerak.

#### **1.4. ARXITEKTURA YODGORLIKLARINING MUHOFAZA HUDUDLARINI TASHKIL ETISH USULLARI**

##### **REJA:**

- 1. Tarixiy shahar rejaviy tuzilishini, qadimgi qishloqlarning silueti va me'moriy qiyofasining o'ziga xosliklarini, yangi qurilishlar bilan tarixan yuzaga kelgan rejaviy va fazoviy tuzilishi.*
- 2. Qadimgi rejaviy tuzilishining yaxlitligini saqlab qolgan ko'p qatlamli noyob kompleks tahlili (Buxoro misolida).*
- 3. Yodgorlik-binoning funksional tanlanishi muhofaza hududi konfiguratsiyasi.*
- 4. Shahar ehtiyojlaridan va arxitektura yodgorliklar fondlarining borligidan kelib chiqib, yodgorliklarning qator toifalari uchun vazifalar tanlashni aniqlash.*

##### **Annotasiya**

*Ushbu mavzuda, muhofaza hududlarini yaratishda avvalo alohida turgan yodgorliklarni, ularning komplekslari guruhlarini aniqlash va ular birgalikda shahar muhofaza hududlarini yuzaga keltirish ko'rsatilgan.*

*O'zbekiston me'moriy yodgorliklarining va ularni o'rab turgan binolar qiymat darajasi va xarakterini aniqlash maqsadida ularni quyidagi toifalar bo'yicha klassifikatsiyalash tartibi yoritilgan.*

##### **TAYANCH IBORALAR.**

*Kompleks. Konfiguratsiyasi. Majmua. Guzar. Masjid. Karvonsaroy. Masjid-madrasa. Maqbaralar. Qal'a. Shaxriston va rabod. Rejaviy tuzilish. Siluet.*

*O'zbekiston tarixiy shaharlaridagi arxitektura yodgorliklaridan zamonaviy maqsadlarda foydalanishga moslashtirishni loyihalashda muhofaza hududlarini tashkil etish usullari va tamoyillari hali yetarlicha ishlab chiqilmagan. O'zbekistonda me'morchilik yodgorliklari va ularning majmualari arxitekturasidagi xususiyatlar boshqa mintaqalarga nisbatan muhofaza hududlarini tashkil qilishda o'ziga xos yondoshuvni talab etadi.*

Tarixiy shahar rejaviy tuzilishini, qadimgi qishloqlarning silueti va me'moriy qiyofasining o'ziga xosliklarini, yangi qurilishlar bilan tarixan yuzaga kelgan rejaviy va fazoviy tuzilishi hamda shahar va tabiat muhitining xarakterli qirralari bilan uyg'un birlikda saqlab qolish vazifalarini shaharsozlik yodgorligi bo'lgan Buxoro misolida namoyish qilish mumkin. Asosiy muammo shahar me'moriy qiyofasini tarixiy shakllangan yagona majmua sifatida saqlab qolishdan va yangi binolar, tarixiy va tabiiy muhitning uyg'unlikdagi birligini ta'minlovchi tavsiyalarni ishlab chiqishdan iboratdir.

Buxoro XX asr boshlarigacha qadimiy shahar qiyofasini to'liq saqlab qolgan. Hozirgi vaqtda Buxoro hamma davrlar (IX asrdan boshlab XX asrgacha) arxitektura yodgorliklarini o'z ichiga olgan va kattagina hududda qadimgi rejaviy tuzilishining yaxlitligini saqlab qolgan ko'p qatlamli noyob kompleksdir.

Tarixiy markaz shaharning rejaviy asosini tashkil qiladi: shimoli-g'arbdan janubi-sharqqa tomon butun markaz bo'ylab o'tuvchi yuzaga kelgan savdo ko'chalari. Bu ko'cha qadimiy maydonlar, kompleks va majmualar, me'moriy tarixiy yodgorliklarni Registon maydoni, ark, Poyi Kalon majmuasi, Ulug'bek va Abdulazizxon madrasasi, savdo gumbazlari orqali ilgarigi Mox bozori - Magoki Attori masjidigacha Labi Hovuz majmuasini bog'lab turuvchi asosiy tomir hisoblanadi.

Oxirgi yillarda 70dan ortiq me'morchilik yodgorliklari va majmualari tiklangan, ta'mirlangan. Alohida yodgorliklar zamonaviy muhitga uzviy kirgan. Masalan, Ismoil Somoniy va Chashma-i Ayub maqbaralari umumiy majmua yechimiga to'g'ri yondoshuv natijasida park strukturasi uzviy kirgan. Eski shaharni ikki teng qismga bo'luvchi Shohrud arig'i, shuningdek uchta hovuz (suv havzasi) tiklandi. Afsuski, foydalanishga moslashtirish, eski va yangi binolarni muvofiqlashtirish masalasida ko'p kamchiliklar mavjud.

Ilgari Buxoroning markaziy ko'chalari usti yopiq savdo qatorlarini tashkil qilgan edi. Ko'chada karvonsaroylar, bozor masjidleri va savdo qatorlari qurilgan edi. Hozirgi kunga kelib yodgorliklar markaziy majmuasining butun tarixiy muhiti yo'q qilingan, shaharga o'z me'morchiligi jihatidan begona bo'lgan va ko'pi avariya holatida bo'lgan zamonaviy binolar bilan almashtirilgan. Bu zamonaviy binolarda maktablar, garajlar, kinoteatr, magazinlar, bog'cha va boshqalar joylashgan.

Shunday qilib, dunyo ahamiyatidagi yodgorliklarning noyob majmuasi harobalar, bir-biriga begona qurilishlar ichida qoldi, yangitdan o'tkazilgan ko'chalar tufayli uning idrok qilinishida ham o'z xususiyatlari yo'qolgan.

Umumshahar savdo markazi an'anaviy joyda saqlangan: savdo o'qi bo'ylab, savdo gumbazi bo'ylab va Poyi Kalon majmuasi yonidan o'tuvchi B.Naqshbandiy ko'chasidan Registon maydonigacha. Shaharning qadimiy qismidagi qachonlardir

tarmoqlangan qadimgi yer osti toza va oqava suv quvurlar tizimi hozirda deyarli yo'q qilingan. Oxirgi o'n yillikda Buxoroning tarixiy markazida turar joylari, ma'muriy-jamoat binolari va madaniyat inshootlari tartibsiz va sifatsiz darajada qurilgan.

Shahar tarixiy o'zagingning qiymat toifasini inobatga olgan holda kompleks tahlil qilinganda an'anaviy turar joy qurilishida shakllangan xalq me'morchiligi yodgorliklari aniqlandi: turar joylar, guzar masjidleri, karvonsaroylar, kichik masjid-madrasalar, maqbaralar, suv havzalari, qal'a devorlari va tarixiy shaharsozlik madaniyatining boshqa elementlari. Bu yodgorliklarning hammasi shahar rejasiga tushirilgan va bu, obyektlarning markaz tizimida joylashishi haqida tasavvur beradi.

XX asrda qadimgi mozorlar, me'moriy-tarixiy yodgorliklar o'rganilmay turib buzildi, hammom, hovuz va ariqlar ko'mib tashlandi, bu esa qadimiy shaharning silueti, qiyofasi va mikroiklimi yo'qolishiga olib keldi natijada, tarixiy shahar umumiy ko'rinishining yo'qotilishi esa uning barham topishi bilan teng. Bundan tashqari, tarixiy o'zakda va savdo ko'chalarida transport magistrallari joylashtirildi, bu esa yodgorliklarni turli deformasiya va buzilishlardan himoya qilishga xalaqit beradi.

Shaxriston va rabod hududi birmuncha o'zgargan, ular ahvoli zamonaviy sanitar me'yorlari talablariga javob bermaydi, guzarlarning butun bir guruhlari me'moriy-badiiy va tarixiy qiymatga ega, bu turar joy binolarining umumiy ko'rinishlari gaz quvurlari, elektr o'tkazgichlari va televizion antennalariga chulg'angan.

Butun hududni zamonaviy obodonlashtirilmagan uylar, bir qavatli shifer tomli, yangi rejali uylar, shuningdek tarixiy shahar silueti va panoramasini buzuvchi va yodgorliklarni me'moriy dominant sifatidagi ahamiyatidan mahrum qiluvchi xalq me'morchiligining ifodasiz inshootlari, sanoat korxonalarini zich qurilgan mayda mahallalarga bo'luvchi obodonlashtirilmagan tor ko'chalar turar joy qurilishlari asosini tashkil qiladi. Tarixiy hudud atrofida xususiy turar joy uchastkalari, taksomotor parki, turli sklad va bazalar joylashgan. Hududlar obodonlashtirilmagan, ko'kalamzorlashtirilmagan va muhandislik tarmoqlari bilan yaxshi ta'minlanmagan.


Shaharni hududiy kengayishi bilan bir vaqtda uning mayda bo'laklarga bo'linishi tarixiy markazning ahamiyatini pasaytirishi mumkin, shuning uchun katta obyektlarni juda ehtiyotkorlik bilan qurish kerak.

Buxoroda Kalon minorasining me'moriy sifatlari shahar siluetiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ma'lumki, sharqning tarixiy shaharlarida minora va gumbazlar shahar silueti yechimida asosiy dominant bo'lib xizmat qilgan, chunki ko'pgina shaharlar tekisliklarda joylashgan. Ta'kidlash kerakki, siluetning tiklanishi tarixiy shahar uchun katta ahamiyat kasb etadi. Shahar markazi majmuasi yaxshi ko'rinadigan asosiy



qulay va samarali ko'rish nuqtalari naturaviy o'rganib chiqishlar yordamidagina aniqlanishi mumkin.

Shaharning tarixiy markazini atrofdagi eng qulay nuqtalaridan ko'rish imkoniyati orqali amalga oshiriladi. Masalan, Buxoro Arkidan eski shaharning umumiy ko'rinishini qamrab olish mumkin, u yerdan tarixiy yodgorliklarning umumiy ko'rinishi (silueti) ancha samarali idrok qilinadi. Me'moriy yodgorliklardan zamonaviy maqsadlarda foydalanishga moslashtirish loyihasining muhofaza hududini tashkil etishda shahar muhofaza hududlari uchun qo'llanilgan usullar bajariladi.(1.4.1-Rasm).



ИЗОЖ: РЕКОНСТРУКЦИЈА ВА ФОВДАЛИНИШ УЧУН МОСЛАСHTИРИШ ЛОЗИМ БУЛГАН АСОСИЙ МЕЪМОРИЙ ЕДГОРНИКЛАР.  
Бухоро шаҳрининг Аксонометрический тарихий кўриниши.

*1.4.1-Rasm. Buxoro shahri tarixiy markazining muhofaza zonalari va ko'rib idrok qilish zonalari.*

Shunday qilib, tarixiy shaharlar markaziy qismining bosh rejasini ishlab chiqishda rejim zonalari, shuningdek tarixiy va madaniy yodgorliklar muhofazasiga tegishli, ulardan samarali foydalanishga, tarixiy-madaniy qiymatini aniqlashga tegishli talablarni o'rnatish bo'yicha zarur shaharsozlik tadbirlarini inobatga olish kerak bo'ladi.

Tarixiy shahar markazlarini qayta tiklashda arxitektura yodgorliklarning har tarafdan ko'rishini ta'minlash uchun muhofaza hududlari (me'moriy yodgorliklar maydonlari) va tartibga solish zonalarini qayta tiklash bo'yicha alohida maxsus chora-tadbirlarni ishlab chiqish talab etiladi, bu zonalar hududida yodgorliklar va zamonaviy binolar muhofazasi masalalari to'qnashadi.

Muhofaza hududi eng avvalo, yodgorlik va uning atrofida rejaviy-kompozision aloqalarni mustahkamlash vositasidir. Muhofaza hududlarini o'rnatish, yodgorliklarning me'moriy-badiiy sifatlarini maksimal ochish va ularni idrok qilishning qulay sharoitlari bilan bir qatorda yodgorliklardan zamonaviy foydalanish masalalari yechimini ham nazarda tutadi.

**Yodgorlik - binoning funksional tanlanishi muhofaza hududi konfiguratsiyasi** va o'lchamini aniqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ma'lumki, binoning rasional foydalanilishi me'morchilik yodgorliklari saqlanishining eng ta'sirli usullaridan biri. Yodgorlikni qayta tiklash va ta'mirlash loyihasining yakunlovchi bosqichi - tarixiy tuman markazini qayta tiklashning umumiy tizimida bino o'rnini belgilovchi, zamonaviy shahar tizimida uning qulay faoliyat yuritish sharoitlarini belgilovchi, namoyish qilish uchun qulay sharoitlarni ta'minlovchi yodgorlikning zamonaviy maqsadlar uchun foydalanish loyihasidir.

U yoki bu yodgorlikning qiymati bir tizimda o'zaro bog'liqlikdagi me'moriy yodgorliklarni xarakterlovchi qator omillar bilan belgilanadi:

- yodgorlikning tarixiy qiymati;
- yodgorlikning shahar tuzilishida joylashishi;
- boshqa yodgorliklarga nisbatan joylashishi;
- yodgorlikning fizik holati;
- yodgorlikning dastlabki vazifasi.

Yagona yodgorlikning asosiy omillaridan biri o'z xususiyatiga ega bo'lgan tizimdir, u aynan:

1) Yodgorlikning tarixiy qiymati (qurilish vaqti, uning mualliflari); funksional vazifasi; konstruktiv xususiyatlari; badiiy ifodaviylik vositalari; binoning noyobligi.

2) Yodgorlikning shahar tuzilishida joylashishi (shahar markazida; muhim tugunlarda; shahar chekkasida; shaharning park zonasida; shahar tashqarisida).

3) Boshqa yodgorliklarga nisbatan joylashishi (yodgorlikning asosiy elementi; majmuaning ikkinchi darajali elementi, mustaqil element).

4) Yodgorlikning fizik holati (yaxshi ko'rishda saqlangan; qisman ta'mirni talab qiluvchi; to'liq ta'mirlashni talab qiluvchi; konservasiya qilinishi kerak).

5) Yodgorlikning dastlabki vazifalari: turar joy binolari; ziyoratgohlar (masjidlar, minoralar, madrasalar); fuqaro binolari (hammom, rasadxona, karvonsaroylar, rabodlar); savdo binolari (chorsu, toqi, timlar); o'quv muassasalari (madrasalar); saroylar; memorial binolar (maqbaralar, honaqoh); muhofaza inshootlari (hovuzlar, sardobalar, ariqlar).

Shunday qilib, yodgorlik bir, bir qancha sanab o'tilgan sifatlarning hammasiga ega bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, me'morchilik yodgorligi bir vaqtning o'zida tarix va madaniyat yodgorligi bo'lishi mumkin. Yodgorliklar bilan birgalikda shahar me'moriy majmuasini tashkil qiluvchi shaharning tarixan yuzaga kelgan binolari bu kabi baholanishi mumkin.

Yodgorliklarni saqlashga doir muammolar quyidagilardan iborat:

- me'moriy zonalarini yaratish (asosiy omillarni taqqoslashga va muhofaza hududlari o'lchamlarini belgilashga asoslanadi);
- me'moriy yodgorliklarni zamonaviy vazifalar uchun moslashtirish (dastlabki vazifani va zamonaviy berilgan vazifani tashkil qilishda).

Me'moriy yodgorliklarning saqlanishi uchun, u yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlar bo'yicha qiymatga ega bo'lishi kerak. Masalan, Buxorodagi Poyi Kalon majmuasi kompleksi hamma qimmatbaho me'moriy yodgorliklar bilan birga va atrof binolar bilan uch yoqlama qiymatga ega:

- alohida yakka yodgorliklardek;
- me'moriy yodgorliklar majmuasidek;
- shaharsozlik yodgorligidek.

Eski bir-ikki qavatli binolar o'z-o'zicha tarixiy qiymatga ega emas, ammo kompleksda me'moriy yodgorliklar bilan birga bu kompleksning me'moriy qiymatini oshiradi, asosiy yodgorliklar uchun fon yaratadi, kompleksga yaxlitlik, tugallanganlik baxsh etadi. Kompleksning asosiy yodgorliklarini badiiy, me'moriy, shaharsozlik sohasida kompleksning ikkinchi darajali elementlarining fondagi binolaridan ajratib bo'lmaydi.

Me'moriy yodgorliklar asosiy kompleksning elementlarini bir necha toifaga ajratish mumkin, masalan: Poyi Kalon majmuasida bu, Kalon masjidi, Kalon minorasi, Miri Arab madrasasi, Amir Olimxon madrasasi.

Ikkinchi darajalilar, masalan, guzar masjidlari, turar joylar va boshqalar. Me'moriy yodgorliklarning har bir kompleksida asosiy va ularni to'ldiruvchi ikkinchi darajali elementlar mavjud.

Shunday ekan, me'moriy yodgorliklar kompleksi faqat asosiy elementlar bilan emas, tarixiy fondagi binolarni o'z ichiga olgan holda ikkinchi darajali elementlar bilan ham yashaydi va xarakterlanadi.

Yodgorliklar kompleksi barcha ikkinchi darajali elementlari bilan birgalikda dastlabki ko'inishini saqlab qolgan holda katta qiziqish va qiymatga ega bo'ladi.

Kompleksning qanchalik saqlanganligini asosiy, ikkinchi darajali elementlarning saqlanganligi bilan, uning tarixiy planda yaxlitligi bilan shartli baholash mumkin.

Shunday qilib, muhofaza hududlarini yaratishda avvalo alohida turgan yodgorliklarni, ularning komplekslari guruhlarini aniqlash zarur, va ular birgalikda shahar muhofaza hududlarini yuzaga keltiradi.

O'zbekiston me'moriy yodgorliklarining va ularni o'rab turgan binolar qiymat darajasi va xarakterini aniqlash maqsadida ularni quyidagi toifalar bo'yicha klassifikatsiyalash mumkin:

**I toifa** (davlat muhofazasiga loyiq):

- yaxlit shaharsozlik majmualari uchun muhim ahamiyatga ega inshootlar (hajmiy va vertikal dominantlar, eng muhim shaharsozlik komplekslari);

- me'moriy majmualarni tashkil qiluvchi, shahar me'moriy yechimini yaratishda muhim rol o'ynovchi binolar.

**II toifa** (mahalliy muhofazaga loyiq):

- me'moriy-badiiy sifatlariga rejalashtirishni to'g'ri tuzatilganiga va konstruksiyalar, xom ashyolar, tarixiy qiymati jihatidan alohida qiziqish uyg'otuvchi inshootlar;

- mahalliy majmualar (ko'chalar, ikkinchi darajali maydonlar va shu kabilar) tashkil bo'lishida muhim rol o'ynovchi binolar.

**III toifa** – me'moriy-badiiy qiziqish uyg'otuvchi, mahalliy me'moriy an'analar uchun xarakterli bo'lgan, alohida shahar uchun bino s pesifik koloritini yaratishga yordam beruvchi binolar.

**IV toifa** – me'morchiligi bo'yicha neytral, ammo o'zining masshtabli, tektonik sifatleri, devorlar uchun ishlatilgan ashyolar, qurilish-konstruktiv usullari bilan yodgorliklar uchun qulay fon yaratuvchi binolar.

**V toifa** – tarixiy muhit bilan uyg'unlashmagan, yodgorliklarga zarar keltiruvchi, yodgorliklarning idrok qilinish sharoitlarini yomonlashtiruvchi bino va inshootlar; yodgorliklar qiyofasini buzuvchi qurilmalar va boshqalar.

Inshootlarning u yoki bu toifaga tegishliligi ularga muhofaza, ta'mirlash sifati, foydalanish xarakteri va qayta tiklash imkoniyatlari nuqtai nazaridan munosabatni belgilaydi.

**I - toifa** bino-yodgorliklarida remont-tiklash va konservatsiyalash ishlari, ta'mir ishlari, muhandislik jihozlanishi va binolarning zamonaviy vazifalarga moslashtirish ishlari bo'yicha ishlarni o'tkazishga ruxsat etiladi. Bunda yodgorliklarning me'moriy qiyofasini qurilmalar qurish bilan buzish, fasadlarning

me'moriy bezagini o'zgartirish, yangi tuynuklar ochish yoki yopish, konstruksiyalarni o'zgartirish va boshqalar man etiladi.

Asosan shaharsozlik jihatidan qiziqish uyg'otgan, ammo interyerlari, ichki rejaviy yechimi, konstruktiv usullari ishlatilgan rangli ashyolarni hiech qanday qiymatga ega bo'lmagan me'moriy yodgorliklarda qayta rejalash va qayta jihozlash bilan ichki ko'rinishini qayta tiklash joiz.

**II toifa** - yodgorliklarni ta'mirlash, konservasiya, me'moriy qiyofani buzmasdan va yodgorlikning rejaviy tuzilishiga putur yetkazmagan holda moslashtirish va muhandislik jihatidan jihozlashga ruxsat etiladi. Bunda binoning yangi vazifasi uchun zaruriy qurilma joiz, ammo ularni hovli tomondan shunday joylashtirish kerakki, ular yodgorlik qiyofasiga putur yetkazmasin. II-toifa yodgorliklarini buzishga ruxsat etilmaydi.

**III toifa** - binolarida ichki xonalarni qayta rejalashtirish bilan qayta tiklash tadbirlarini o'tkazishga ruxsat etiladi, ammo binoning tarixiy-badiiy qiymatini belgilovchi fazilatlarini albatta saqlash kerak (binoning hajmiy qurilishi, fasadlar bezagi, xonalar rejasi). III- toifaga kiruvchi binolarda o'z vaqtida tiklash, ta'mirlash ishlarini o'tkazish zarur. Ularni buzish maqsadga muvofiq emas.

**IV toifa** binolari - puturdan ketgan binolarni yangi qurilishlar bilan almashtirish mumkin. Ammo bunda yoki ularni qayta qurishda obyekt joylashgan zonaning tartib shartlariga rioya qilish zarur.

Shahar me'moriy qiyofasini buzuvchi V – toifa binolar imkon darajasida buzilishi yoki qayta qurilishi mumkin

O'zbekiston tarixiy shaharlaridagi me'moriy yodgorliklarning shaharsozlik tahlili ularning funksiyasi va qator vazifalar yechimining imkoniyatlarini belgilash uchun quyidagi asoslari ko'rsatib beriladi:

- yodgorliklarni shahar tuzilishida joylashish tamoyillarini belgilash va ularning shaharsozlik ahamiyati;

- yodgorlik rejaviy tuzilishi xususiyatlarini aniqlash;

- eski va yangi obyektlar obrazining o'zaro bog'liqligi;

- yodgorliklarni ta'mirlash, foydalanishga moslashtirish va atrof hududni obodonlashtirish kompleks ravishda amalga oshirilishi kerak.

Yodgorliklarni foydalanishga moslashtirishdan keyingi maxsus loyiha:

- hududni obodonlashtirish obyektini idrok qilishning buzilishi va o'zgarishiga olib keladi;

- foydalanishga moslashtirishda yodgorlikka tutash tarixiy hudud ham, imkoniyati darajasida uning muhofaza hududi ham qamrab olinishi kerak, bu esa uning atrof muhit bilan badiiy, tarixiy va funksional aloqalarini idrok qilish imkonini beradi.

Bu dolzarb muammoni aniq hal qilish uchun muhofaza hududlarini tashkil etishda:

-tizimli yondoshuv taklif etiladi, yodgorlik va uning tuzilishlarini shakllantiruvchi asosiy omillar belgilanadi;

- me'mor-shaharsozlar diqqatini faqat yodgorlikni emas, tarixiy qiymatga ega bo'lmagan atrofdagi bir-ikki qavatli binolar muhofazasi zaruriyatiga ham jalb etilishi.

Bu omillarga e'tiborsizlik qator shaharlarga katta zarar yetkazgan:

-yodgorlikni asosiy belgilar tasnifi, yodgorliklar majmualari muhofaza hududlarini belgilash, "kompleks zonalar" tushunchasini aniqlash mumkin emas, ularsiz O'rta Osiyo shaharlari tarixiy markazlarini tiklash masalalarini to'g'ri hal qilish mumkin emas;

-O'zbekiston shaharlarida bajarilgan ishlar natijalarini tahlil qilish va jamlash, ularda ifodalangan mezon va talablarni aniqlashtirish;

-me'moriy yodgorliklarni shaharsozlik jihatidan loyihalashtirish, ta'mirlash, qayta tiklash va foydalanish mumkin bo'lgan yodgorliklarni ta'mirlash va samarali foydalanishga kompleks va sistemali yondoshuv;

- me'moriy yodgorliklarning tarixiy muhit bilan birga va yangi elementlarni kiritmay turib saqlanishi. Shuning uchun muhofaza hududi chegarasi asosiy yodgorlikdan ma'lum masofada belgilanadi, yangi binolar me'moriy yodgorliklarga yaqin qurilishi kerak emas. Imkon boricha yodgorlikning tarixiy muhiti saqlanishi lozim.

Inshootning atroflicha ko'rinishi uchun, shuningdek yodgorlikka asosiy borish yo'lini yo'naltirish uchun turli nuqtalarni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari yodgorlikni shahar muhitida tomosha qilish va idrok etish faqat kunduzi emas, balki oqshom vaqtida ham, badiiy usulda yoritish bilan ham hisobga olinishi kerak. Yodgorlik muhofaza hududi maydoni quyidagilarga bog'liq holda belgilanadi:

- yodgorlik masshtabiga;
- turli nuqtalardan ko'rinishiga;
- tarixiy fon xarakteri va saqlanishi;
- atrofdagi binolar qiymatiga.

Muhofaza hududi o'lchamlari va konfiguratsiyasini aniqlashda asosiy talablar:

- muhofaza hududlarida yodgorliklarning aniq ko'rinishini ta'minlovchi asosiy kuzatish nuqtalarining kiritilishi;

- muhofaza hududlariga o'z me'moriy-badiiy va kompozitsion hamda tabiiy sifatleri bo'yicha shaharsozlik ahamiyatiga ega bo'lgan me'moriy yodgorliklar va tarixiy-me'moriy majmualar uchun uzoqdan ko'rish nuqtalari va tomosha qilish maydonlarini kiritish;

- me'moriy yodgorliklar uchun tarixiy va masshtabli muhit yaratuvchi binolarni muhofaza hududiga kiritish;

- yaqin joylashgan me'moriy yodgorliklar bilan me'moriy -fazoviy aloqalarni ta'minlash.

Muhofaza hududlarida yangi binolarni qurish ta'qiqlanadi, chunki yodgorliklar atrofidagi maydondan foydalanishning hamma masalalari (obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish, vaqtinchalik binolarni joylashtirish va boshqalar) yodgorlikning saqlanishi va ekspozitsiyasi uchun qulay sharoit yaratishni hisobga olgan holda hal etiladi, me'moriy yodgorliklarning davlat muhofazasi tashkilotlari bilan kelishiladi, bundan tashqari yodgorlikni buzuvchi, uning har tomondan ko'rinishiga xalaqit beruvchi binolar, shuningdek kam qiymatli va vayrona holidagi eski binolar buzib tashlanadi.

Tarixiy shakllangan muhofaza hududlarini uch toifaga ajratish mumkin:

- yagona shaharsozlik tuzilishini tashkil etuvchi, saqlanib qolgan madaniy yodgorliklariga ega majmualar hududi;

- komplekslar hududlari, ularda alohida madaniyat yodgorliklari atrof qurilishlar bilan birlashadi va tarixiy-shaharsozlik, badiiy yoki etnografik jihatdan ma'lum qiymatga ega bo'ladi;

- alohida madaniyat yodgorliklarining muhofaza hududlari.

Ma'lumki, O'zbekistonning tarixiy shakllangan shaharlari sharoitida me'moriy yodgorliklarni muhofaza qilish va ta'mirlash, zamonaviy qurilish va transport harakati rivoji kabi masalalarni hal etish mushkul vazifa. Me'moriy merosni uning xilma-xil shakllari va turlarida zamonaviy shaharsozlik muammolaridan ajratish faqat madaniy merosning saqlanishigagina emas, balki shahar turmush muhitiga ham zarar yetkazadi.

Shaharning markaziy qismini qayta tiklash jarayonida tarixan shakllangan yalpi qurilishlar umumiy muhitining saqlanishiga katta ahamiyat berilishi lozim. Turar joy binolari joylashgan qadimgi hududlar rejaviy tuzilish holatlari xilma-xilligi tufayli, tarixiy-me'moriy majmualar bilan o'zaro aloqasining turli xarakteri, shuningdek ularning rejasi va qurilish qiymati darajasi bilan muhofaza tadbirlarining uch asosiy sohasini ajratish mumkin:

- guzarlar, ko'chalarni ularning funksional mohiyatini aniqlash va badiiy qadr-qiymatini yaxshilash sharti bilan saqlab qolish;

- alohida me'moriy-planirovka komplekslarini ularning mukammal (ma'lum davrga) me'moriy yechimida joyning memorial ahamiyatini inobatga olgan holda qayta tiklash va ta'mirlash;

- tarixiy qiymatga ega qurilishlarni saqlab qolgan holda biror qism yoki yaxlit tumanlarning yuqori darajada ijtimoiy va shaharsozlik mohiyati asosida amalga oshirilgan kompleks qayta tashkil topishida qat'iy cheklanishlarga rioya qilish.

Tarixiy shaharlarning markaziy qismini bosh reja asosida qayta tiklash maqsadida, shahar hududlari ko'rsatkichlarining kompleksi bo'yicha baholash asosida amalga oshiriladigan hududning maxsus zonalashtirilishi juda muhim. Bunda bir xil xususiyatga ega bo'lgan majmualar hududlarini qayta tiklash esa, u yoki bu rejim hududlariga birlashadi. Asosiy mezonlar qatoriga quyidagilar kiradi:

**Ijtimoiy ko'rsatkichlar** bo'yicha quyidagi talablarga javob berish kerak, ya'ni, umumshahar markaz talabi darajasi va "kunduzgi" aholi me'yori; aholi uchun yashash qulayligi; joylashish xususiyatlari; madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish darajasi; sanitar-gigiyenik ko'rsatkichlar.

**Shaharsozlik.** Shahar, ayniqsa tarixiy markazning zamonaviy tuzilishida hududlarning o'rni va ahamiyati; fond va hududlarning funksional foydalanilishi; tabiiy rejalashtirish vaziyati xususiyatlari; atrof bilan rejalashtirilgan transportning yo'nalishining o'zaro aloqalari; shaharsozlik kompozitsiyalarining tugallanganligi; me'morchilik va tabiatning o'zaro aloqasi.

**Tarixiy-me'moriy.** Rejalashtirish va qurilish qiymati; me'moriy majmualar va yodgorliklarning shahar tarixiy va zamonaviy qiyofasi shakllanishidagi ahamiyati.

**Iqtisodiy.** Hududdan foydalanish samaradorligi; turar joy binolari eski rayonlarining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari; turar joy va jamoat fondi, obodonlashtirish, muhandislik-kommunikatsiyalarning jihozlanish holati va qiymati.

Bosh reja esa yakuniy bo'lib, uzoq muddatgacha bu ko'rsatkichlarning o'zgarishini belgilovchi omil hisoblanadi. Xulosa sifatida, qayta tiklash tartibi hududning rivojlanish kelajagi va aniq shaharsozlik vaziyatiga bog'liq qayta tiklash tadbirlarni o'tkazish imkoniyatiga muvofiq o'rnatiladi.

Shaharsozlik tizimi mezonining ko'rsatilgan kompleksini inobatga olgan holdagi tahlili zonalarni yetarlicha obyektiv ajratish va shahar rejasida ularning chegarasini o'rnatish imkonini beradi.

O'zbekistonda tarixiy-me'moriy majmualarning muhofaza hududlarini loyihalash amaliyoti shuni ko'rsatadiki, yodgorliklardan foydalanishda jiddiy xato va kamchiliklar bor. Hozirda qo'riqxonada deb e'lon qilingan Xivadagi Ichan Qal'a rayoni shaharning uzviy bir qismidir. Qal'a devorlari atrofidagi transport magistrali yo'lkalarni ochib qo'ydi, ko'chalarning bir tomonli rejaviy yechimini yaratdi.

Ichan Qal'a sun'iy tarzda shahardan ajralgan, uning atrofida obodonlashtirish hududining yaratilishi shahar birligini buzadi, muhofaza hududining atrof muhit binolarini yo'q qiladi. Samarqandda, Go'ri Amir maqbarasi yonida me'moriy



uyg'unsizlikni yuzaga keltirgan holda yodgorlikning idrok qilinishiga halaqit beruvchi 9 qavatli mehmonxona qurilgan.

Buxoro bosh rejasining tasdiqlangan loyihasida shaharning tarixiy qismi qo'riqxonaga hisoblanadi, bu esa maqsadga muvofiq emas, negaki rejada qo'riqxonani alohida turar joy massivlariga bo'lib chiqish ko'zda tutilgan, unda yodgorliklar alohida bo'lingan holda rejalashtirilgan. Buxoro tarixiy qismining 1980 yil bajarilgan bosh rejasida belgilanishi bo'yicha, butun aholi shaharning qadimiy qismidan yangi mikrorayonlarga chiqarilishi kerak bo'lgan, bo'shab qolgan loy devorli binolar esa yomon ahvolda tushadi va sekin-asta vayron bo'la boshlaydi. Buning natijasida muhofaza hududi tozalanadi va qadimiy shahardan, mahobatli me'morchilikning alohida-alohida turgan tarixiy yodgorliklaridan tashqari hech narsa qolmaydi muhofaza hududi qadimgi me'morchilikning alohida turgan yodgorliklariga ega maydonga aylanadi, degan taxminlarga asoslangan.

Samarqandda, O'zbekistonning boshqa tarixiy shaharlarida ham xuddi shunday holat mavjud bo'lmoqda. Bu noxush dalillar shaharsozlik rekonstruksiyasi muammolariga tegishli bo'lib, bugungi kunda muhofaza hududlarini tashkil etish, me'moriy yodgorliklarni muzeylashtirish bo'yicha yetarlicha asoslangan loyiha yoki tavsiyalar yo'q. Tabiiyki, yodgorlik binolardan zamonaviy vazifalar uchun foydalanishda ish bundan ham achinarli holat. Faqat Buxoroda yodgorliklarni saqlab qolish bo'yicha tezkor choralar ko'rilishi zarur.

Buxoroning noyob yodgorliklari ayanchli holatda, jumladan: Tolipoch darvozasini - ta'mirlashi tugatilgan; shahar devorlari bo'lagi - ayanchli holatda; Chashmai Ayyub maqbarasi masjidini - ta'mirlash ishlari tugatilgan; Nau hovuzlari - yopib yuborilgan; Volidai Abdulaziz masjidi - buzilish arafasida; Xalif Xudaydod kompleksi - qoniqarsiz holatda; Abdullaxon madrasasi - qisman ta'mirlangan; Modarixon madrasasi - qisman ta'mirlangan; Ark devorlari yon tomonlari - qoniqarsiz holatda; hovuz (Xazrati Imom) - vayron bo'lgan; Kalon minorasi - qoniqarsiz holatda; Miri Arab madrasasi - qoniqarli holatda; Tursunjon madrasasi - qisman ta'mirlangan; Abdulazizxon madrasasi - avariya holatida; Abdullaxon timi - qoniqarli holatda; Sarrafon hammomi - qoniqarli holatda shuningdek, Magoki Ko'rpa masjidi, Alam madrasasi, Xo'ja Kalon masjidi, karvonsaroylar, Turki Jandi maqbarasi, Istezo madrasasi, guzar masjidlari va boshqalar avariya xolatida.

Aslida bunday yodgorliklar ilmiy asosda tahlil qilinsa shahar hududidagi moslashtirilishi, ularning tezkor ta'mirlanishiga va keng miqyosda muzeylar, ko'rgazma zallari, madaniy-maishiy va ma'muriy muassasalar, xizmat ko'rsatish, turizm va dam olish muassasalari sifatida shahar hayotiga kiritilishiga yordam berishi mumkin.

Respublika sharoitida arxitektura yodgorliklaridan madaniy-maishiy va sayyohlik maqsadlari uchun foydalanish tajribasi, shuningdek muhofaza hududlari va shahar tarixiy o'zagini tashkil qilish tajribasi o'rinli.

Tarixiy shahar markazlarini qayta tiklash - davomiy va tabiiy jarayon bo'lib, har bir bosqich quyidagi vaziyatlarga olib keladigan yangi talablarni ilgari suradi:

- shahar turar joy muhitini tubdan yaxshilash, turar joy muammosi yechimi;
- tashkilot va muassasalar, jamoat binolariga xizmat ko'rsatuvchi yodgorliklar ro'yhatini ko'rsatish;
- xizmat ko'rsatish markazlarini aholi talabini qondira oladigan o'zaro bog'langan rejalashtirish tizimini tashkil qilish;
- arxitektura yodgorliklarini zamonaviy qurilishlarga kiritgan holda saqlash, qayta tiklash, ta'mirlash va ulardan keng foydalanish;
- shahar ko'chalarini va markazga tutashuvchi yo'llarni qayta tiklash;
- transport va piyoda harakatlarini ajratish;
- muhandislik obodonlashtirish tizimlarini qayta tiklash;
- aholi turmushining maishiy va sanitar-gigiyenik sharoitlarini yaxshilash.

O'zbekistonda arxitektura yodgorliklarining muhofaza hududini tashkil etishga yetarlicha ahamiyat berilmayabdi jumladan, noyob arxitektura yodgorliklaridan foydalanish (asosan, muzey xarakteriga ega bo'lgan). Agar chet el tajribasini inobatga olsak, shu narsa tushunarli bo'ladiki, bizda imkoniyatlar yetarlicha keng.

Ijtimoiy-estetik, amaliy omillar o'zaro bog'liq bo'lib, bir-birini to'ldiradi va rivojlantiradi, arxitektura yodgorliklari tarixiy, badiiy va moddiy qiymatining saqlanishiga yordam beradi.

Qulay variantni tanlashda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

a) yodgorliklardan foydalanish xarakteri uning joylashuvi bilan bog'langan bo'lishi kerak, yodgorlik muxofaza hududini shaharsozlik tizimida joylashuvi bo'yicha qanday belgilasa, atrof muhit bilan funksional aloqalarini ham xuddi shunday belgilaydi;

b) yangi funksional vazifa yodgorlikning fazoviy tuzilishiga (bino hajmi) bog'lanishi kerak, xonalarning o'lchamlari va o'zaro joylashishi, yodgorlik me'moriy fazosining bo'linish ritmi analogik yangi funksional va rejalashtirilgan guruhlariga muvofiq kelishi kerak;

v) yangi vazifa yodgorlik konstruksiyalari va ustki qoplamasi (tebranishi, noxush namlik - harorat rejimi) saqlanishiga noqulay ta'sir ko'rsatmasligi kerak;

g) yodgorlik yangi vazifasi va badiiy-obrazli qurilishi badiiy qiymatlarni buzmaganda mos tushishi kerak (yuqori tarixiy-badiiy va me'moriy-shaharsozlik

ahamiyatidagi binolarda alohida ahamiyatdagi amaliy, xo'jalik korxonalarini joylashtirishga yo'l qo'yib bo'lmaydi);

d) yodgorlikdan foydalanish u bilan har tomonlama tanishishga halaqit bermasligi kerak.

Shahar ehtiyojlaridan va arxitektura yodgorliklar fondlarining borligidan kelib chiqib, yodgorliklarning qator toifalari uchun vazifalar tanlashni quyidagicha aniqlash mumkin:

### **1. Shaharning tarixiy markazi.**

Sanoat, kommunal-xo'jaliklari, ishlab chiqarish, administrativ markazlarni shahardan tashqariga chiqarish yo'li bilan jamoa-madaniy va sayyohlik markazlarini shaharda saqlab qolish hozirgi zamon shaharsozlik nuqtai-nazaridan talablarga to'liq javob beradi.

**2. Yirik fuqaro majmualaridan**, agar shahar hududining zonalashtirilishiga to'g'ri kelmasa, ilgari vazifalarida foydalanish maqsadga muvofiq.

**3. Arxitektura yodgorliklari** madaniy-ma'rifiy maqsadlar uchun oson moslashtiriladi, chunki, bunday inshootlarning alohida fazoviy tuzilishi, mukammal interyer va bezakning mavjudligi, ularni madaniy-ma'rifiy maqsadlardan (turli vazifadagi muzeylar, ko'rgazmalar, planetariylar, konsert zallari va shu kabilar) tashqari zalli tuzilishni talab etadigan boshqa maqsadlar uchun foydalanish imkonini bermaydi.

Bu kabi binolar uchun foydalanishning bunday ko'rinishi eng qulay, chunki badiiy obrazni kengroq ochish imkonini beradi va ma'lum ma'noda inshootlarning dastlabki vazifasiga muvofiq keladi. Ammo bunday binolardan badiiy ko'rgazma va konsert zallari sifatida foydalanish imkoniyatlari kichik shaharlarda cheklangan, bunday holda ilgari madaniy bino-yodgorliklardan ma'muriy va madaniy-ijtimoiy (yodgorliklarni, tabiatni muhofaza qilish, ko'ngillilar jamiyati klublari, xalq sudlari, nikoh va majlis zallari, sayyohlik uchun ijtimoiy xonalar) maqsadlar uchun foydalanishni taklif qilish mumkin.

Madaniy arxitektura yodgorliklaridan ishlab chiqarish, sklad va shunga o'xshash korxonalar uchun foydalanish amaliyotdan olib tashlanishi kerak.

**4. Fuqaro me'morchiligi yodgorliklarida** - turar joy binolaridan tashqari, ko'p hollarda o'z vazifalari bo'yicha foydalanilishi mumkin (omborxonalar, bostirmalar, ma'muriy majmua va binolar, savdo binolari - savdo qatorlari va shu kabilar)

### **5. Shahar tashqarisi majmualari yodgorliklari.**

Odatda qadimgi uylarni zamonaviy turar joylar uchun moslashtirish maqsadga muvofiq emas: katta xonalar, baland shiftlar, uying rejaviy tuzilishi va shu kabilar

zamonaviy uylarning ixchamligi, kichik o'lchamligi kabi talablariga javob bera olmaydi.

Qadimgi uylar ijtimoiy - ma'muriy va madaniy-ma'rifiy muassasalar, kutubxonalar, ilmiy, loyihaviy, jamoat tashkilotlari, bolalar muassasalari uchun muvaffaqiyatli foydalanilishi mumkin. Bunday yodgorliklarda badiiy dekorativ bezaklardan holi yordamchi xonalarning mavjudligi garderob, bufet, sanuzellarni joylashtirish imkonini beradi.

1. **Ko'chalar, maydonlar, gazarlar majmualari** shaharning qabul qilingan bosh rejasi asosida, binolar umumiy kompozitsiyasini va uning yuzaga kelgan tashqi qiyofasini buzmaganda funksional zonalashtirish bilan muvofiqlikda foydalaniladi. Tarixiy-me'moriy muhitda oddiy binolar (III va IV toifadagi) ham saqlanganligi sababli, aynan ularda ichki xonalarni o'zgartirishni talab qiluvchi muassasalarni joylashtirish maqsadga muvofiq.


2. **Turar joy arxitektura yodgorliklari** kichik, ba'zida xususiy uylarni o'z vazifasi bo'yicha, odatdagi tiklash-ta'mirlash va zamonaviy sanitar-texnik uskunalari bilan jihozlash (hovli qismida maxsus sanitar-texnik bloklarni qurish mumkin) bilan foydalanish maqsadga muvofiq.

Bu xildagi badiiy va tarixiy jihatdan alohida qiymatga ega yodgorliklardan tarixiy yoki maishiy muzeylar (zarur bo'lsa yoki imkoni bo'lsa ularni muzey hududlari yoki qo'riqxonalariga ko'chirgan holda) sifatida foydalanish mumkin. Eski shaharning markaziy qismida joylashgan arxitektura yodgorliklari majmualarga, shaharning bu majmualaridagi asosiy va boshqa elementlari bilan yonma-yonligiga bog'liq ravishda kiritilishi mumkin.

Buxoro shahri tarixiy markazida joylashgan me'moriy yodgorliklar majmualari shaharsozlikdagi alohida ko'rinishini belgilaydi. Majmuada yodgorliklarning idrok qilinish sharoitlarini bunday klassifikatsiyalash va sinchiklab tahlil qilish natijasida yodgorliklarning shahar tuzilishida joylashishining rejayiy xususiyatlari namoyon bo'ladi, shaharsozlik tahlili esa ularning yangi vazifalarga moslashtirish asosini belgilab beradi.(1.4.2-Rasm).

Birinchi, yodgorliklarni bunday savdo korxonalarini uchun (restoran, kafe, oshxona, choyxona va shu kabilar) foydalanib bo'lmaydigan, sayyohlik yo'llaridan uzoqda, shahar chekkasida joylashtirish maqsadga muvofiq emas va hech qanday daromadsiz hisoblanadi. Shunday ekan, yodgorliklarning shaharlar strukturasi joylashishi ularning yangi vazifasini, uning qat'iy xarakterini belgilamagan holda tanlash uchun faqat umumiy asos bo'ladi, xolos.

Ikkinchi, ichki tuzilish va klassifikatsiyani inobatga olib, yodgorliklarni foydalanishga moslashtirish xususiyatlarini ko'rsatish zarur.



## КУКАЛДОШ МАДРАСАСИДАН МЕХМОНХОНА СИФАТИДА ФЙДАЛАНИШИ БУЙИЧА ТАВСИЯЛАР. (БУХОРО)

### 1.4.2-Rasm. Yodgorliklarni foydalanishga moslashtirish.

Shunday qilib, Buxorodagi har bir tarixiy yodgorliklarning ichki tarxini o'rganib, undagi xonalardan qanday maqsadda foydalanish mumkinligi aniqlanishi lozim. Masalan, madrasalarda maishiy xizmat imkoniyatlari (sanitariya-texnika, isitish va shamollatish va h.k.) yaratilsa undan zamonaviy mehmonxona, yotoqxona, muzey yoki boshqa shunga o'xshash maqsadlarni amalga oshirish mumkin bo'lgan binolar uchun to'g'ri keladi.

Bu usullardan kelib chiqib, Buxoro arxitektura yodgorliklarini o'z funksional vazifasi bo'yicha klassifikatsiyasini ishlab chiqish mumkin. Tarixiy majmuani saqlash uchun, bunday hududda avtotransport harakati bo'lmasligi kerak. Sayyohlarni shahar tarixiy zonasiga olib kirish va sayohatni qiziqarliroq qilish uchun ot arava va izvosh kabi manzarali turlaridan foydalanish mumkin. Natijada tarixiy

muhitning toza va shovqinsiz hamda atrof havo ifloslanmaydi va maydonlarni sof holatda saqlash imkoni tug'iladi.

Turli yillarda bajarilgan loyihaviy ishlar tahlili qiziqish uyg'otadi. Jumladan, 1989 yilda "UzNIPI restavrsiya" instituti tomonidan Buxoro markaziy qismining rejaviy yechim loyihasi yangi jamoat markazi yaratish kerakligi ko'rsatilgan. Unda asosiy shaharsozlik dominantlaridan biri, shaharning eski qismi maksimal saqlangan va zamonaviy shahar rejaviy tuzilishi bilan uzviy bog'langan tarixiy hudud bo'lishi kerak.

Tarixiy obidani qayta tiklash usullari, xalq me'morchiligi madaniyatini saqlash yo'llari belgilandi, shuningdek har bir arxitektura yodgorliklarini hudud sharoitlariga shartli moslashtirish uslublari taklif qilindi va asosiy sayyohlik marshrutlari ishlab chiqildi. Buxoroning deyarli hamma madrasalaridan mehmonxona sifatida foydalanish taklif etildi, bu bizning fikrimizcha, maqsadga muvofiq emas: alohida yodgorliklardan haqiqatda mehmonxona uchun foydalanish mumkin, boshqalarini tomosha obyekt sifatida qoldirish va xatto boshqa muassasalar uchun ya'ni, savdo gumbaz(rasta)laridan o'z vazifasi bo'yicha foydalanish mumkin.

Bu ishda ikki loyiha tashkilotlari: "O'zLITI shaharsozlik" va O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligiga qarashli "UzNIPI restavrsii" institutlari ishtirok etgan.

Loyiha asosida qator takliflarni ishlab chiqish yotadi, ularda tarixiy o'ziga xoslikni saqlab qolishga, savdo ko'chalarini tiklash va rivojlantirish, xalq hunarmandchiligini qayta tiklash va tarixiy zonani arxitektura yodgorliklari bilan uzviy bog'langan ijtimoiy va madaniy vazifadagi komplekslar bilan tarixiy zonani to'ldirishga bo'lgan qarashlar umumiyliigi mujassam. "Buxoro shahri tarixiy qismining muhofaza hududlari va qayta tiklash tartibi sxemasi" loyihaviy taklifida muhofaza hududlarining asosiy chegaralari, ularni qayta tiklashda belgilangan va asosan tarixiy shahar chegaralari to'g'ri aniqlangan.

Tarixiy shahar markazlarini qayta tiklashning zamonaviy an'anasi kam qiymatli binolarga ega zahiradagi hududlardan foydalanishni nazarda tutadi, chunki katta maydonlarni konservasiya qilish bunday shahar chekkasida yangi qurilishni olib borishga majbur qiladi. Bu shaharlar chegaralarini kengaytiradi, transport harakati yo'llari va muhandislik tizimlarini uzaytiradi.

Buning uchun shunday muhofaza hududlari chegaralarini aniqlash taklif etiladiki, ular me'yorlarga va obyekt tomosha qilish uchun qulay sharoit yaratishga, kam qiymatli binolarga ega zahira hududlarni izlashga muvofiq kelishi kerak. Buning uchun Buxoro shahrining tarixiy qismini rejalashtirish bo'yicha aniqlangan loyihaviy yechimida me'moriy yodgorliklarni ta'mirlash, konservasiya qilish, qayta tiklash va zamonaviy vazifalarga moslashtirish uchun loyihaga kiritilgan

me'moriy yodgorliklarning muhofaza hududlari chegaralarini belgilovchi asosiy sayyohlik marshrutlari sxemasi ishlab chiqilgan.

### **Takrorlash uchun savollar.**

1. Muhofaza hududida yodgorliklarning tarixiy ahamiyati nimalardan iborat?
2. Muhofaza hududlari muammosini hal qilish uchun eng asosiy muammo nimalardan iborat?
3. Muhofaza hududlarida yodgorliklar uyg'unligini aniqlashdagi nimalar e'tiborga olinadi?
4. Arxitektura yodgorliklarining muhofaza hududlarini ishlab chiqishda nimalarga e'tibor berish kerak?

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O.M.Salimov. Magistrlik dissertatsiyasini yozish bo'yicha uslubiy qo'llanma. T., 2003. 24 bet.
2. X.Sh.Po'latov, A.S.Urolov. Arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash va qayta qurish. O'quv qo'llanma. T., 2002. 85 bet.
3. A.M.Salimov. Основные принципы реконструкции исторических комплексов городов Узбекистана. Metodicheskiye ukazaniya. T., 1994. 18 str.

### **ME'YORIY XUJJATLAR**

## **MADANIY MEROS OBYEKTLARINI MUHOFAZA QILISH VA ULARDAN FOYDALANISH**

### **O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligining madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi vakolatlari. (7-modda)**

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi:

- yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;
- madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda qatnashadi;
- moddiy madaniy meros obyektlarini ilmiy va ilmiy-texnik tadqiq etish, konservatsiyalash, ta'mirlash hamda hozirgi zamonda foydalanishga moslashtirish bo'yicha davlat dasturlarini amalga oshiradi;

- madaniy meros obyektlarining aniqlanishi, hisobga olinishi, muhofaza qilinishi, targ'ib qilinishi va ulardan foydalanilishini ta'minlaydi;
- Moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastrini va Nomoddiy madaniy meros obyektlarining ro'yxatini yuritadi;

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi «O'zarxiv» agentligining madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi vakolatlari. (8-modda.)**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi «O'zarxiv» agentligi O'zbekiston Respublikasining Milliy arxiv fondida turgan madaniy meros hujjatli obyektlarini o'ziga berilgan vakolatlar doirasida hisobga olinishi, muhofaza qilinishi va ulardan foydalanilishini amalga oshiradi.

**Mahalliy davlat hokimiyati organlarining madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi vakolatlari. (9-modda)**

Mahalliy davlat hokimiyati organlari o'zlariga berilgan vakolatlar doirasida o'z hududlarida joylashgan madaniy meros obyektlarini aniqlaydilar hamda ularni hisobga oladilar, muhofaza qiladilar, asraydilar va ulardan foydalanadilar, madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlarining ijro etilishini ta'minlaydilar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va jamoat birlashmalarini madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish tadbirlarini o'tkazishga jalb etadilar.

**O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISHGA  
INNOVASION YONDASHUV**

**“Arxitektura yodgorliklarining muhofaza hududlarini tashkil etish usullari”  
mavzusi bo'yicha  
KEYS - TEXNOLOGIYA**

**1. KEYS**

*Tarixiy shahar rejaviy tuzilishini, qadimgi qishloqlarning silueti va me'moriy qiyofasining o'ziga xosliklarini, yangi qurilishlar bilan tarixan yuzaga kelgan rejaviy va fazoviy tuzilishi hamda shahar va tabiat muhitining xarakterli qirralari bilan uyg'un birlikda saqlab qolish vazifalarini shaharsozlik yodgorligi bo'lgan Buxoro misolida namoyish qilish mumkin.*

*O'zbekistonda me'morchilik yodgorliklari va ularning majmualari arxitekturasidagi xususiyatlar boshqa mintaqalarga nisbatan muhofaza hududlarini tashkil qilishda qanday yondoshuvni talab etiladi?*



## 1. Keysning maqsadi:

### **Keysning ta'lim maqsadi:**

Magistrantlarga ushbu mavzuda, muhofaza hududlarini yaratishda avvalo alohida turgan yodgorliklarni, ularning komplekslari guruhlarini aniqlash va ular birgalikda shahar muhofaza hududlarini yuzaga keltirish. O'zbekiston me'moriy yodgorliklarining va ularni o'rab turgan binolar qiymat darajasi va xarakterini aniqlash maqsadida ularni quyidagi toifalar bo'yicha klassifikatsiyalash tartibi tushunchalar va ko'nikmalarni berish.

### **Rejalashtirilgan o'quv natijalari:**

Magistrantlarga yodgorlik-binoning funksional tanlanishi muhofaza hududi konfiguratsiyasi xususiyatlarini ochib beradilar.

### **2. Magistrantlar keysni muvaffaqiyatli yechishlari uchun quyidagi tayanch bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim:**

- a) Arxitektura me'moriy obidalari haqida tushunchalar;
- b) Buxoro me'moriy obidalarining xususiyatlarini o'rganib chiqish;

### **3. Keysning tipologik belgilari:**

Ushbu keys kabinetli keyslar turkumiga mansub: u hujjatlar ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Keys syujetsiz, keysdagi holat hozirgi zamonga to'g'ri keladi. (Dalali keysga aylantirib uni syujetli ham qilish mumkin).

Keys predmeti. Arxitektura yodgorliklarining muhofaza hududlarini tashkil etish usullari va ularga oid filmlar va slaydlar.

Keys o'rtacha miqdordagi, strukturalashgan. O'quv topshiriqni keys-savolli va topshiriq yordamida tasvirlanadi.

Keysning didaktik maqsadi magistrantlarga arxitektura yodgorliklarini muhofaza hududlarini tashkil etishni o'rgatishdan iborat.

**4. Keys uchun axborot yig'ish yo'llari:** muloqat, hujjatlarni o'rganish, Tarixiy obidalariga sayohat.

**5. Axborot yig'ish vositalari:** hujjatlar, ma'lumotnomalar, filmlar.

**6. Axborot manbalari:** Tarixiy obidalar, va boshqalar.

**Kirish.** O'zbekiston tarixiy shaharlaridagi arxitektura yodgorliklaridan zamonaviy maqsadlarda foydalanishga moslashtirishni loyihalashda muhofaza hududlarini tashkil etish usullari va tamoyillari hali yetarlicha ishlab chiqilmagan. O'zbekistonda me'morchilik yodgorliklari va ularning majmualari arxitekturasi

xususiyatlar boshqa mintaqalarga nisbatan muhofaza hududlarini tashkil qilishda o'ziga xos yondoshuvni talab etadi.

Tarixiy shahar rejaviy tuzilishini, qadimgi qishloqlarning silueti va me'moriy qiyofasining o'ziga xosliklarini, yangi qurilishlar bilan tarixan yuzaga kelgan rejaviy va fazoviy tuzilishi hamda shahar va tabiat muhitining xarakterli qirralari bilan uyg'un birlikda saqlab qolish vazifalarini shaharsozlik yodgorligi bo'lgan Buxoro misolida namoyish qilish mumkin.

**Vaziyat.** Shahar me'moriy qiyofasini tarixiy shakllangan yagona majmua sifatida saqlab qolishdan va yangi binolar, tarixiy va tabiiy muhitning uyg'unlikdagi birligini ta'minlovchi tavsiyalarni ishlab chiqishdan iboratdir

**Muammo** Yodgorliklar noyob majmuasi harobalar, bir-biriga begona qurilishlar ichida qoldi, yangitdan o'tkazilgan ko'chalar tufayli uning idrok qilinishida ham o'z xususiyatlari yo'qolgan.

**Topshiriq:** Shahar me'moriy qiyofasini tarixiy shakllangan yagona majmua sifatida saqlab qolishdan va yangi binolar, tarixiy va tabiiy muhitning uyg'unlikdagi birligini ta'minlovchi vazifalarni aniqlash.

## **1.5. O'ZBEKISTONNING TARIXIY SHAHARLARIDA MUHOFAZA HUDUDLARINI TASHKIL ETISH USULLARI**

### **REJA:**

*1. Tarixan yuzaga kelgan majmuani saqlash va qayta tiklanayotgan shahar markazi rivojini ta'minlash - rejalashtirish loyihasini ishlab chiqish davomida yuzaga keluvchi muammolar.*

*2. Adabiy manbalar va naturaviy tadqiqotlarni tahlil qilish natijasi.*

*3. Tarixiy shahar me'moriy qiyofasining strukturasi va siluetini saqlash yangi qurilish va tarixan shakllangan shahar muhitini rejaviy yechimlari.*

### **Annotasiya**

*Ushbu mavzuda tarixiy hududlarni tashkil qilish bo'yicha vazifasi, tarixiy yadro markaziy qismi me'moriy qiyofasining tuzilishi, umumiy ko'rinishi va o'ziga xosligini saqlashda tarixan shakllangan shahar muhitining uyg'unlashgan birligini yaratishga qaratilgan loyixa yechimlari va kelib chiqqan muammolari yoritilgan.*

### **TAYANCHIBORALAR:**

*Tarixiy va me'moriy. Injener-geologik. Tabiiy-landshaft. Magistral. Kompozisiya. Rejaviy. Madaniy-maishiy. Funktsional, Stilistik. Qo'riqxonalar. Majmualar. Yodgorliklar. Muhofaza hududlari.*

Tarixan yuzaga kelgan majmuani saqlash va qayta tiklanayotgan shahar markazi rivojini ta'minlash - rejalashtirish loyihasini ishlab chiqish davomida yuzaga keluvchi murakkab va ziddiyatli vazifalardan iborat muammodir. Dunyo amaliyotida aynan barkamollikka erishgan qimmatbaho tarixiy markaziy shahar majmualarini buzib tashlash hollari ko'p bo'lgan.

Yuz yillar davomida asosan XX asrda piyodalar yo'llari negizida shakllangan tarixiy markazlar avtomobil transportiga (ko'p hollarda katta tezlikli harakatdagi) moslashtirilgan. Tarixiy va me'moriy jihatdan qimmatli binolar turar joylarning zamonaviy talablariga javob bera olmaganligidan va markazning madaniy -maishiy hamda ma'muriy vazifalarining o'sishi bilan bog'liq holda zamonaviy, odatdagidek shakllangan majmualarni buzuvchi binolarga joy bo'shatib berishga majbur bo'lgan.

Tarixiy shahar markazlariga zamonaviy talablarning kirib borishini cheklashga yo'naltirilgan turli ma'muriy va belgilangan rejalashtirish tadbirlari (himoya hududlarini yaratish, ularda yangi qurilishlarni ta'qiqlash, vaqtincha olib boriladigan harakatni yo'qotish maqsadida markazlarga transport xalqa yo'llarini olib kirish va shu kabilar) odatda sun'iy ravishda tashkil etilganligi ma'lum bo'ldi.

Bu esa, ko'p hollarda tarixiy markazlar bir vaqtning o'zida shaharlarning haqiqiy markazi bo'lib ham hisoblanadi, ya'ni umumshahar muassasalarini joylashtirish uchun, shuningdek aholining mehnatkash va madaniy -maishiy oqimining yalpi kesishuvi (agar transport bo'lmasa, piyoda uchun) eng afzal va qulay joy.

Shahar qurilishlari (asosan turar joylar markazlarining tarixan shakllangan tutashganligi) shuningdek ularning kengayishini haddan tashqari qiyinlashtiradi. Yuzaga kelgan tanglik holati shaharning yangi ma'muriy -ijtimoiy markazini zamonaviy shahar chekkasida (masalan, Sankt Peterburg, Tallinda) yoki shaharning qayta rejasini mukammal yaratishda markazni rivojlantirish imkoniyatini ta'minlash maqsadida chora izlashga majbur qiladi.

Yuqorida keltirilgan holatlar eng avvalo rivojlangan (XX asr boshlarida) Yevropa shaharlari uchun xos bo'lgan. O'rta Osiyoning tarixan shakllangan markazlariga kelsak, jumladan, O'zbekistonda bunday tang holat hali yuzaga kelmagan. Bu ma'noda Buxoro shahri ajralib turadi tarixan shakllangan takrorlanmas majmuali yirik sayyohlik markazi bo'lib, shu bilan birga kelajakda yirik takomillashgan viloyat markazi.

Buxoroning tarixiy o'zagi hozirgi vaqtda shahar hududining 20 foizga yaqinini egallaydi: ijtimoiy xizmat ko'rsatish va ma'muriy muassasalarning 90 foiz korxonasi tarixiy o'zak chegarasida asosan ma'naviy eskirgan inshootlarda joylashgan.

Kapital turar joy va ijtimoiy qurilish hozirgi vaqtda shaharning janubiy va janubi-sharqiy qismlarida olib borilyapti Tarixiy o'zakning g'arbiy, shimoliy va qisman sharqiy tomonidan mahalliy turdagi xom g'ishtdan qurilgan turar joy binolarining kichik uchastkalari mavjud, hozirgi kungacha ular ma'lum ma'noda eskirgan.

Umuman shaharning 56,8% turar joy fondini bir qavatli binolar tashkil qiladi (ko'plari mahalliy turdagi somonli loydan qurilgan), 2,3,4 qavatli kapital turar joy fondi asosan shaharning janubi-sharqiy va janubiy qismlarida. Passajir temir yo'l magistrali zamonaviy shahar hududidan tashqarida, tarixiy o'zakdan 6-7 km. masofadan o'tadi.

Shaharni o'rab turgan hudud injener-geologik va tabiiy-landshaft xususiyatlari bo'yicha nisbatan teng qiymatli. Shaharda va uning yaqinida yirik suv havzalari yo'q. Buxoroning mavjud holati tahlili shaharning faqat janubiy va janubi-sharqiy qismlaridagi turar joy va jamoat obyektlarining va qisman bu rayonlarning transport tizimi mustahkamligi haqida xulosa qilish imkonini beradi. Markazni g'arb, shimol va sharq tomondan o'rab turuvchi maydonlar esa to'liq qayta tiklashni yoki yaqin yillarda buzib tashlashni talab qiladi.

Natijada shuni aytish mumkinki, shaharning tarixiy o'zagi zamonaviy vaziyatda eng qiziq ko'rish nuqtalari bo'lgan g'arbiy, shimoliy va sharqiy tomondan "ochiq".

Tarixan qimmatli qurilishlarning aynan qisman "ochiqligi", chamasi, Buxoroning ilgarigidan shakllangan O'rta Osiyo shaharlari uchun tipik namunaligini belgilaydi. Ammo bunday o'ziga xoslikka qaramay, oxirgi shahar rejaviy loyhasida tarixiy markaz atroflari turar joy va xatto sanoat binolari bilan o'ralgan. Bunda shahar rejaviy tuzilishi aylanma-markazga yaqin (tarixiy o'zakka nisbatan shimolga surilgan markaz bilan) xususiyat kasb etadi.

Rivojlangan Yevropa tarixiy shaharlarini qayta tiklash uchun bunday tipik usul kelajakda katta rivojlanishda (tarixiy markaz atrofi o'ralmada, va unda ma'muriy-ijtimoiy binolar qurilishi bosh reja bo'yicha ruxsat etilmaydi) majmuaning sekin-asta vayron bo'lishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari viloyat markazida fan, bilim, ma'naviy faoliyat, ijtimoiy xizmat ko'rsatish bilan band aholi ko'payadi. Bu kabi muassasalar asosan shahar markazida joylashadi.


Shuningdek, hozirgi vaqtda tarixiy hududga keluvchi shahar markazida, ayniqsa tarixiy zonada sayyohlar oqimining ko'pligini inobatga olish kerak, bunda transport va piyodalar tig'izligi yuzaga kelishi mumkin.

Yuzaga kelgan vaziyatda tarixiy obidalar markaziga kelayotgan sayyohlar oqimlarini ham ishchi, ham madaniy-maishiy shahar zamonaviy markaziga ajratish imkonini beruvchi usullarni eng yaxshisi deb hisoblash mumkin. Bunda

sayyohlarning keladigan asosiy punktlarini (Buxoroda vokzal va avtostansiya) maxsus magistrallar orqali tarixiy zona bilan bog'lash maqsadga muvofiq. Bu bog'lanishlar hududlarda mehmonxonalar, kempinglar, dam olish zonalari va sayyohlar oqimiga xizmat ko'rsatuvchi boshqa muassasalarni joylashtirish kerak. Agar shaharning tarixan shakllangan o'zagi uning tarkibiga shahar rayoni sifatida kirsa, bu rayon aholisi uchun (hozirgi vaqtda shahar aholisining katta foizini tashkil qiluvchi) turmush sharoitlari ancha yengil ta'minlanishi mumkin.

Buxoroning nazarda tutilgan qayta tiklanishi tarixiy o'zakning ochiqligi tufayli asosli bo'lishi mumkin. Loyiha taklifida Buxorodagi vaziyat uchun, ma'lum ma'noda yuqorida qayd etilgan talablarni qondiruvchi rejaviy tuzilishining shartli sxemalari keltirilgan.

O'rta seliteb hududlar to'g'ri burchakli transport tizimiga ega va tarixiy hududning janubiy tomonidan g'arbiy yo'nalishda rivojlanib boradi. Yangi ma'muriy-ijtimoiy markaz seliteb zonaning markaziy qismida shakllanadi va g'arbiy yo'nalishda rivojlanishi mumkin. Tarixiy hudud shaharning shimoliy qismida chekka holatni oladi va vokzal hamda boshqa rayonlar bilan yangi markazni kesib o'tuvchi rejada yoy shaklidagi transport magistrali orqali bog'lanadi. (1.5.1-Rasm)



1.5.1-Rasm. Magistral bo'ylab asosiy sayyohlik oqimlarini yo'naltirish.

Bu magistral bo'ylab asosiy sayyohlik oqimlarini yo'naltirish taklif etiladi. Tarixiy o'zak shimoli-g'arbiy tomonidan aralash sayyohlik - shahar ahamiyatidagi o'rmon-park dam olish hududi shakllanadi, u yerda sayyohlik bazalari joylashtirilishi mumkin. Bu hududda eski Buxoro manzarasi yaxshi ko'rinadigan nuqtalar mavjud. Sxema shaharning sayyohlik funksiyalaridan ishchi va madaniy-maishiy funksiyalarni to'liq ajratishni ta'minlaydi. Bir vaqtning o'zida tarixiy hudud shahar markazlari bilan qulay bog'lanadi.

Hozirgi vaqtda Buxoro tarixiy shahri markaziy qismi saqlangan bo'lib, u alohida yo'nalishlar bo'ylab shakllanyapti va rivojlanyapti (g'arb va shimoli-sharqqa va markazning rivojlanish yo'nalishi - shimoli-g'arbga). Bunday usulning qo'llanilishi kelajakda shaharning tarixiy chegara qismining kengayish imkoniyati qabul qilingan loyihaviy reja asosida shaharning erkin rivojlanishini ta'minlaydi. Tarixiy shahar markazi temir yo'l stansiyasi bilan maxsus magistral orqali bog'lanadi, bu stansiya joylashgan rayonda sayyohlarni joylashtirish tavsiya etiladi. Bu holatda eski Buxoroning markaziy joyni egallashiga qaramay, uni qisman park zonasi bilan o'rash mumkin, eski shahar atrofidan o'tgan yangi transport magistrallari esa ma'lum darajada uning ajralib turishini ta'minlaydi.

Rivojlanish imkoniyatlariga ega bo'lgan yangi markazning mavjudligi tarixiy markazda kelajakda ma'muriy inshootlar qurish zaruriyatini yo'qqa chiqaradi. Berilgan holatda rivojlanayotgan shaharda "statik markaz"ning mavjudligi ma'lum ma'noda maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, O'zbekistonning qator tarixan shakllangan shaharlar markazlarida (Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qon) ma'lum xususiyatlar (tarixan shakllangan yadroning ochiqligi) qator muammolarni hal qilish imkonini beruvchi, xatto ularning yuzaga kelishini bartaraf qiluvchi o'ziga xos rejaviy yechimini qidirishni keltirib chiqaradi.

Adabiy manbalar va naturaviy tadqiqotlarni tahlil qilish natijasida quyidagilar aniqlandi:

1. Zamonaviy jamiyat uchun arxitektura yodgorliklarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish muammolarini yechishda arxitektura yodgorliklariga ehtiyotlik bilan munosabatda bo'lish, uni kelajak avlod uchun saqlanishi asosiy mohiyatini tashkil qiladi.

2. Tarixiy hududlarni tashkil qilish vazifasi tarixiy yadro markaziy qismi me'moriy qiyofasining tuzilishi, umumiy ko'rinishi va o'ziga xosligini saqlash, tarixan shakllangan shahar muhitining uyg'unlashgan birligini yaratishdan iboratdir.

3. Muhofaza hududlari, qurilishlarni tartibga solish zonalarini tashkil qilish, yodgorliklar va majmualarni moslashtirish va arxitektura yodgorliklaridan foydalanish klassifikasiyasini ishlab chiqish qoidalarini tadqiq qilish, shuningdek

O'zbekiston tarixiy shaharlarining qo'riqxonalarida majmualar va yodgorliklar muhofaza hududlarini tashkil etish qoidalarini aniqlashtirish zarur.

4. Arxitektura yodgorliklarini saqlash uchun va uning atrof muhit bilan va shahar zamonaviy majmuasi bilan rejaviy yechim aloqalarini mustahkamlash uchun tarixiy hududlar belgilanadi.

Tarixiy hududlar sistemasi quyidagicha ajratiladi:

- qo'riqxonalar hududi;
- tarixiy yodgorliklarni muhofaza qilish hududi;
- qurilishni tartibga solish hududlari;
- muhofaza qilinadigan landschaft hududi;

Tarixiy hududlarni tashkil qilish vazifasi, shahar me'moriy qiyofasining o'ziga xosligi, strukturasi va siluetini saqlash yangi qurilish va tarixan shakllangan shahar muhiti uyg'unlikdagi birligini yaratishdan iboratdir.

5. Muhofaza hududlari loyahasini ishlab chiqishda quyidagi usullar muvofiq keladi:

- shaharning morfologik tuzilishini o'rganish;
- yodgorliklarning shaharsozlikdagi o'rnini o'rganish;
- ko'chalar va transport kommunikatsiyalari sistemasini o'rganish;
- tashqi ko'rish nuqtalaridan idrok qilishni hisobga olgan holda shahar majmuasini tahlil qilish;
- shahar tuzilishida dominantlik qiluvchi majmualarning joylashishini va yetakchi dominantlar o'rtasida vizual aloqalarning borligini aniqlash;
- yodgorliklar va atrofdagi qurilishlar masshtab munosabatini aniqlash;
- hududlarning maydonini hisoblash va uni rejada chizish.

O'zbekiston tarixiy shaharlari sharoitlariga mos keluvchi qurilishlarni tartibga solish hududlari aniqlanishi lozim.

6. Foydalanishga moslashtirish loyahasini ishlab chiqishda quyidagilar asosiy uslubiy ko'rsatma bo'lib xizmat qiladi:

- har bir me'moriy yodgorlik yoki majmuaning yangi funktsiya asosida foydalanishga moslashtirilishiga individual yondoshuv;

- inshootning shakllanish tarixini o'rganish, uning dastlabki vazifasini aniqlash va binoning tarixiy vazifasiga yaqin bo'lgan (inshoot konstruksiyasi, me'moriy rejaviy tuzilishi va badiiy qiyofasini maksimal saqlash imkonini beruvchi) yangi vazifani qidirish;

- inshoot me'moriy, rejaviy va badiiy dekorativ tizimini (plastik yechim, kompozitsiya, asosiy va ikkinchi darajalilar, ritmik tartib, masshtablilik) o'rganish va saqlash;

-yuqori darajadagi shinamlikni yaratish, interyerni loyihalashning zamonaviy qoidalarini (texnologiklik, funksional zonalashtirish) qo'llash;

- foydalanishga moslashtirilayotgan yodgorlik interyerining rang va bezak yechimida mintaqaning an'anaviy qoidalariga rioya qilish;

- yodgorliklar majmuasi hududining obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish xarakterining inshoot me'morchiligining funksional, kompozision va stilistik xususiyatlariga muvofiqlik qoidalariga rioya qilish.

7. Berilgan muammolar majmui bo'yicha loyihaviy va tadqiqot ishlari kompleks yondoshuvni va ko'plab mutaxassislar (shu jumladan bir-biriga yaqin mutaxassislar) mehnatini talab qilgani sababli, tarixiy shaharlar markazlarini qayta tiklash, ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish ta'mirlash ustaxonalari bazasida arxitektura yodgorliklarni qayta tiklash va foydalanishga moslashtirish muammolari bilan shug'ullanuvchi maxsus loyihalash bo'limlarini yaratish tavsiya etiladi.

8. To'rtta qulay variantlardan tashkil topgan shahar tarixiy markazini qayta tiklash alohida tartib zonalarini ajratish sistemasi ham quyidagi loyihalashning foydali usullari hisoblanadi:

- konservasiyalash zonasi yoki qayta tiklashning qat'iy tartib zonasi "yangilash zonasi";

- yangi qurilish, saqlanib qolgan binolardagi qayta tiklash tadbirlari bilan muvofiq kelgan, cheklangan qayta tiklash hududlari;

- yangi tartibga solinuvchi qurilishlar hududlari, u yerda ular shu holicha izchillik qoidasiga bo'ysunadi va shahar tarixiy majmualari dominantlari bilan fazoviy muhitda birlashadi;

- yangi mustaqil qurilish hududi, uning chegarasi shaharning izchil fazoviy muhitidagi uzilishni belgilaydi.

9. Loyihalash uslublarini va muhofaza hududlarini tashkil etish uchun tadqiqot asosida ishlab chiqilgan aniq tartib-qoidalarni O'zbekiston tarixiy shaharlarining markaziy qismiga mos, tekshirishlar natijasida olingan ijobiy natijalarni inobatga olib, loyihalash amaliyotida qo'llashga tavsiya qilinishi mumkin.

Arxitektura yodgorliklarini saqlash uchun, yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlar bo'yicha o'z qiymatiga ega bo'lishi kerak. Masalan, Buxorodagi Poyi Kalon majmuasi hamma qimmatbaho arxitektura yodgorliklari va atrof qurilishlari bilan uch yoqlama qiymatga ega:

- alohida yodgorliklar sifatida;

- arxitektura yodgorliklar majmuasi sifatida;

- shaharsozlik yodgorliklari sifatida.

Bu keltirilgan namunada atrof qurilishlari (eski bir ikki qavatli qurilishlar) o'z o'zicha tarixiy qiymatga ega bo'lmasada, majmuada qimmatbaho arxitektura



yodgorliklari bilan birga, bu majmuaning me'moriy qiymatini oshiradi. Bu esa yodgorliklar uchun asosiy fon bo'lib xizmat qiladi, majmuaga bir butun yaxlitlik, tugallanganlik ruhini beradi. Majmuaning asosiy yodgorliklari, badiiy-me'moriy, shaharsozlik nuqtai nazaridan majmuaning ikkinchi darajali elementlarining atrof qurilishlari bir-biri bilan chambarchas bog'langandir.

Arxitektura yodgorliklar majmuasi elementlarini bir qancha toifalarga ajratish mumkin:

1. Majmuaning asosiy elementlari (masalan: Poyi Kalon majmuasida, majmuaning asosiy elementlari: Kalon masjidi, Kalon minorasi, Miri Arab madrasasi, Amir Olimxon madrasasi).

2. Ikkinchi darajali elementlar (masalan, guzar masjidlari, turar joylar va boshqalar).

Umumiy holda, majmua elementlarining bir qancha toifalari bo'lishi mumkin. Har bir arxitektura yodgorliklari majmuasida asosiy elementlar yoki ikkinchi darajalisi, asosiysini to'ldiruvchi elementlar bo'ladi.

Binobarin, arxitektura yodgorliklari majmuasi faqat asosiy elementlar bilangina emas, balki hamma tarixiy atrof qurilishlar bilan qo'shib, ikkinchi darajali elementlar bilan xarakterlanadi.

Majmuaning saqlanganligini, majmuaning asosiy va ikkinchi darajali elementlari, uning tarixiy rejasida bir butun yaxlitligining saqlanganligiga bog'liq holda shartli baholash mumkin.

Shunday qilib, muhofaza hududlarini yaratishda, dastlab, alohida turgan yodgorliklarni, uning majmualarini keyin birgalikda muhofaza hududlarini yaratuvchi yodgorliklar majmualari guruhini aniqlash lozim.

O'zbekiston arxitektura yodgorliklari va ularni o'rab turgan qurilishlarning xususiyati va qiymati toifalar bo'yicha ularni tasniflash o'tkazildi:

I – yodgorliklar sifatida muhofazaga olinishi lozim bo'lgan:

- shaharsozlik majmuasi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan inshootlar (hajmiy va vertikal dominantlar, muhim shaharsozlik majmualari);

- me'moriy majmualarni tashkil qiluvchi, shahar me'moriy xususiyatini yaratishda muhim rol o'ynovchi binolar;

- yuqori me'moriy-badiiy sifatlarga ega bo'lgan rejalar, konstruksiyalar, materiallar, tarixiy qiymati jihatidan alohida qiziqarli kasb etuvchi inshootlar.

II – yodgorlik sifatida mahalliy muhofazaga loyiq bo'lgan:

- o'zining me'moriy badiiy sifatlari, rejaviy tuzilishlari, konstruksiyalar va shu kabi badiiy jihatidan qiziqishga ega bo'lgan inshootlar;
- mahalliy majmualar (ko'chalar, ikkinchi darajali maydonlar va shu kabilar) tashkil bo'lishida muhim rol o'ynovchi binolar.

III – mahalliy me'moriy an'analar uchun xarakterli bo'lgan me'moriy-badiiy qiziqishga ega bo'lgan, Buxoro va Xiva qurilishlariga xos koloritni yaratuvchi binolar.

IV – me'moriy jihatdan neytral, (o'rtamiyona) bo'lsa ham, o'zining masshtabliligi, tektonik sifatlari, devorlar ashyosi, qurilish konstruktiv uslublari bilan yodgorliklar uchun munosib bo'lgan muhitni yaratuvchi binolar.

V – tarixiy muhitga muvofiq bo'lmagan, yodgorliklarga zarar yetkazuvchilarni tomosha qilish sharoitini yomonlashtiruvchi bino va inshootlar; yodgorliklar qiyofasini buzuvchi taqab solingan yoki ustiga qurilgan qurilmalar.

Inshootlarning u yoki bu toifaga tegishliligi uni muhofaza qilish va ta'mirlash darajasi, qayta tiklash imkoniyatlari va foydalanish xususiyatlari jihatidan munosabatlarini quyidagicha belgilaydi:

I - yodgorlik-binolarida. Ta'mirlash, tiklash va konservasiya ishlari, muhandislik jihozlash ishlari olib borishga va binolarni zamonaviy vazifalar uchun moslashtirishga ruhsat etiladi. Bunda ularga taqab yoki ustiga qurilmalar qurish bilan yodgorliklarning me'moriy qiyofasini buzish, fasadlarning me'moriy bezaklarini o'zgartirish, yangi o'tish joylari yoki teshiklar ochish, hamda konstruksiyalarni o'zgartirishga ruxsat etilmaydi.

Asosan shaharsozlik qiymatiga ega, interyerni, ichki rejaviy yechimi, konstruktiv usullari hech qanday qiymatga ega bo'lmagan arxitektura yodgorliklarda, qayta rejalashtirish bilan ichki qayta tiklash va qayta jihozlash ishlarini bajarish mumkin.

II – yodgorliklarni buzish emas, ammo ularning me'moriy qiyofasini va rejaviy tuzilishini buzmaganda tuzatish, tiklash, konservasiya, ta'mir ishlari va foydalanishga moslashtirish nijenerlik jihozlash ishlarini olib borishga ruxsat etiladi. Bu yerda binoning yangi vazifasi uchun zarur bo'lgan qurilmalarni amalga oshirish mumkin, faqat ularni yodgorlik qiyofasini buzmaganda hovli tomonda joylashtirish maqsadga muvofiqdir.

III-yodgorlikning tarixiy-badiiy qiymatini oshiruvchi fazilatlarini saqlagan holda ichki xonalarni qayta rejalashtirish qayta tiklash tadbirlariga ruxsat etiladi.

Bunday binolarni tiklash, ta'mirlash ishlarini o'z vaqtida bajarish zarur, ularni iloji boricha buzmaslik kerak.

IV-neytral qurilishlar bilan almashtirilishi yoki uni o'zgartirishda obyekt joylashgan hududni rejim shartlaridan kelib chiqqan tartiblar asosida ishlash zarur bo'ladi.

V-tarixiy shahar markazlarining me'moriy qiyofasini buzuvchi binolar imkon darajasida buzib tashlanishi yoki qayta qurilishi kerak.

Arxitektura yodgorliklarining O'zbekiston tarixiy shaharlarida joylashishi shaharsozlik tahlili, ularning vazifasini aniqlash uchun zamin yaratadi va qator masalalarni hal etishni talab etadi, jumladan:

- yodgorliklarni shahar strukturasi joylashish qonunini va ular shaharsozlik ahamiyatini aniqlash;
- yodgorlikning rejaviy tuzilishi xususiyatlarini aniqlash;
- eski va yangi obyekt obrazi orasidagi bog'lanish.

Tahlil natijasida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

- yodgorliklarni ta'mirlash, moslashtirish ishlari kompleks ravishda amalga oshirilishi kerak. Yodgorliklarni moslashtirilgandan keyingi maxsus loyiha atrofidagi maydonni obodonlashtirish, obyektning ko'rinishi buzilishi yoki o'zgarishiga olib keladi;

- foydalanishga moslashtirish ishlari yodgorlikka tutashgan tarixiy maydonni, imkon qadar, uning butun muhofaza hududini o'z ichiga olishi kerak, bu esa uning atrof muhit bilan badiiy, tarixiy, va funksional aloqasini idrok qilish imkonini beradi. Bu dolzarb muammoni hal qilishda, O'zbekistonning tarixiy shaharlarida muhofaza hududlarini tashkil etishda qo'llanilgan sistemali yondoshuv qo'l keladi, inshootlar va ularning struktura elementlarini tashkil qiluvchi asosiy omillar aniqlanadi;

- arxitektor faqatgina yodgorliklarni emas, balki mustaqil tarixiy qiymatga ega bo'lmagan bir-ikki qavatli qurilishlarni ham muhofazaga olish zurligiga ahamiyatni qaratadilar. Bu omillarga layoqatlik, qator shaharlarga katta ziyon keltiradi;

- yodgorliklarning asosiy belgilari tasniflanadi, ularsiz yodgorlikning muhofaza hududlarini va yodgorlik majmualari zonalarini hal etishga kirishishi mumkin emas. Bu ishlar «majmualar zonalarini» tushunchasini belgilab beradi, ularsiz Markaziy Osiyo shaharlarining tarixiy markazlarini tiklash masalasini to'g'ri hal qilish mumkin emas;

- O'zbekiston shaharlarida bajarilgan ishlar natijalari sarhisob qilingan, bu natijalar ushbu ishda bayon etilgan mezon va talablarni aniqlash mumkin bo'lgan tadqiqot ishlaridan iboratdir;

- madaniyat yodgorliklarini ta'mirlash, qayta tiklash va ekspluatasiya qilishga kompleks va sistemali yondashuv taklif etiladi;

- arxitektura yodgorliklari yangi kiritilgan elementlarsiz, tarixiy atrof muhit taassurotlariga ega bo'ladi. Shuning uchun muhofaza hududi chegarasi asosiy yodgorlikdan ma'lum masofada o'tgan bo'lishi kerak, yangi qurilishlar arxitektura yodgorliklariga juda yaqin bo'lmasligi zarur. Iloji boricha yodgorlikning tarixiy muhitini saqlash maqsadga muvofiq. Tarixiy atrof muhitning mavjudligi kuzatuvchi uchun psixologik ahamiyatga ega. Asosiy yodgorlikni yaxshi tomosha qilish mumkin bo'lgan nuqtalarni aniqlash, shuningdek yodgorlikka olib boruvchi asosiy yo'nalishni hal etish zarur. Bu yerda "ko'rish nuqtalari" ni tanlash katta rol o'ynaydi. Bundan tashqari, yodgorlik va shahar maydonlarini ko'rish va tomosha qilish faqat kunduzgi emas, kechki sun'iy va dekorativ yoritilishda ham nazarda tutilishi kerak;

Muhofaza hududi o'lchovlari quyidagi ravishda aniqlanadi:

- yodgorlik masshtabi;
- turli nuqtalardan ko'rinishi;
- tarixiy fonning xususiyati va saqlanganligi;
- atrofdagi qurilishlar qiymati.

Muhofaza hududlari o'lchovlari va shakllarini aniqlovchi asosiy talablar quyidagilardan iborat:

a) yodgorliklarni yaxshi tomosha qilish imkoniyatini beruvchi asosiy ko'rish nuqtalarini muhofaza hududlariga kiritish;

b) o'z me'moriy-badiiy kompozision va tabiiy sifatlari bilan shaharsozlik ahamiyatiga ega bo'lgan arxitektura yodgorliklari va tarixiy-me'moriy majmualar uchun uzoqlashuvini ko'rish nuqtalari va umumiy ko'rish sektorlarini muhofaza hududlariga kiritish;

v) muhofaza hududiga arxitektura yodgorliklari uchun tarixiy va masshtab fonini yaratuvchi qurilishlarni kiritish;

g) yaqin oraliqda joylashgan arxitektura yodgorliklari bilan me'moriy fazoviy aloqani ta'minlash imkoniyati.

Arxitektura yodgorliklari muhofaza hududlarida yangi qurilishlar ta'qiqlanadi va hududdan foydalanish masalalari (obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish, vaqtinchalik binolarni joylashtirish va boshqalar) yodgorliklarni saqlash va ekspozitsiya uchun qulay sharoit yaratishni hisobga olgan holda hal etiladi va

arxitektura yodgorliklarini saqlash davlat tashkilotlari bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi. Muhofaza hududlarida, yodgorlikni buzuvchi va uni ko'rishga xalaqit beruvchi, shuningdek hech qanday qiymatga ega bo'lmagan eski binolar buzib tashlanadi.

Arxitektura yodgorliklarini saqlovchi muhofaza hududlarining tarixan shakllangan hududlarini uch toifaga bo'lish mumkin:

I - yaxlit shaharsozlik tuzilishini tashkil qiluvchi saqlanib qolgan madaniyat yodgorliklariga ega bo'lgan majmualar hududi.

II - o'rab turgan qurilishlar bilan qo'shib ketgan va tarixiy shaharsozlik, badiiy, etnografik jihatdan qiymatga ega bo'lgan alohida madaniyat yodgorliklarini o'z ichiga olgan majmualar hududlari.

III - alohida me'moriy va madaniy yodgorliklarning muhofaza zonalari hududlari.

O'zbekiston Respublikasining tarixan shakllangan shaharlari sharoitlarida madaniyat yodgorliklarini qayta tiklash, muhofaza qilish va ta'mirlash, zamonaviy qurilish va transport harakatini rivojlantirish kabi masalalarni alohida hal qilish mumkin emas. Me'moriy merosni uning hamma ko'p qirrali ko'rinishlari va shakllarida zamonaviy shaharsozlik muammolaridan ajratib qo'yish, faqat madaniy merosni saqlashga emas, shaharning hayotiy muhitiga ham salbiy ta'sir etadi.

Hozirgi vaqtda tarixiy shaharlarning markaziy qismini qayta tiklash jarayonida tarixan shakllangan yalpi qurilishni umumiy muhitini saqlash masalasi birinchi o'rinda turgan asosiy vazifadir.

Turar joy binolarining tarixiy hududlarda joylashish rejasining ko'p qirraliligi, tarixiy me'moriy majmualar bilan aloqadorligi, shuningdek qiymat darajasi bilan ularning rejaviy tuzilishi va qurilishi muhofaza tadbirlarining uch asosiy nuqtai nazarlaridan o'rin olishi mumkin:

- yodgorliklarning funksional mazmunini aniqlash va badiiy sifatini yaxshilash sharti bilan guzarlar va ko'chalarni o'z ko'rinishida saqlash;

- alohida me'moriy rejalashtirilgan majmualarini, to'liq joyning memorial ahamiyatini hisobga olgan holda, ularning to'liq me'moriy yechimida tiklash va ta'mirlash;

- eng ilg'or ijtimoiy va shaharsozlik konsepsiyalari asosida amalga oshirilgan, tarixiy qiymatga ega bo'lgan qurilishlarni o'zida saqlagan butun hudud qismlarini.

Shahar markaziy qismini rejali ravishda o'zgartirish maqsadida hududni shaharsozlik qayta tiklashi uchun maxsus zonalashtirishni o'tkazish favqulodda muhimdir.

Shahar tarixiy markazi rivojini belgilovchi asosiy omillar qatoriga quyidagilar kiradi:

a) **ijtimoiy**: umumshahar markaz qismining rivojlanish saviyasi va "doimiy" aholi zichligi darajasi; aholi strukturasi va yashash qulayligi; joylashish xususiyatlari; madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish darajasi; sanitar-gigiyenik ko'rsatkichlar.

b) **shaharsozlik**: shahar zamonaviy strukturasi rayonlar o'rni va ahamiyati; fond va hududlardan funksional foydalanish; tabiiy va rejalashtirish vaziyati xususiyatlari; atrof muhit bilan rejalashtirish va transport aloqalari; shaharsozlik kompozitsiyalarining tugallanganligi; me'morchilik va tabiatning o'zaro aloqasi.

v) **tarixiy-me'moriy**: rejalashtirish va qurilish qiymati; shahar tarixiy va zamonaviy qiyofasining shakllanishida me'moriy majmualar va yodgorliklarning ahamiyati.

g) **iqtisodiy**: maydondan foydalanish samaradorligi, turar joy qurilishlari eski rayonlarining iqtisodiy-texnik ko'rsatkichlari; turar joy va jamoat fondi, obodonlashtirish, injenerlik jihozlanish ahvoli va qiymati.

Bu ko'rsatkichlarning bosh rejasi yakunlanish muddati vaqtida va kelajakda o'zgarishi, albatta, hal qiluvchi ahamiyatga ega. Qayta tiklash tartibi hududlarning rivojlanish o'sishiga va shaharsozlik holatiga bog'liq ravishda qayta tiklash tadbirlarning o'tkazilish imkoniyatiga muvofiq o'rnatiladi.

Tarixiy shaharlarning shaharsozlik strukturasi keltirgan mezonlar majmuasini hisobga olgan holda tahlil qilish shahar rejasida zonalar ni obyektiv ajratish va ular chegarasini aniqlashga yetarlicha imkoniyat yaratadi.

Saroylar, arxitektura yodgorliklari maydonlari va xokazolarni obodonlashtirishda ularning tantanavorligi va ulug'vorligiga ahamiyat berish zarur. Ushbu arxitektura yodgorliklari atrofida odatda xiyobon yoki bog'lar barpo etiladi. Tantanali, parter qismi odatiy uslubda bajarilgan bardyurlar, alohida ajratilgan yo'lklar va gulzorlar, sharsimon daraxtlar, gazonlar fonidagi yorqin gulzorlar shaklida ko'kalamzorlashtiriladi. Qolgan qismi esa osoyishtalik muhitini yaratuvchi qator joylashgan uzun tanali chaylasimon daraxtlar bilan obodonlashtirilgan.

Ko'kalamzorlashtirish bo'yicha alohida qoidalar har qanday me'moriy inshootni ko'kalamzorlashtirish ishida amal qilish zarur bo'lgan qurilish me'yorlari va qoidalari (QMQ) bor. Aytaylik, daraxtlarning oldi qatori, butalar va me'moriy

inshootlar poydevorlari orasidagi masofani hisobga olish zarur bo'ladi. Negaki, o'simliklar ildizlari bino poydevorini zaiflashtiradi. Yo'l va yo'lkalalar qoplamasini qo'porib yuboradi (chinor, oq akasiya, qora terak va boshqalar).

Buxorodagi Labi Hovuz me'moriy majmua atrofida quyidagi daraxtlar o'sgan: oq akasiya, tut, yapon saforasi, yashil shumtol, ularning ildizlari bino poydevorini yemiradi, yo'lka va yo'llar qoplamini qo'poradi. Ushbu majmua maydoniga yapon saforasi, tut, turanga (terak), ko'k terak, oq majnuntol singari manzarali daraxtlar ekish tavsiya etiladi. Buxorodagi Nakshbandi nomli hiyobonni qayta tiklashda mahalliy o'simliklar turlarini, shuningdek, ekzotik, introduksiyalangan (boshqa joydan ko'chirib keltirilgan) o'simliklarni o'tqazish mumkin: maxalliy o'simliklar-turanga, ko'kterak, uzun tanali tut, majnuntol, jiyda; introduksiyalangan (keltirilgan) - yapon saforasi, katta aylangi, sovun daraxti, ipak akasiyasi, dala zarangi; butalar: gibrid gibiskusi, egik forzisiya, qora buta, choy-gibridli, pernesion, floribunda va poliant atirgullar.

Tarixiy shahar markazlarini qayta tiklash, arxitektura yodgorliklari va majmualarni tiklashda ko'pincha e'tibordan chetda qoladigan, tashqi obodonlashtirish elementlaridan biri yo'l va yo'laklar qoplamasidir. Yo'lkalalar uchun toshlardan foydalanish qulay hisoblanadi. Tabiiy toshlar, yotqizilgan yo'lkalalar uzoq vaqt saqlanadi. U tarixiy topografiyani tabiat kuchlari ta'siridan va kishilarning ommaviy kelib-ketishlaridan piyoda yo'llarida paydo bo'ladigan yemirilish va zararlardan saqlaydi.

So'nggi yillarda tarixiy yodgorliklarga boy bo'lgan shaharlarga kelib-ketuvchi sayyohlar, ziyoratchilar ko'paymoqda, shuning uchun obodonlashtirish elementlarini kiritish yodgorliklar va qadimiy landshaftni umumiylikda saqlanishi uchun katta ahamiyatga ega.

Diqqatga molik tarix va san'at yodgorliklariga ega bo'lgan shaharlarni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish, loyiha xujjatlarini ishlab chiqishning barcha pog'onalarida shaharlar bosh rejalari, yodgorliklarni tiklash loyihasidan boshlab, o'simliklar navlarini tanlash va rejaviy chizmalarga qadar, hisobga olinishi lozim bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Tarixiy-me'moriy yodgorliklar hududlarini ko'kalamzorlashtirish xarakteri ularning funksional, kompozision va uslubiy xususiyatlariga mos kelishi shart.

Ko'chalarni ko'kalamzorlashtirishning an'anaviy usullari ko'pincha, tarixiy qurilmalar ekspozitsiyasini hisobga olib shakllantirilishi lozim. Tarixiy hududlarni obodonlashtirish katta ahamiyatga ega. Masalan, nuragan (vayron bo'lgan) yodgorliklar poydevorini tiklash, uni 50-60 sm ko'tarish va atrofiga daraxt, ko'chatlar o'tkazish, qulay va yaxshi kuzatuv nuqtalari bilan ta'minlash mumkin. Tarixiy qiymatga ega bo'lgan shaharlarda piyodalarning qulay va xavfsiz transportlar

qatnovini (qo'riqxonalar hududida) ta'minlash ishi, tarixiy shahar markazlarida shahar qurilishini loyihalashtirishning asosiy va muhim bosh masalalaridan biriga kiradi.

Tarixiy majmuani saqlab qolish uchun tarixiy obidalar joylashgan ko'chalarda avtotransport qatnovini to'xtatish, piyodalar qatnovi joyida avtomobil to'xtash joylari va ommaviy transport bekatlari joylashtirilishi shart. Sayyohlarni shaharning tarixiy joylariga yetkazish uchun va sayrni yanada qiziqarli qilish uchun Buxoro shahrining tarixiy muhitiga zarar yetkazmaydigan, yengil transport turini tiklash kerak.

Buxoro shahrining markaziy qismini alohida rejalashtirish loyihasini ishlab chiqilganda, eski shahar qismini maksimal darajada o'zida jamlagan tarixiy zona va bu zona bilan uzviy bog'langan zamonaviy shahar tuzilishidagi shaharsozlik dominantini yuzaga keltirish nazarda tutilgan edi. Tarixiy shahar markazni qayta tiklash yo'llari, xalq me'morchiligi madaniyatini saqlash usullari aniqlangan edi. Har bir arxitektura yodgorliklarini shartli moslashtirish variantlari taklif etildi va sayyohlarni Buxoro va uning yaqinidagi tarixiy-madaniy yodgorliklar bilan tanishtirish imkonini beruvchi asosiy sayyohlik yo'nalishlari sobiq "UzNIPI restavrasiya" instituti tomonidan ishlab chiqilgan.

Tarixiy shahar markazlarni qayta tiklashning zamonaviy yo'nalishi kam qiymatli qurilishlarga ega bo'lgan rezerv hududlardan foydalanishni ko'zlaydi, chunki katta maydonlarni konservasiyalash (o'z holicha saqlash) bunday shahar chekkasida yangi qurilish olib borishni taqozo etadi. Bu shahar markazlari chegarasini kengaytiradi, transport harakati yo'llari va muhandislik tarmoqlarini uzaytiradi. Shuning uchun ma'lum me'yorlarga javob beradigan va obyektlarni kuzatish uchun qulay sharoitlar yarata oladigan, qo'riqxonalar chegaralarini aniqlash taklif etiladi.

Buxoro shahri markaziy qismi bosh rejasini aniqlashda asosiy sayyohlik yo'nalishlari sxemasi ishlab chiqilgan. Ular ta'mir va konservasiyaga muhtoj bo'lgan qimmatbaho arxitektura yodgorliklarini o'z ichiga olgan qo'riqxonalarining aniq chegaralarini belgilab beradi.

O'zbekiston tarixiy shaharlaridagi me'moriy yodgorliklarni foydalanishga moslashtirishni loyihalashda muhofaza hududlarini tashkil etish usullari va tamoyillari hali yetarlicha ishlab chiqilmagan, chunki O'zbekistonda me'morchilik yodgorliklari va ularning majmualari arxitekturasiidagi xususiyatlar boshqa mintaqalarga nisbatan muhofaza hududlarini tashkil qilishda o'ziga xos yondoshuvni talab etadi.

Shunday qilib, muhofaza hududlarini tashkil etishda eng avvalo alohida turgan yodgorliklarni, ularning ansambllarini, keyin ansambllar majmuasini yoki



yodgorliklar majmualari guruhlarini aniqlash zarur, shular bilan birgalikda tarixiy shaharlarda muhofaza hududlarini yuzaga keltiradi.

### **Takrorlash uchun savollar.**

1. Yodgorliklarning muhofaza hududlari loyihasini tuzishda nimalarga e'tibor berish kerak?
2. Shaharsozlikda muhofaza hududlarining uslubiy asoslari nimalardan iborat?
3. Tarixiy shahar markazlarini qayta tiklashda nimalar e'tiborda bo'lishi lozim?

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O.M.Salimov. Magistrlik dissertasiyasini yozish bo'yicha uslubiy qo'llanma. T., 2003. 24 bet.
2. X.Sh.Po'latov, A.S.Urolov. Arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash va qayta qurish. O'quv qo'llanma. T., 2002. 85 bet.
3. A.M.Salimov. Osnovnie prinsipi rekonstrukcii istoricheskix kompleksov gorodov Uzbekistana. Metodicheskie ukazaniya. T., 1994. 18 str.

## **ME'YORIY XUJJATLAR**

# **MADANIY MEROS OBYEKTLARINIDA VLAT TOMONIDAN MUHOFAZA QILISH**

## **Madaniy meros obyektlarining davlat tomonidan muhofaza qilinishini ta'minlash. (10-modda)**

Madaniy meros obyektlarini davlat tomonidan muhofaza qilish bu madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasida davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi organlar tomonidan ko'riladigan huquqiy, tashkiliy, moliyaviy, axborotga doir, moddiy-texnikaviy va boshqa chora-tadbirlar tizimidir.

Madaniy meros obyektlarini davlat tomonidan muhofaza qilish:

- tarixiy-madaniy qimmatga ega bo'lgan obyektlarni davlat hisobiga olish hamda Moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastrini va Nomoddiy madaniy meros obyektlarining ro'yxatini yuritish;
- madaniy meros obyektlarining ilmiy vailmiy-texnik tadqiq etilishini rivojlantirish;
- madaniy meros obyektlarini tarixiy-madaniy ekspertizadan o'tkazish;
- moddiy madaniy meros obyektlari muhofaza tegralarining loyihalarini ishlab chiqish;

- moddiy madaniy meros obyektlari joylashgan yerlarda yerqazish, yertuzish, qurilish, meliorasiya, xo'jalik ishlari vaboshqaishlarni, moddiy madaniy meros obyektlarini asrash bo'yicha ishlarni o'tkazish, shuningdek moddiy madaniy meros obyektlarida ilmiy vailmiy-texnik
- alohida tartibga solinishi lozim bo'lgan va moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish bilan bog'liq shaharsozlik faoliyati obyektlarining chegaralarini belgilash;
- moddiy madaniy meros obyektlarida muhofaza belgilarini o'rnatish;
- madaniy meros obyektlari holatining monitoringini amalga oshirish.
- tadqiqotlar o'tkazish uchun ruxsatnomalar berish;

Madaniy meros obyektlarini davlat tomonidan muhofaza qilish qonun hujjatlariga muvofiq boshqa chora-tadbirlar orqali ham ta'minlanishi mumkin.

### **Moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastri va Nomoddiy madaniy meros obyektlarining ro'yxati.( 11-modda)**

Moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastri Davlat kadastrlari yagona tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi hamda u moddiy madaniy meros obyektlarining geografik joylashuvi, huquqiy maqomi, miqdor, sifat tavsiflari va bahosi to'g'risidagi yangilanib turiladigan ma'lumotlar va hujjatlar tizimidan iborat bo'ladi.

Moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastrini yuritishga quyidagilar kiradi:

- moddiy madaniy meros obyektlariga doir mulk huquqivaboshqahuquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish;
- moddiy madaniy meros obyektlarining miqdor vasifat tavsiflarini hisobga olish;
- moddiy madaniy meros obyektlarini sifat vaqiymat jihatidan baholash;
- kadastr axborotini tizimga solish, saqlash vayangilab borish;
- moddiy madaniy meros obyektlarining holati haqida hisobotlar tuzish;
- Davlat kadastrlari yagona tizimiga kiritish uchun tegishli axborot taqdim etish;
- foydalanuvchilarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kadastr axboroti bilan ta'minlash.

**O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISHGA INNOVASION YONDASHUV**  
**“O'zbekistonning tarixiy shaharlarida muhofaza hududlarini tashkil etish usullari” mavzusi bo'yicha**

**KEYS - TEXNOLOGIYA**

**I. KEYS**

*“Tarixiy hududlarini tashkil qilish vazifasi, shahar me'moriy qiyofasining o'ziga xosligi, strukturasi va siluetini saqlash yangi qurilish va tarixan shakllangan shahar muhiti uyg'unlikdagi birligini yaratishdan iboratdir. Xo'sh arxitektura yodgorliklarini saqlash uchun va uning atrof muhit bilan va shahar zamonaviy majmuasi bilan rejaviy yechim aloqalarini mustahkamlash uchun nimalarga e'tibor berish kerak?”*

**1. Keysning maqsadi:**

**Keysning ta'lim maqsadi:**

Magistrantlarga keyingi faoliyatida arxitektura yodgorliklarining O'zbekiston tarixiy shaharlarida joylashishi shaharsozlik tahlili, ularning vazifasini aniqlash oid tushunchalar va ko'nikmalarni berish.

**Rejalashtirilgan o'quv natijalari:**

Magistrantlarga O'rta Osiyo arxitekturasining Temuriylar davri me'morchiligining o'ziga xos xususiyatlarini ochib beradilar.

**2. Magistrantlar keysni muvaffaqiyatli yechishlari uchun quyidagi tayanch bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim:**

a) Yodgorliklarni shahar strukturasi joylashish qonunini va ular shaharsozlik ahamiyatini aniqlash.

b) Yodgorlikning rejaviy tuzilishi xususiyatlarini aniqlash o'rganib chiqish;

v) Eski va yangi obyekt obrazi orasidagi bog'lanish;

g) Tahlil natijasida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin.

**3. Keysning tipologik belgilari:**

Ushbu keys kabinetli keyslar turkumiga mansub: u hujjatlar ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Keys syujetsiz, keysdagi holat hozirgi zamonga to'g'ri keladi. (Dalali keysga aylantirib uni syujetli ham qilish mumkin).

Keys obyekti: Tarixiy shahar arxitekturasini muhofazo hududlarini tashkil etish. Tarixiy obidalar va ularga oid filmlar va slaydlar

Keys o'rtacha miqdordagi, strukturalashgan. O'quv topshiriqni keys-savolli va topshiriq yordamida tasvirlanadi.

Keysning didaktik maqsadi magistrantlarga tarixiy shahar me'morligi hamda bugungi davrlar orasidagi farqlarni solishtirish, ularning foydali tomonlarini o'zlashtirish, tahlil qilish hamda o'z ijodiy faoliyatiga qo'llash va yechish, boshqaruvchanlik qarorlarini qabul qilishga o'rgatishdan iborat.

**4. Keys uchun axborot yig'ish yo'llari:** muloqat, hujjatlarni o'rganish, Tarixiy obidalarga sayohat.

**5. Axborot yig'ish vositalari:** hujjatlar, ma'lumotnomalar, filmlar.

**6. Axborot manbalari:** Shaharsozlik tarixi, tarixiy obidalar, va boshqalar.

**Kirish.** Yuz yillar davomida asosan XX asrda piyodalar yo'llari negizida shakllangan tarixiy markazlar avtomobil transportiga (ko'p hollarda katta tezlikli harakatdagi) moslashtirilgan.

Tarixiy va me'moriy jihatdan qimmatli binolar turar joylarning zamonaviy talablariga javob bera olmaganligidan va markazning madaniy-maishiy hamda ma'muriy vazifalarining o'sishi bilan bog'liq holda zamonaviy, odatdagidek shakllangan majmualarni buzuvchi binolarga joy bo'shatib berishga majbur bo'lgan.

**Vaziyat:** Tarixiy hududlarni tashkil qilish vazifasi tarixiy yadro markaziy qismi me'moriy qiyofasining tuzilishi, umumiy ko'rinishi va o'ziga xosligini saqlash, tarixan shakllangan shahar muhitining uyg'unlashgan birligini yaratishdan iboratdir.


**Muammo** shundan iboratki, muhofaza hududlari, qurilishlarni tartibga solish zonalarini tashkil qilish, yodgorliklar va majmualarni moslashtirish va arxitektura yodgorliklaridan foydalanish klassifikatsiyasini ishlab chiqish qoidalarini tadqiq qilish.

**Topshiriq:** O'zbekiston tarixiy shaharlarining qo'riqxonalarida majmualar va yodgorliklar muhofaza hududlarini tashkil etish qoidalarini aniqlashtirish.

## **1-BOB BO'YICHA O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISHGA INNOVASION YONDASHUV**

### **Yodgorlikdan samarali foydalanishda eski vazifasidan yangi vazifaga utkazish sxemasi**

# ARXITEKTURA YODGORLIKLARIDAN ZAMONAVIY SHAHAR TUZILISHIDA FOYDALANISH SXEMASI



## II-BOB. MUHOFAZA HUDUDLARIDA QO'RIQXONALARNI TASHKIL ETISH USULLARI

---

---

### 2.1. Shaharsozlikda qo'riqxonalarni tashkil etish tamoyillari

#### **REJA:**

1. Shaharsozlikda qo'riqxonalarni tashkil etish tamoyillari.
2. Shahar rejaviy tuzilishini, uning tashkil bo'lganligini tarixiy jarayonida o'rganish va tahlil qilish.
3. Ko'rish nuqtalari va yo'nalishlaridan idrok etishni hisobga olgan holda shahar majmuasi vertikal tuzilishini tahlil qilish.
4. Shahar majmuasining me'moriy-fazoviy tuzilish tahlili.

#### **Annotasiya**

*Ushbu mavzuda, muhofaza hududlarida qo'riqxonalarni tashkil etish usullarini hamda qo'riqxonalar loyihasini yaratishda arxitektura yodgorliklarini, ular atrofidagi ko'cha yoki boshi berk ko'chalar tarkibini saqlash bilan bog'liq bir qator murakkab masalalarni hal etishni, turli xil shaharsozlik tuzilmalarini, ularni qayta tiklashni, obodonlashtirish va sayyohlik maqsadlarida qo'llanish masalasi yoritilgan.*

#### **TAYANCHIBORALAR**

*Muhofaza hududlari. Shahar rejaviy tuzilishi. Qo'riqxonalar. Me'moriy yodgorliklar. Majmua. Ark. Shahrison. Rabod. Me'moriy-fazoviy. Vertikal. Maydon. Kompleks. Tarixiy-me'moriy yodgorlik*

Muhofaza hududlarini tashkil etish mavzusidagi loyihaning asosiy vazifasi – O'zbekiston shaharlari tarixiy markazlarining tuzilishini, qiyofasini va arxitektura jihatidan o'ziga xosligi saqlab qolishdan va yangi qurilishlar bilan shaharning tarixan shakllangan muhitning uzviy bog'liqligini vujudga keltirishdan iborat.

Har bir aniq yodgorliklar majmuasini saqlab qolish, tevarak-atrof, hamda tarixiy shaharlarning zamonaviy ansambllar bilan loyihaviy rejalashtirilishi va mazmun jihatidan bog'liqligini mustahkamlash uchun tadqiqotlarni olib borishga alohida va yakka tartibga solishga doir loyiha takliflarining barcha xususiyatlarini hisobga olgan holda qo'riqxonalarni vujudga keltirish yo'llarini o'rganish talab etiladi.

**Qo'riqxonalar** – shahardagi imoratlarning va tabiiy muhitning bir qismini qamrab olib mavjud ko'plab yodgorliklarni va tarixiy ko'rinishini saqlab qolgan

imoratlarni umumiy bir rejali maqsad va arxitektura mazmuni doirasida birlashtirib turadi.



“ИЧАН КАЛЪА” УМУМИЙ МАНЗАРАСИ



“ИЧАН КАЛЪА”ДАГИ ТАРИХИЙ КУЧА. ХИВА



“ИЧАН КАЛЪА”ДАГИ КУЧА. ХИВА



КОЗИ КАЛОН МАДРАСАСИНИНГ МУСИКА МУЗЕЙИ ИНТЕРЬЕРИ



ЧОЙХОНАГА МОСЛАШТИРИЛГАН ЧАЙЛА

## ХИВАДАГИ “ИЧАН КАЛЪА” ТАРИХИЙ МЕЪМОРИЙ КУРИКХОНАСИНИНГ УМУМИЙ КУРИНИШЛАРИ

### 2.1.1-Rasm. Xivadagi “Ichan Qal'a” qo'riqxonasi.

Qo'riqxonalar har tomonlama, ya'ni kompleks tushunchadir – uning tarkibida turli tartibdagi maydonlar (qo'riqxonalar, qo'riqlanadigan va alohida tartibga solib turiladigan imoratlari bo'lgan hududlar), tabiiy muhiti qo'riqlanadigan va tartibga solib turiladigan hududlar bo'lishi mumkin. (2.1.1-Rasm).

Majmuiy (kompleks) qo'riqxonalarni belgilashdan maqsad shaharning butun tumanlardagi umumiy mazmuni g'oya doirasida tarixan shakllanib kelgan me'moriy - badiiy qiyofa va uyg'unlikni saqlab qolishdan iboratdir. Majmuiy qo'riqxonalar tartibi har yerda har xil bo'lib, o'z joyidagi talabga javob beradi, undan tashqari, majmuiy qo'riqxonalarda qayta tiklash va qurilish tadbirlariga nisbatan quyidagi umumiy talablar qo'yiladi:

- shahardagi qo'riqxonalar qamrab oladigan imoratlar uyg'unligini, ya'ni ansambllarni tarixan shakllangan me'moriy tuzilishi – kompozitsiyasini shu ansamblga oid qismlarning tuzilishiga aloqador bo'laklari, yo'nalishlari, ichki manzarasi, ochiq maydon, tik chiziqlari, naqshindor va o'zaro aloqalari va bir-biriga ta'siri bilan birgalikda asrab saqlash;

- shahar tumanlaridagi qo'riqxonalar qamrab oladigan imoratlardagi tarixan shakllangan milliy ruh va badiiy ifodaning me'moriy xususiyati, bezaklar va kichik shakllar jozibadorligi, tashqaridan tushadigan yorug'lik va hokazo saqlab qolish.

Qo'riqxonalar loyihasini yaratishda arxitektura yodgorliklarini, ular atrofidagi ko'cha yoki boshi berk ko'chalar tarkibi (tarmog'i)ni saqlash bilan bog'liq bir qator murakkab masalalarni hal etishni, turli xil shaharsozlik tuzilmalarini, ularni qayta tiklashni, obodonlashtirish va sayyohlik maqsadlarida qo'llanishni o'z ichiga olmog'i lozim. Bu g'oyat dolzarb masalalarni hal etish loyiha ijrochisidan chuqur tadqiqotlarni va loyiha yechimlarini amalga oshirishni talab qiladi.

Arxitektura yodgorliklari, imoratlarning uyg'un birligi (ansambli), majmua, tarixiy markazlar, maydonlar, ko'chalar, dahalar, arxeologiya yodgorliklari, shahar hamda boshqa kentlarning qadimiy tarxlari va binolarining qoldiqlari; uy-joy va diniy marosimlar bilan bog'liq bo'lgan me'morchiligi, xalq uysozligi inshootlari, hamda shular bilan bog'liq amaliy naqqoshlik, bog'lar va sayilgohlarni bezash san'ati, tabiiy muhit – bularning barchasi shaharsozlik yodgorliklari qatoriga kiradi.


Arxitektura obidalarini, imoratlarning uyg'un birligi (ansambli), majmua, tarixiy markazlar, maydonlar, ko'chalar, dahalar, arxeologiya yodgorliklari, shahar hamda boshqa kentlarning qadimiy tarxlari va binolarining qoldiqlari; uy-joy va diniy marosimlar bilan bog'liq bo'lgan me'morchiligi, xalq uysozligi inshootlari, hamda shular bilan bog'liq amaliy naqqoshlik, bog'lar va sayilgohlarni bezash san'ati, tabiiy muhit – bularning barchasi shaharsozlik yodgorliklari jumlasiga kiradi.

Samarqanddagi Registon maydonida ko'p qavatli turar joy va jamoat binolari yodgorliklarni idrok qilishga xalaqit beradi, ular mavjud bo'lgan yodgorliklar bilan hech qanday badiiy kompozitsion belgilar bilan bog'lanmagan.(2.1.2-Rasm).






РЕГИСТОН АНСАМБЛИ XVII-аср.



ТОШКЕНТ КУЧАЛАРИ РЕКОНСТРУКЦИЯ



САМАРКАНД ТАРИХИЙ АРХИТЕКТУРА ЁДГОРЛИКЛАРИ

ХУДУД СХЕМАСИ (УЭНИПИ РЕСТАВРАЦИЯ -1981 й.)

## САМАРКАНД ТАРИХИЙ КИСМИНИ ТАЪМИРЛАШ.

### 2.1.2-Rasm.Samarqanddagi Registon maydoni.

Samarqanddagi Ishratxona maqbarasi ahvoli bundan ham murakkab. Maqbara joylashgan hudud uzoq o'tmishda shaharning eng chiroyli maskanlaridan biri bo'lgan, chunki uning atrofida xiyobonlar, "hovuz", gulzorli bog' bo'lgan. Hozirgi vaqtda maqbara atrofida betartib bo'lib, atroflarida turar joy binolari paydo bo'lgan, bu esa uning qayta tiklanishini qiyinlashtiradi. Bu joyda tezlik bilan ixtiyoriy qurilishlarni ta'qiqlash va nafaqat bu yodgorlik atrofida, balki boshqa yodgorliklar atrofida ham muhofaza hududlari, shuningdek yodgorliklarning badiiy ko'rinishini himoyalash hududlarini tashkil etish, maqbaraning umrboqiyiligini ta'minlash, ulardan zamonaviy maqsadlarda foydalanish bo'yicha muhandislik-texnik choralarni ishlab chiqish zarur.

Bu kabi binolar Buxoroda juda ko'p. Masalan, Ismoil Somoniy va Chashma-Ayub maqbaralari. Hozirgi vaqtda umumiy majmua yechimiga to'g'ri yondoshuv natijasida, ular istirohat bog'i tuzilishiga uzviy kiritildi.(...).

Buxorodagi yodgorliklar va ularning muhofaza hududlarini hozirgi ahvolini tahlil qilib, quyidagini aytish mumkin: ma'lumki, Buxoro XX asr boshigacha qadimgi shahar qiyofasini to'la saqlagan. Hozirgi kunda Buxoro, hamma davrlardagi (IX asrdan boshlab XX asrgacha) arxitektura yodgorliklarini o'z ichiga olgan va katta hududda qadimiy rejaviy tuzilishi yaxlitligini saqlab qolgan noyob ko'p qatlamli majmuani tashkil qiladi.

Markazning tarixiy yadrosi shahar rejaviy asosini tashkil qiladi: tarixiy tashkil topgan, butun markaz bo'ylab shimoliy-g'arbdan janubiy-sharqqa tomon o'tadigan savdo yo'llari. Ko'chalar, qadimiy maydonlar, majmua va komplekslarni, tarixiy-me'moriy yodgorliklarning asosiy bog'lovchi arteriyasi hisoblanadi, jumladan, Registon maydoni, Ark, Poyi Kalon majmuasi, Ulug'bek va Abdulazizxon madrasalari, savdo gumbazlari orqali Magoki-Attori masjidigacha Labi-hovuz majmuasining ilgarigi "Mox" bozori.

Ilgari paytlarda markaziy ko'chalar usti yopiq savdo ko'chalarini tashkil etardi. Ko'chalarda karvon-saroylar, bozor masjidilari, savdo rastalari va qatorlari bo'lgan edi. Hozirgi kunga kelib bu joylarda yodgorliklarning markaziy majmuasining butun tarixiy muhiti yo'q qilib yuborilgan. U o'z me'morchiligi bilan shaharga butunlay begona bo'lgan zamonaviy binolar bilan almashtirilgan va bularning ko'pi avariya holatida. Ularda maktablar, garajlar, kinoteatr, magazinlar, bog'cha va shu kabilar joylashgan. Shunday qilib, dunyo ahamiyatidagi yodgorliklarning noyob majmuasi xarobalar hamda bir-biriga mos tushmagan qurilmalar qurshovida qoldi, uning ko'rinishi ko'chalarning yangilanishidan zarar ko'rdi.

Shahar tarixiy yadrosini qiymat darajasi jihatidan kompleks tahlil qilinganda an'anaviy turar joy qurilishida shakllangan xalq me'morchiligi yodgorliklari aniqlanadi. Ularga: turar joy binolari, guzar masjidilari, karvon-saroylar, katta bo'lmagan masjid-madrasalar, maqbaralar, suv havzalari, hovuzlar, qal'a devorlari va tarixiy shaharsozlik madaniyatining boshqa elementlari kiradi. Bu yodgorliklarning hammasi planga tushirilgan va markazning hozirgi ko'rinishida bu tarixiy obyektlarning joylashganligi to'g'risida umumiy tasavvurga ega bo'lamiz.

Eski shahar markazi Labi-xovuz majmuasidan boshlanadi: savdo o'qi bo'ylab, savdo rastalari - gumbazlari orqali Naqshbandiy ko'chasi va Poyi-Kalon majmuasi yonidan Registon maydonigacha davom etgan. Shaharning eski qismida

mavjud bo'lgan, qachonlardir tarmoqlangan tuzilishiga ega bo'lgan, qadimgi irrigasiya va kanalizasiya tarmog'i hozirda deyarli yo'q bo'lib ketgan. Eski shaharni kengligi bo'ylab ikki teng bo'laklarga ajratuvchi Shoxrud kanali, shuningdek, 3 ta hovuzgina saqlanib qolgan; o'z vaqtida hovuzlar 100 ga yaqin bo'lib. ular ichimlik suvi rezervuari bo'lgan.

Har bir guzar o'z hovuziga, ba'zida esa o'z hammomiga ham ega bo'lgan. Ta'kidlash lozimki oxirgi o'n yillikda Buxoroda tartibsiz qurilgan va me'moriy-badiiy darajasi past bo'lgan ma'muriy-jamoat va madaniy vazifadagi binolar ko'payib ketdi. Bunda shahar tarixiy-me'moriy merosiga katta zarar yetkazildi.

Qadimiy mozorlar, me'moriy-tarixiy yodgorliklar o'rganilmay. buzib tashlandi, hammomlar, hovuz va ariqlar ko'mib tashlandi, bu esa ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan tarixiy shaharning silueti, qiyofasi va mikroklimatining yo'qolishiga olib keldi. Bundan tashqari tarixiy markazda va savdo ko'chalarida shahar transport magistrallari joylashtirildi, bu narsa yodgorliklarni turli o'zgarish va buzilishlardan himoya qilishni qiyinlashtiradi.

Shaxriston va "rabod" hududlari anchagina o'zgargan va me'moriy-badiiy, tarixiy qiymatga ega bo'lgan butun bir guzarlar guruhlaridan iborat bo'lsa ham turar joylarning ahvoli zamonaviy sanitar me'yorlariga javob bermaydi. Sababi, bu yerdagi turar joy binolarning umumiy ko'rinishlari gaz trubalari, elektr o'tkazgichlar va televizion antennalar bilan chulg'ab tashlangan, bu qurilishlar asosi butun bir hududni mayda mahallalarga bo'lib tashlagan tor, obodonlashtirilmagan ko'chalardan iborat. Eski shahar markazining (silueti) umumiy va tarixiy ko'rinishini (panoramasini) buzuvchi va yodgorliklarning me'moriy ahamiyatini yo'q qiluvchi mahalliy turdagi binolar shuningdek, fuqaro me'morchiligining ifodasiz kechki qurilishlari, yengil va oziq-ovqat sanoati korxonalari qurib tashlangan.

Tarixiy hudud atrofida xususiy turar joy binolari joylashtirilgan, taksomotor parki, turli ombor va bazalar uchastkalari bor. Hududlar obodonlashtirilmagan, ko'kalamzorlashtirilmagan va injenerlik kommunikasiyalari bilan yomon ta'minlangan.

Shaharning hududiy o'sishi bilan bir vaqtda maydalanib bo'linib ketishi tarixiy markazning ahamiyati va ifodaviyligini kamaytiradi, shuning uchun kichik hajmdagi obyektlarni juda ehtiyotkorlik bilan qurish kerak.

Buxoroda Kalon minorasi asosiy vertikal rolini o'ynaydi, minoraning me'moriy sifatlari shaharning umumiy ko'rinishiga (siluetiga) ta'sir etadi. Ma'lumki, Sharqning tarixiy shaharlari minora va gumbazlari shahar siluetida asosiy dominant bo'lib xizmat qiladi, chunki shaharning ko'p qismi tekisliklarda joylashgan.

Qayd qilish kerak, tarixiy shahar uchun, uning siluetini tiklash katta ahamiyatga ega. Shaharning tarixiy markazi majmuasi juda yaxshi ko'rinadigan asosiy, afzal va ta'sirchan ko'rish nuqtalari naturaviy (joyida o'tkaziladigan) tadqiqotlar yordamida aniqlanishi mumkin.

Siluetning ifodaviyligi eng ta'sirchan ko'rish nuqtalaridan idrok qilish imkoniyati orqali amalga oshiriladi. Masalan, Buxoro Arkida atrofdagi tarixiy muhitni kuzatish punktini joylashtirish mumkin, u yerdan eski shahar tuzilishini bir butunlikda qamrab olish imkoniyati bor, u yerdan siluet ta'sirchan bo'lib ko'rinadi.

Muhofaza hududlarini tashkil etishda umumiy prinsip va usullarga ega bo'lgan turli tadqiqot usullari qo'llaniladi. Ular orasidan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

### **1. Shahar rejaviy tuzilishini, uning tashkil bo'lganligini tarixiy jarayonida o'rganish va tahlil qilish:**

- shahar va tarixiy yodgorliklar paydo bo'lishi tarixini o'rganish;
- tarixiy markaz rejaviy tuzilishi xarakteri;
- yodgorliklarning asosiy shaharsozlik xususiyatlari;
- ko'cha, majmua komplekslar sistemasi.

Bu tadqiqot arxiv materiallarini, adabiy manbalarni turli davrlardagi shahar tayanch rejalarini, "UzLITIshaharsozlik" ilmiy tekshirish va loyihalash instituti va sobiq "UzNIPrestavrasiya" institutlari tomonidan turli vaqtlarda ishlab chiqilgan loyihalarni, shuningdek, naturaviy tekshirish, obyektlarning hozirgi ahvoli fotofiksasiyasi orqali o'tkaziladi.

### **2. Ko'rish nuqtalari va yo'nalishlaridan idrok etishni hisobga olgan holda shahar majmuasi vertikal tuzilishini tahlil qilish:**

- shahar tuzilishida asosiy majmualar, hajmlar, vertikalarni joylashtirish;
- binolar plastik yechimining mahalliy tabiiy sharoitlarini tomosha qilish sharoitlariga bog'liqligi;
- yetakchi dominantlar o'rtasidagi vizual bog'lanishlarning mavjudligi;
- shahar silueti va panoramasining uning rivojlanishi holati;
- tashqi ko'rish nuqtalari va yo'nalishlarini joylashtirish va bu joylardan shahar majmualarini ko'rishni qulaylashtirish;
- me'moriy inshootlar va atrofdagi turar joy binolarining bir-biriga bog'liqligi.

Tadqiqotlar natijasida tarixiy markazning vizual chegaralari, ya'ni markaziy me'moriy majmualarni yaqqol namoyon qiladigan joylari aniqlanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, tarixiy shaharlarimizning bosh rejasini ishlab chiqishda, O'zbekiston sharoitida samarali qo'llash mumkin bo'lgan ahamiyatga molik, hududlarni hisoblash usuli qo'llaniladi.

### **3. Shahar majmuasining me'moriy-fazoviy tuzilish tahlili:**

- maydon va ko'chalar majmualari qurilishi;
- rejaviy o'zaro bog'liqliklar;
- masshtabli mutanosibliklar;
- fazoviy tuzilishi;
- ichki perspektivalar rivoji;
- qo'shni majmua va yodgorliklarga namoyon qilish.

### **4. Shahar qurilishini uning tarixiy-badiiy va shaharsozlik qiymati va hozirgi ahvoli jihatidan tadqiq qilish:**

- alohida majmualar va binolarning shaharni tashkil qilish ahamiyatini aniqlash;
- madaniyat yodgorliklari sifatida saqlab qolish zarur bo'lgan, tarixiy - badiiy qiymatdagi obyektlarni aniqlash;
- tarixiy muhitni yaratuvchi obyektlarni aniqlash;
- qayta qurish, tozalash, almashtirish yoki buzishni talab qiluvchi obyektlarni aniqlash;
- shahar tarixiy majmuasi, uning me'moriy qiyofasining shakllanishidagi ahamiyati bo'yicha qurilishlarni klassifikasiyalash tasniflash).

### **5. Madaniyat qatlam chegaralari arxeologik tadqiqotni talab etuvchi hududni aniqlash.**

Shunday qilib, tarixiy va madaniy yodgorliklarga ega bo'lgan tarixiy shaharlar markaziy qismining rejaviy loyihasini ishlab chiqishda, hududlar tartibini o'rnatish bo'yicha zarur shaharsozlik tadbirlarini, shuningdek, tarixiy va madaniy yodgorliklarni saqlashga ulardan rasional foydalanishga, tarixiy-badiiy qiymatini aniqlashga tegishli talablarni hisobga olgan holda ularni tahlil qilish zarur bo'ladi.

Qadimgi madaniy yodgorlik shaharlarini qayta tiklashda arxitektura yodgorliklarini tomosha qilish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni ta'minlashda muhofaza hududi (arxitektura yodgorliklari maydoni) va qurilishlarni tartibga solish zonalarini (qayta tiklashning alohida tartibi zonalarini ular hududida yodgorliklar va

zamonaviy qurilishlarni muhofaza qilish masalalari yuzaga keladi) yaratishda maxsus tadbirlar talab etiladi.

Muhofaza hududi eng avvalo, yodgorlik va uning atrof muhiti o'rtasidagi kompozision rejaviy yechimlarining bog'lanishlarini mustahkamlovchi vositadir. Muhofaza hududlarini tashkil etish, yodgorliklarning me'moriy-badiiy sifatlarini to'liq ochish va ularni tomosha qilish uchun qulay sharoitlarni yaratish bilan bir qatorda, yodgorliklardan foydalanish masalalarini hal etishni ham ko'zda tutadi.

Yodgorlik binolari maydonlarining tuzilishi va o'lchovini aniqlash hal qiluvchi ahamiyatga ega. Binolardan to'g'ri va rasional foydalanishning arxitektura yodgorliklarini saqlashning eng amaliy uslublaridan biridir.

Yodgorlikni qayta tiklash va ta'mirlash loyihasining yakunlovchi bosqichi tarixiy markazlarni qayta tiklash tizimida binoning o'rnini, zamonaviy shahar tuzilishida uning normal faoliyati sharoitlarini aniqlab beruvchi, tomosha qilish optimal sharoitlarini ta'minlovchi, zamonaviy maqsadlarda undan foydalanish loyihasidir. Muhofaza hududlarining tuzilishi va o'lchovlari, ularning vazifasi va obodonlashtirish xususiyati, odatda, quyidagi shartlardan kelib chiqib aniqlanadi:

- yodgorlik binodan uning badiiy-me'moriy qiymatiga muvofiqlikda foydalanish xususiyati (muzey, madaniy-oqartuv muassasasi, sayyohlik dam olish muassasalari);

- topografik joylashuv-tarixiy joyning morfologik tahlili, tarixiy-me'moriy qatlamlarni, alohida yodgorliklar, majmualar, rayon, shaharni bir butunlikda tashkil topish sharoitlarini aniqlash;

- inshootni zamonaviy qurilish bilan kompozision bog'lash, shaharsozlik dominantlarini aniqlash;

- yodgorliklarni foydalanishga moslashtirishda ularning saqlanish shartlarini inobatga olish, bino konstruksiyasi saqlanishiga salbiy ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish;

- hududni obodonlashtirish xususiyati;

- bino yoki majmualardan madaniy-oqartuv va sayyohlik maqsadlarida foydalanish imkoniyati (binolarning saqlanganligi, ularning me'moriy qiymati darajasi, ekspozisiya mavzusi yer osti quvurlarining mavjudligi va boshqalar);

- arxitektura yodgorliklarini moslashtirishning sanab o'tilgan shartlari, muhofaza hududining funksional va territorial zonalashuvini to'g'ri tanlashni ta'minlashi mumkin. Muhofaza hududlarini tashkil etish uslubiyati bo'yicha adabiy manbalar va direktiv hujjatlarga muvofiq, bunday maydonni yaratish imkoniyatlarini o'rganish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

***a) binolar, guzarlar, hududlarni ko'zdan kechirish.***


Bunda saqlanishi kerak bo'lgan (konservasiya, remont), fasadni saqlashda qayta tiklash, qayta rejalashtirish ishlari bajarilishi kerak bo'lgan qimmatbaho binolar aniqlanadi. Hududning qayta tiklanishiga to'g'ri yondoshishning asosiy shartlaridan biri, tarixiy-me'moriy, arxeologik ma'lumotlarni (qadimiy sug'orish sistemalari qoldiqlari, maydonlar, ko'chalarning mavjudligi) yig'ishdir; (2.1.3-Rasm)


***b) saqlanib qolgan tarixiy rayonlarda binolarning necha qavatligini hisobga olish.***

Tahlil qilish natijasida quyidagi bo'limlarga bo'linuvchi muhofaza hududlari sistemasi loyihasi tuziladi:

- qo'riqxonona zonasi (tarixiy-me'moriy qo'riqxonona);
- yodgorlikning muhofaza hududi;
- qurilishni tartibga solish (rejim) zonasi yoki yodgorlikning ta'sir ko'rsatish zonasi;
- muhofazaviy landshaft zonasi.

Bu hududlarning har bir tarkibida yodgorliklardan zamonaviy maqsadlarda foydalanish uchun yangi funksiyalarga moslashtirishning aniq masalalari hal etiladi, yoki sanab o'tilgan har bir yodgorlik-binolar rejaviy xususiyatlarini hisobga olgan holda shahar talablaridan kelib chiqadi.





### **БУХОРО ГУЗАР МАСЖИДЛАРИНИНГ РЕКОНСТРУКЦИЯСИ (ЎЛЧОВ ЧИЗМАЛАРИ ВА КУРС ЛОЙИҲАЛАРИ).**

*2.1.3-Rasm Buxoro guzar masjidlarini saqlanishi kerak bo'lgan (konservasiya, remont), fasadni saqlashda qayta tiklash loyiha chizmasi.*

Zona chegarasini bosh rejaga ko'chirishda shaharsozlik dominantlari, ko'rinish sharoitlari, yodgorliklarni tomosha qilishga xalaqit beruvchi ko'kalamzor, ya'ni zonani tabiiy to'sib qo'yuvchi omillar aniqlanadi.

Muhofaza hududlari tarkibiga, yuqorida aytilganidek, tartibli qurilishlar zonalari (qayta tiklashning alohida rejim zonalari) kiradi. Odatda, arxitektura yodgorliklari yangi qurilishlar bilan tutashib ketadi, bu esa hududlarni tashkil etishda ma'lum qiyinchiliklarga olib keladi. Bu esa rayon yoki shaharning maqsadga muvofiq bo'lgan ko'rinishi(silueti)ni saqlash, va uning saqlangan kompozitsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan yangi baland binolarni qurish mumkin bo'lgan zonalarni ajratish imkonini beradi.

O'tkazilgan muhofaza hududlarini tashkil etish amaliyoti, bunday hududlarni tashkil qilish bo'yicha adabiy manbalar va qat'iy ko'rsatmalarni kuzatishlar natijasida, zonalarni tashkil qilish qoidalarining quyidagi umumlashmasini chiqarish mumkin:

- inshootlarning yaroqsiz elementlarini konservasiyalash va tiklash imkoniyati yaratiladi, landshaft va tarixiy muhit saqlanadi.
- ijobiy sharoitlar yaratiladi, ob-havo muxitning tozaligi, yong'in xavfsizligi va shu kabi muhofaza hududidan sanoat korxonolari chiqarib yuboriladi, tabiiy muhitni tozalash inshootlari tashkil qilinadi;



- maxsus boshqaruv inspeksiyasi bo'limlarning ruxsatisiz yordamchi va injenerlik kommunikasiyalarining qurilishi reklama qurilmalarini o'rnatilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Muhofaza hududida quyidagi ishlar bajarilishi shart:

- binolarni me'moriy-arxeologik o'lchami, binolarni qayta tiklash bo'yicha tiklash-ta'mirlash va boshqa turdagi ishlar;

- binolar majmuasi va alohida yodgorliklar maydonini obodonlashtirish, arxitektura yodgorliklariga tegishli bo'lgan axborot va ekspozisiya stendlari o'rnatish;

- fondagi (orqa tomonda ko'rinib turuvchi) binolarni ta'mirlash (fasadni saqlab qolish).

Arxeologik tadqiqotlar o'tkazilayotgan zonada har qanday ishlar mutaxassis arxeologlarning maxsus ruxsati va kuzatuvchi ostida olib boriladi. Qurilishlarni tartibga solish zonasida, odatda, guzarlarning tarixiy topografiyasi saqlanadi. Zarur bo'lganda hududni tozalash, shaharsozlik dominantlarini tiklash o'tkaziladi, ularning namoyon bo'lishi uchun qulay sharoitlar yaratiladi.

Rejim zonasida yong'in tomonidan xavfli bo'lgan va tozalash inshootlariga ega bo'lmagan sanoat korxonalarini joylashtirish man etiladi. Muxandislik obodonchiligi va transport kommunikasiyalari maxsus organlar bilan kelishilgan holda loyihalanadi, shu bilan birga muxandislik inshootlari konstruksiyasi shakllangan me'moriy muhitga to'g'ri kelmasligini e'tiborga olish kerak.

Qurilishlarni tartibga solish zonasida yangi qurilishlar shaharsozlik yodgorliklari bilan bir majmuada hal etiladi, ya'ni ko'chalarning umumiy kompozitsiyasiga rioya qilinadi, ko'cha va rayonning fazoviy xarakteristikasi, qavatlilik va masshtablilik bir maromdagi qurilish va binolarning badiiy ko'rinishi, obodonlashtirish xususiyati, funksional zonalashtirish saqlanadi.

Ma'lum cheklanishlar har bir asosiy muhofaza hududi ichida mavjud va muhofaza hududlarini tashkil etish bo'yicha qat'iy ko'rsatmalar bilan belgilangan. Nihoyat muhofaza hududidagi tarixiy landshaft zonasini saqlash (ba'zida tiklashni ham), yodgorlik binolar va tabiiy muhitni umumiy birlashtirishni nazarda tutadi. Shu maqsadda vizual bog'lanishlar tahlili, hududning landshaft ko'rinishini to'suvchi binolardan tozalash ishlari o'tkaziladi, ko'kalamzor ekinlar sistemasi tartibga solinadi, maydonni obodonlashtirish ishlari o'tkaziladi.

Qo'riqxonalar zonasida kompleks tushunchasi sanab o'tilgan zonalarni (qurilishlarni tartibga solish, landshaft va boshqalar) o'z ichiga oladi va uni tashkil qilish tarixiy shahar koloritining badiiy qiyofasini, yaxlit shahar kompozitsiyasini saqlashni ham ko'zda tutadi.

Kompleks qo'riqxonada hududi arxitektura va shaharsozlik yodgorligi sifatida hal etiladi, loyihaoldi tadqiqoti binolarning o'zaro ta'sir va o'zaro aloqasi tahlilini, fazoviy tuzilishi tahlilini o'z ichiga oladi: perspektivalar, asosiy kompozision tugunlar, past qurilishlar va baland dominantlar, binolar me'morligi va rejalashtirish xususiyatlari tahlili, zonalashtirish, qayta tiklash, mahobatli shahar muhitini saqlash maqsadidagi moslashtirish va obodonlashtirish asosiy usullarini ishlab chiqish.

### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Qo'riqxonalar tizimining qanday turlari bor?
2. Muhofaza hududida qo'riqxonalarni tashkil etish vazifalari nimalardan iborat?
3. Moslashtirish loyiha yechimlarida qo'riqxonalarni tashkil etish usullarida qanday amallar bajariladi?
4. Qo'riqxonalaridagi arxitektura yodgorliklaridan foydalanishda asosiy vazifalar nimalarda iborat?

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O.M. Salimov. Magistrlik dissertatsiyasini yozish bo'yicha uslubiy qo'llanma. T., 2003. 24 bet.
2. X. Sh. Po'latov, A. S. Urolov. Arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash va qayta qurish. O'quv qo'llanma. T., 2002. 85 bet.
3. A. M. Salimov. Osnovnie prinsipi rekonstrukcii istoricheskix kompleksov gorodov Uzbekistana. Metodicheskiye ukazaniya. T., 1994. 18 str.

### **ME'YORIY XUJJATLAR**

#### **Madaniy meros obyektini Moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastriga yoki Nomoddiy madaniy meros obyektlarining ro'yxatiga kiritish. ( 12-modda)**

Tarixiy-madaniy qimmatga ega bo'lgan obyektlarni –Moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastriga yoki –Nomoddiy madaniy meros obyektlarining ro'yxatiga kiritish O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tomonidan mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek yuridik va jismoniy shaxslarning takliflari asosida amalga oshiriladi.

Tarixiy-madaniy qimmatga ega bo'lgan obyektlarni –Moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastriga yoki Nomoddiy madaniy meros obyektlarining ro'yxatiga kiritish maqsadga muvofiqligi to'g'risida tarixiy-madaniy ekspertiza xulosasi olingan kundan e'tiboran mazkur obyektlar aniqlangan madaniy meros obyektlari jumlasiga kiritiladi.

Arxeologiya yodgorliklari topilgan paytidan e'tiboran aniqlangan moddiy madaniy meros obyektlari jumlasiga kiritiladi.

Tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan yangi aniqlangan moddiy madaniy meros obyektlari Moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastriga kiritilishi to'g'risidagi masala hal qilingungacha ushbu Qonun talablariga muvofiq muhofaza qilinishi kerak.

### **13-modda. Moddiy madaniy meros obyektining pasporti**

Moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastriga kiritilgan moddiy madaniy meros obyektiga moddiy madaniy meros obyektining pasporti berilib, unga mazkur moddiy madaniy meros obyektini muhofaza qilish mazmunidan iborat ma'lumotlar va obyektning tavsiflari kiritiladi.

### **Moddiy madaniy meros obyektini Moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastridan chiqarish. (14-modda)**

Moddiy madaniy meros obyektini Moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastridan chiqarish, agar obyekt jisman to'la yo'qotilgan bo'lsa yoki moddiy madaniy meros obyektini sifatidagi o'z qimmatini yo'qotgan bo'lsa, tarixiy-madaniy ekspertiza xulosasi asosida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Moddiy madaniy meros obyektini Moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastridan chiqarish to'g'risidagi qaror ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.

## **O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISHGA INNOVASION YONDASHUV**

### **2.1. "Muhofaza hududlarida qo'riqxonalarni tashkil etish usullari" mavzusi bo'yicha**

#### **KEYS - TEXNOLOGIYA**

##### **I. KEYS**

*Muhofaza hududlarida qo'riqxonalarni tashkil etish usullarini hamda qo'riqxonalar loyihasini yaratishda arxitektura yodgorliklarini, ular atrofidagi ko'cha yoki boshi berk ko'chalar tarkibini saqlash bilan bog'liq bir qator murakkab masalalarni hal etish. Xo'sh shaharsozlikda qo'riqxonalarni tashkil etish tamoyillari nimalardan iborat? .*

#### **1. Keysning maqsadi:**

##### **Keysning ta'lim maqsadi:**

Magistrantlarga keyingi faoliyatida shaharsozlikda qo'riqxonalarni tashkil etish tamoyillari oid tushunchalar va ko'nikmalarni berish.

##### **Rejalashtirilgan o'quv natijalari:**

Magistrantlarga muxofaza hududida qo'riqxonalarni tashkil etish usullarini hamda qo'riqxonalar loyihasini yaratish o'rganish.

## **2. Magistrantlar keysni muvaffaqiyatli yechishlari uchun quyidagi tayanch bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim:**

- a) Shaharsozlikda qo'riqxonalarni tashkil etish tamoillarini;
- b) Shahar rejaviy tuzilishini, uning tashkil bo'lganligini tarixiy jarayonida o'rganish va tahlil qilish;
- v) Shahar majmuasining me'moriy fazoviy tuzilish tahlili;

## **3. Keysning tipologik belgilari:**

Ushbu keys kabinetli keyslar turkumiga mansub: u hujjatlar ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Keys syujetsiz, keysdagi holat hozirgi zamonga to'g'ri keladi.

Keys obyekt: Muhofazo hududlarida qo'riqxonalarni tashkil etish. Tarixiy obidalar va ularga oid filmlar va slaydlar

Keys o'rtacha miqdordagi, strukturalashgan. O'quv topshiriqni keys-savolli va topshiriq yordamida tasvirlanadi.

Keysning didaktik maqsadi magistrantlarga tarixiy shahar me'morligi hamda bugungi davrlar orasidagi farqlarni solishtirish, ularning foydali tomonlarini o'zlashtirish, tahlil qilish hamda o'z ijodiy faoliyatiga qo'llash va yechish, boshqaruvchanlik qarorlarini qabul qilishga o'rgatishdan iborat.

**4. Keys uchun axborot yig'ish yo'llari:** muloqat, hujjatlarni o'rganish, Tarixiy obidalarga sayohat.

**5. Axborot yig'ish vositalari:** hujjatlar, ma'lumotnomalar, filmlar.

**6. Axborot manbalari:** Arxitektura tarixi, tarixiy yodgorliklar, va boshqalar..

**Kirish.** Muhofaza hududlarini tashkil etish mavzusidagi loyihaning asosiy vazifasi – O'zbekiston shaharlari tarixiy markazlarining tuzilishini, qiyofasini va arxitektura jihatidan o'ziga xosligi saqlab qolishdan va yangi qurilishlar bilan shaharning tarixan shakllangan muhitning uzviy bog'liqligini vujudga keltirishdan iborat.

**Vaziyat:** Har bir aniq yodgorliklar majmuasini saqlab qolish, tevarak-atrof, hamda tarixiy shaharlarning zamonaviy ansambllar bilan loyihaviy rejalashtirilishi va mazmun jihatidan bog'liqligini mustahkamlash uchun tadqiqotlarni olib borishga alohida va yakka tartibga solishga doir loyiha takliflarining barcha xususiyatlarini

hisobga olgan holda qo'riqxonalarni vujudga keltirish yo'llarini o'rganish talab etiladi.

**Muammo** shundan iboratki, qo'riqxona loyahasini yaratishda arxitektura yodgorliklarini, ular atrofidagi ko'cha yoki boshi berk ko'chalar tarkibini saqlash bilan bog'liq bir qator murakkab masalalarni hal etishdan iborat.

**Topshiriq:** Shaharsozlikda qo'riqxonalarni tashkil etish tamoyillarini o'rganish.

## **2.2. QO'RIQXONALARNI TASHKIL ETISHDA**

### **LOYIHA YECHIMI**

#### **REJA:**

*1. Shaharsozlik tuzilishiga doir katta xajmdagi ma'lumotlar to'planishi munosabati bilan shahar tarixiy qismini qayta tiklash va tarixiy-etnografik muzey-qo'riqxonasini tashkil etish bilan bog'liq loyixalarni ishlab chiqish.*

*2. Arxitektura, tarixiy-madaniy, arxeologiya, xotira, shaharsozlik yodgorliklarini imkon qadar ko'proq aniqlash va shaharning tarixiy tuzilishi bilan uzviy uyg'unlikda qayta qurish yuzasidan asosiy takliflar ishlab chiqish.*

*3. Rejalashtirish tizimi. (saklanib qolgan qadimiy tumanlar, maydonlar, ko'chalar shaxarning rivojlanish boskichlariga ko'ra xar xil belgilarda ko'rsatish).*

#### **Annotasiya**

*Ushbu mavzuda, qo'riqxonalarni tashkil etishda loyiha yechimlari, shaharsozlik tuzilishiga doir katta xajmdagi ma'lumotlar to'planishi munosabati bilan shahar tarixiy qismini qayta tiklash va tarixiy-etnografik muzey-qo'riqxonasini tashkil etish bilan bog'liq loyixalarni ishlab chiqish hamda, arxitektura, tarixiy-madaniy, arxeologiya, xotira, shaharsozlik yodgorliklarini imkon qadar ko'proq aniqlash va shaharning tarixiy tuzilishi bilan uzviy uyg'unlikda qayta qurish yuzasidan asosiy takliflar ishlab chiqish. masalalari yoritilgan.*

#### **TAYANCHIBORALAR:**

*Tarixiy-etnografik. Muzey-qo'riqxona. Arxitektura. Tarixiy-madaniy. Arxeologiya. Xotira, Shaharsozlik yodgorliklari. Rejalashtirish tizimi. Shahar markazlari. Geometrik markazi, Shaharlarning ijtimoiy markazlari, Markazlar tarmog'i, Umumshahar markaz, Ixtisoslashgan markazlar.*

Loyixalash ishini amalga oshirishdan oldin tarixiy shaharsozlik muammolarining butun bir majmuini qamrab oluvchi murakkab va ko'p qirrali vazifa qo'yiladi. Mazkur muammolar me'morchilikka doir barcha vositalar yordamida, bu

me'morchilikning ko'p asrlik shaharsozlikning tarkibiy va me'moriy xususiyatlarini aniqlash, qayta tiklash va oddiy bo'lmagan yechimlarni hal qilish talab etiladi. Mamuriy tuzilishi jixatidan tarixan yaxlitlikka ega bo'lgan aniq-ravshan shaharsozlik birligi sifatida tarixiy-me'moriy qo'riqxonani tashkil etish aslida bu loyiha yechimining eng muhim qismi xisoblanadi.

Xozirgi paytda shaharning deyarli barcha tarixiy qismlari muayyan ravishda o'zgartirilib aholiga zarur bo'lgan quyidagi ijtimoiy mehnat faoliyatiga ega bo'ladilar:

- shahardagi umumiy madaniy-oqartuv markazi o'rnini bosishi;
- madaniyat, turizm va sayl-tomosha markazi;
- xalq xunarmandchiligi markazi;
- ommaviy istirohat, yirik an'anaviy bayramlar, yoyma bozorlar, sport musobaqalari, sirk tomoshalari va boshqa tadbirlar o'tkaziladigan maskanlar vazifasi shular jumlasidandir.

Shaharning tarixiy me'morchilik, shaharsozlik tuzilishiga doir katta xajmdagi ma'lumotlar to'planishi munosabati bilan shahar tarixiy qismini qayta tiklash va tarixiy-etnografik muzey-qo'riqxonasini tashkil etish bilan bog'liq loyixalarni ishlab chiqishda o'ziga xos yangi usul joriy etiladi. Bu usulni taqozo qiladigan shart shundan iboratki, ba'zi loyiha yechimlari nixoyatda chuqur mazmunga ega bo'lishi lozim. Bundan tashqari haqiqiy me'moriy loyihaviy yechimlar talabga javob beradigan darajada, tarixiy xujjatlar va arxiv vositalari yordamida ifodalangan bo'lishi lozim. Bu loyihalar negizida tegishli o'zgartirishlar kiritilishiga yoki kelajakda aniq xujjatli ma'lumotlar olingan taqdirda to'liq almashtirilishiga yo'l qo'yadigan o'ziga xos yechimlar bo'lishiga imkon beradi.

Bunday yechimlar tarixiy shaharlar tarkibida ancha "istiqbolli" va shaharsozlik nuqtai-nazaridan muhim joylarni "mustahkamlash"ni hamda tarixiy mahallalarni qayta tiklash jarayonini va ularning tartibsizlik bilan qayta tiklanishiga mazkur joylarda yangi qurilishlarni davom etishiga chek qo'yish imkonini yaratadi.

Loyiha yechimi shaharning tarixiy-topografik rejasida batafsil ishlab chiqilgan "uyg'unligi" (majmui) negiz asosida bajarilib, quyidagilarni o'z ichiga oladi; jumladan:

- tarixiy manbalar va arxiv-xujjatlarida ko'rsatilgan va aniq me'moriy arxeologik tadqiqotlar bilan tasdiqlangan arxitektura va shaharsozlik yodgorliklarini ajratib qo'yishga doir ilmiy-nazariy materiallar;
- shahar tarixiy qismi imoratlarining hozirgi ahvolini amalda tekshirish ma'lumotlari;
- shahar tarixiy qismi ahvolini aks ettiruvchi asoslar.

Shaharning tarixan shakllangan qismini ko'lam, miqyos va rejalashtirish jihatidan qayta qurish yuzasidan loyixani mufassal ishlab chiqish me'moriy-tarixiy, shaharsozlik va yangi mazmunlarni xisobga olgan xolda amalga oshiriladi. Bunday qayta qurish quyidagicha muayyan mintaqalarga ajratish yo'li bilan bajarilmog'i lozim:

- guzarlar, maxalla markazlari va o'ziga xos imoratlarga ega bo'lgan umumiy foydalanishdagi dahalar;
- xunarmandchilik va savdo-sotiq dahalari (bozorlar va savdo rastalarining an'anaviy tarixiy joylashgan o'rinlarini xisobga olgan xolda kiritiladi);
- shaharning turli muassasalar, korxonalar va tashkilotlar mujassamlanganligi xisobga olingan ma'muriy axamiyatga ega binolari;
- ommaviy madaniy tadbirlar, sayillar bayramlar o'tkaziladigan joylar (maydonlar, bog'lar, xiyobonlar);
- ulug'vor arxitektura yodgorliklari, muzeylar, ko'rgazmalar jam joylashgan binolar;
- tomosha maydonchalari, ma'ruza xonalar bilan uyg'unlashtirilgan tarixiy, arxitektura va shaharsozlik markazlari;
- tarixiy majmualar joylashgan maydonlar.

Masalan, aniqroq oladigan bo'lsak, Toshkent shahri tarixiy qismiga yangi shaxarni shakllantiruvchilik maqomini - davlat tarixiy arxitektura va etnografik muzey-qo'riqxonalar maqomini berish nuqtai-nazaridan qayta qurishga doir loyixani ishlab chiqish uslubi qo'yidagilarni taqozo etadi:

- "Shahriston"(Toshkentning sobiq qo'rg'oni), "Kalxovuz" mahallasi, "Samarqand Darvoza", Yunus-obod oqtepesi, Shoshtepa, Chorsu, Labzak, Ko'kcha, Chig'atoy, Sebzor, Kamolon, Qashqar mahallalari, sobiq qal'a devorlarining qoldiqlari, anhor va ariqlar singari tarixiy, arxitektura va shaharsozlik nuqtai-nazaridan shahar qiyofasining barcha muhim belgilari qayerda joylashganligi loyihada o'z aksini topgan bo'lishi;
- bu belgilarning barcha qadimiy nomlarini tiklash;
- tarixiy manbalarda tilga olinadigan eng muhim tarixiy, arxitektura va shaharsozlik imoratlarini shaharning rejadagi tuzilishida shartli-ramziy aniqlash va mustaxkamlash usullari yuzasidan takliflar berish, bundan shu yodgorliklar joylashgan hududlarda boshqa qurilishlar oldini olish va maxsus arxitektura-arxeologiya tadqiqotlari olib borish uchun sharoitlar bilan ta'minlash maqsadi ko'zlanadi:

- shaharning hozirgi ma'muriy bo'laklarini uning tarixiy manbalarda ko'rsatilgan to'rtta tarkibiy mintaqasi (Beshyog'och, Ko'kcha, Sebzor, Shayx

Xovandi Tohur daxalari) va o'n ikki darvozasi bilan uyg'un xolga keltirish imkoniyatini tekshirib ko'rish. Ularning bir-birlariga mos tushgan va yaqin kelgan holda shunga yarasha o'zgartirishlar kiritish;

- arxitektura va arxeologiya yodgorliklarini sayyohlar hamda shahar aholisiga xizmat ko'rsatishga moslashtirish maqsadida ular uchun yangi vazifalar belgilash;

- qo'rihxona muzeylari;

- savdo-sotiq va maishiy xizmat shaxobchalari;

- turar-joy tumanlariga (mahallalar, guzarlar, uy-joylardan foydalanish idoralari) xizmat ko'rsatish ehtiyojlari;

- hududlarni belgilangan vazifalarga qarab mintaqalarga bo'linishini hisobga olgan holda foydalanishning boshqa turlari;

- sayyohlarga xizmat ko'rsatish nuqtai-nazaridan, sayyohlik uylari loyihasini tuzib chiqish (sayyohlar markazi uchun joy tayyorlash);

- turar-joy me'morchiligiga alokador 1 va 2 toifaga tegishli yodgorliklari bo'lgan uy-joy tumanlarini mahalla, guzarlar markazlarini shakllantirishini hisobga olgan holda qayta tiklash;

- eski markazlarni tiklash maqsadida qisman qayta foydalanishi lozim bo'lgan zamonaviy «rejali» imoratlarga ega uy-joy tumanlarini aniklash;

- «Shaxriston» qo'riqxonasi shahri faoliyat ko'rsatishi uchun mehnatga yaroqli faol aholining eng maqbul sonini, binolarning yangi vazifalarini hisobga olgan holda, ularning zamonaviy maqsadlarda foydalanadiganlarini (umumshahar miqyosidagi ommaviy – madaniy tadbirlar): bayramlar, yoyma bozorlar, sport va an'anaviy xalq musobaqalari o'yinlari, madaniy xordiq va hokazo tadbirlari (barcha xizmat turlari bilan ta'minlangan holda o'tkazish joylarini) joylashtirish loyihasini ishlab chikish;

- qo'riqxonasi hududida istiqomat qiladigan aholiga xizmat ko'rsatish muassasalari: bolalar bog'chalari, maktab, poliklinika, shifoxona, dorixona, savdo xizmat ko'rsatish korxonalarini, umumiy ovqatlanish tizimi (oshxonalar, kaxvaxona, muzqaymoq, sharbatlar, suv va yaxna ichimliklar, pazandalik mahsulotlari sotiladigan do'konlar), kutubxonasi, ro'znoma va oynomalar sotiladigan do'konchalar va hokazolar;

- transport harakati jadvalini belgilash, arxitektura yodgorliklari majmui joylashgan mintaqalarda esa, qadimiy yo'llar va maydonlarni ajratib ko'rsatish maqsadida barcha aloqa turlarini faqat jamlangan holda qurilishini hisobga olib, shuningdek («Shahriston» qo'riqxonasi muzeyi yaqinida) ko'cha yo'lusti qatlamlarini, umumiy yechimlardagi loyiha belgilari darajasigacha pasaytirilishini (Xazrati Imom va Shayh Xovandi Tohur me'morchilik yodgorliklari majmui atrofida), mavjud



me'moriy yodgorliklar va uy-joylarning pastki qismini mahsus dasturga binoan ochib tashlashni nazarda tutgan holda transport yo'li va mahallalararo aloqa loyihasini aniq dastur asosida ishlab chiqish;

- qo'riqxonalar muzey hududini gaz, issiqlik suv, elektr, oqava quvurlar, telefon bilan har tomonlama ta'minlash loyihasini ishlab chiqishda tarmoqlarning loyihadagi ko'rsatilgan yo'llar (bosh yo'llar) bo'ylab o'tkazilishi hisobga olinadi.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, shaharning arxitektura nuqtai-nazaridan tuzilishi, qiyofasi o'ziga xosligini saklab qolish, yangi qurilishlar bilan tarixan shakllangan muhitning o'zaro uyg'unlikdagi birligini vujudga keltirish shahar tarixiy qismiga tartib berish vazifasiga kiradi.

Arxitektura, tarixiy-madaniy, arxeologiya, xotira, shaharsozlik yodgorliklarini imkon qadar ko'proq aniqlash va shaharning tarixiy tuzilishi bilan uzviy uyg'unlikda qayta qurish yuzasidan asosiy takliflar ishlab chiqish loyiha ishining maqsadi hamda vazifasi xisoblanadi. Shahar tarixiy qismining texnikaviy iqtisodiy asoslarini hamda bosh rejasini ishlab chiqish uchun oldindan tarixiy tayanch rejasini, va mintaqalarga bo'lish chizmasini ishlab chiqiladi. Bu bosqichda ham, undan keyingi ishlanmalarda ham, hujjatxona tadqiqotlari va amaliy tekshirishlar quyidagi masalalarda jalb etiladi:

- tarixiy shaharning vujudga kelishi masalasini hal etishda;

- shaharsozlik tuzilmalari shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan omillarni aniqlashda;

- shaharni rejalashtirish tizimini va shaharsozlik mazmun mundarijasini o'tmish nuqtai-nazaridan qayta qurishda;

- rivojlanishning asosiy bosqichlariga qarab shahar tuzilishining qiyosiy tahlilini amalga oshirishda;

- saqlanib qolgan ko'zga tashlanuvchi o'ramlar bilan shaharsozlik tabiiy muxit o'zaro aloqalarini hamda shaharning qadimiy o'tmishda mavjud bo'lgan qismidagi ana shunday mintaqalarni aniqlashda;

Loyiha ishlari bajarilishi 3 xil ko'rinishda bo'lishi lozim, ya'ni chizmalar tarixiy-me'moriy tayanch rejasini nazarda tutgan holda ishlab chikiladi:

- shaharning mavjud chegaralar doirasidagi hududi;

- shaharning yaqin atrofini va unga uzoq bo'lmagan tumanlar ko'rsatilgan hudud;

- shahar va uning atrofini qayta tiklashda rejasiga kiritilgan hududi.

**Birinchi chizmada quyidagilar ko'rsatilmog'i lozim:**

### **1. Tabiiy muxitning kimmatli belgilari:**

- tabiiy muxitning kimmatli tabiiyot va shahar tarixiy belgilariga doir mavjud, xamda qayta tiklanadigan chegaralar;

- tabiiy muxitda saklangan tarixan kimmatli belgilar.

## **2. Kadimshunoslik belgilari:**

- arxeologiya nukta-i-nazaridan kimmatli bo'lgan madaniy qatlamning yoyilish chegarasi;
- arxeologiya yodgorliklari.

## **3. Shaxarsozlik yodgorliklari:**

### ***a. Rejalashtirish tizimi:***

- saklanib qolgan qadimiy tumanlar, maydonlar, ko'chalar (shaxarning rivojlanish boskichlariga ko'ra xar xil belgilarda ko'rsatiladi);
- to'g'rilangan yangi ko'chalar;
- kengaytirilgan qadimgi ko'chalar;
- keyingi rejalashtirish tizimida g'ayri tabiiy holatlar qayd etilgan qadimgi rejalashtirish belgilari;
- shahar qal'asidagi mudofaa istehkomlari;
- istehkomlarning ko'zga tashlanadigan qismlari;
- ko'chalaru-maydonlar uslublariga qarab qayta rejalashtirish davrining shaharsozlik yodgorliklari.

### ***b. Uy-joy binolari tizimi (saqlanib qolgan mahallalar va uy-joylar):***

- qadimiy tumanlarning saqlanib qolgan qismlari (daha);
- uy-joy va arxitektura yodgorliklarini o'z ichiga olgan mahallalar;
- shaharning o'ziga xos qiyofasini shakllantirishga yordam beradigan uy-joy va xo'jalik binolariga ega mahallalar.

### ***v. Shaharsozlik tuzilishi (kompozitsiyasi):***

- yodgorliklarning tarixiy majmualari, obidalarning uyg'un birliklari va ayrim o'zaro bog'lik belgilari;
- saqlanib kolgan mazmuniy bog'likliklar (ko'chalar, uylar, va ma'lum kenglikda);
- saqlanmagan eng muhim mazmunli aloqalar (ko'chalar bo'ylab va ma'lum kenglikda);
- yodgorliklarni keng idrok qilishga imkon beradigan qismlarning saqlanib qolganligi;
- yodgorliklarni keng idrok qilishga imkon beradigan qismlarining saqlanib qolmaganligi;
- tarixiy tuzilishni buzib ko'rsatuvchi imoratlar.

## **4. Tarix va madaniyat yodgorliklari:**

- tarixiy vokealar bo'lib o'tgan joylar;
- tarixiy vokealardan xotira binolar;

- mahalladagi kasbkor va xunarmandchilik bilan bog'lik hudud va imoratlar. Ushbu tadqiqot yuzasidan olingan manzara (loyiha) shaharning taxlil etilayotgan eski qismidagi tarixiy va shaharsozlik yodgorligi majmuasi hududini aniqlash (shaharsozlik nuqtai nazaridan qayta tiklash) imkonini beradi.

**Oldindan tuzib chiqilgan tarixiy tayanch rejasining 2-nchi chizmasida** qayta tiklanadigan shaharsozlik mintaqasining hududi, so'ngra esa shaharning yaqin atrofidagi butun qimmatli yodgorliklar tizimi aks ettiriladi. Shundan keyin tarixiy tabiiy muhitning qo'riqlanadigan o'rami aniqlanadi. Bu ikkala chizmada, shuningdek shaharning tarixiy-madaniy qiymatlari toifasi oydinlashtiriladi. Belgilangan toifalardan kelib chikib, kayta tiklash tartib koidalariga binoan mintakalarga bo'lish yuzasidan dastlabki chizma tuziladi. Shahar va uning yaqin atrofi tarixiy qismini qayta tiklash tartib qoidalariga binoan mintaqalarga bo'lishning dastlabki tarxiga mansub.

**3-nchi chizmada shaharsozlik** – tabiiy muhitni tiklash o'rami atrofida tarixiy-madaniy qiymatlar, arxeologiya va qo'riqlanadigan muhit mintaqasi belgilab qo'yilmog'i lozim, shahar tarixiy qismi, arxitektura majmualari hamda ulardagi alohida e'tibor beriladigan qismlarning yaxlit ko'zga tashlanadigan o'ramlari, shuningdek muhitdagi aniqlangan barcha qiymatlar ham aks ettiriladigan jihatlar jumlasiga kiradi.

### **Takrorlash uchun savollar.**

1. Qo'riqbonlar tashkil etilgan zamonaviy shahar tuzilishida yodgorliklardan foydalanish omillariga nimalar kiradi?
2. Moslashtirishda muhandislik me'moriy loyiha yechimida qaysi ishlar bajariladi?
3. Qo'riqbonlardagi yodgorliklarni moslashtirish loyiha-larining asosiy yo'nalishi va yechimlarini hal qilishda nimalar e'tiborga olinadi?

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. X.Sh.Po'latov, A.S.Urolov. Arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash va qayta qurish. O'quv qo'llanma. T., 2002. 85 bet.
2. A.M.Salimov. Основные принципы реконструкции исторических комплексов городов Узбекистана. Metodicheskiye ukazaniya. T., 1994. 18 str.

ME'YORIY XUJJATLAR  
**Madaniy meros obyektlarining tarixiy-madaniy  
Ekspertizasi (15 -modda)**

Madaniy meros obyektlarining tarixiy-madaniy ekspertizasi:

- madaniy meros obyekti Moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastriga yoki Nomoddiy madaniy meros obyektlarining ro'yxatiga kiritilishini asoslash;
- moddiy madaniy meros obyektining toifasini belgilash;
- moddiy madaniy meros obyektining toifasi o'zgartirilishini asoslash;
- moddiy madaniy meros obyektini Moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastridan chiqarish;
- moddiy madaniy meros obyektlari muhofaza tegralari loyihalarining shaharsozlik valoyihalash hujjatlariga, shuningdek mo'ljalalanayotgan yerqazish, yertuzish, qurilish, meliorasiya, xo'jalik ishlari vaboshqaishlarning moddiy madaniy meros obyektlarini asrash talablariga muvofiqligini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Madaniy meros obyektlarining tarixiy-madaniy ekspertizasi O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tomonidan tashkil etiladi va amalga oshiriladi.

**Tarixiy-madaniy ekspertiza obyektlari.( 16-modda)**

Tarixiy-madaniy ekspertiza obyektlari quyidagilardir:

- xo'jalik jihatidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan yeruchast-kalari, agar ular da moddiy madaniy meros obyektlari joylashgan bo'lsa;
- madaniy meros obyektlari Moddiy madaniy meros obyekt-larining davlat kadastriga yoki Nomoddiy madaniy meros obyektlarining ro'yxatiga kiritilishini asoslovchi materiallar;
- moddiy madaniy meros obyektlari Moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastridan chiqarilishini asoslovchi materiallar;
- moddiy madaniy meros obyektining toifasi belgilanishini yoki o'zgartirilishini asoslovchi materiallar;
- ushbu Qonunda belgilangan hollarda shaharsozlik valoyihahujjatlari;
- 

**O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISHGA INNOVASION  
YONDASHUV**

**Xulosalash» (Rezyume, Veyer) metodi**

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi

va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi.

### Методни амалга ошириш тартиби:



тренер-ўқитувчи иштирокчиларни 5-6 кишидан иборат кичик гуруҳларга ажратади;



тренинг мақсади, шартлари ва тартиби билан иштирокчиларни таништиргач, ҳар бир гуруҳга умумий муаммони таҳлил қилиниши зарур бўлган қисмлари туширилган тарқатма материалларни



ҳар бир гуруҳ ўзига берилган муаммони атрофлича таҳлил қилиб, ўз мулоҳазаларини тавсия этилаётган схема бўйича тарқатмага ёзма баён қилади;



навбатдаги босқичда барча гуруҳлар ўз тақдимотларини ўтказадилар. Шундан сўнг, тренер томонидан таҳлиллар умумлаштирилади, зарурий ахборотлар билан тўлдирилади ва мавзу

### Namuna:

Arxitektura va arxeologiya yodgorliklarini sayyohlar hamda shahar aholisiga xizmat ko'rsatishga moslashtirish maqsadida ular uchun yangi vazifalar belgilash					
qo'rihxona muzeylari;		savdo-sotiq va maishiy xizmat shaxobchalari		turar-joy maskanlari	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	Kamchiligi
					i
<b>Xulosa:</b>					

## 2.3.QO'RIQXONALARNI TASHKIL ETISHDA TADQIQOT USULLARI.

### **REJA:**

1. *Tarixiy yodgorliklarni tahlil qilish usullari.*
2. *Shaharning tarixan shakllanishida uning tuzilishi qanday rejalashtirilganligini o'rganish va tadqiq etish.*
3. *Shahar imoratlarini ularning tarixiy-badiiy va shaharsozlik qiymati nuqtai nazaridan tadqiq etish.*
4. *Arxeologiya tadqiqotlarini talab qiladigan madaniy qatlamni hududni aniqlash.*

### **Annotasiya**

*Ushbu mavzuda, shaharning va undagi tarixiy yodgorliklarning barpo bo'lish tarixini o'rganish, ko'cha va imoratlar uyg'unligi, ya'ni ansambllar majmualar tuzilishi, madaniyat yodgorliklari sifatida saqlab qolinishi zarur bo'lgan tarixiy-badiiy qiymatga ega imoratlarini aniqlash bo'yicha bir qancha tadbirlar ko'rsatilgan.*

*Hamda, binolarga shahardagi imoratlar uyg'unligini, ya'ni ansambllarni, uning arxitektura qiyofasini shakllantirishdagi roli va ahamiyatiga qarab tavsif berish masalalari, arxeologiya tadqiqotlarini talab qiladigan madaniy qatlamni hududni aniqlash kabi tadqiqot ishlari yoritilgan..*

### **TAYANCHIBORALAR:**

*Arxeologiya. Tadqiqot. Uyg'unlik. Ansambllar. Majmualar. Yodgorlik. Tadqiqot. Madaniy. Tarixiy. Formula. Hududlar. Uslublar. Hisob-kitob. Rejaviy.*

Tarixiy yodgorliklarni tahlil qilish, hamda binolar qurilishini tartibga solib turish hududlarini aniqlash uchun hisob-kitoblar ishlab chiqiladi. Ko'z bilan ko'rib idrok qilish qonunlari asosiga quriladigan bunday hisob-kitoblar uslubi uchta bosqichdan iborat bo'lmog'i lozim:

- kuzatish nuqtasini tanlash;
- hududga doir hisob-kitoblar;
- hududni rejaga solish.

Zarur nuqta 700-750m, 1000-1200m, 1500-1700m, 2000-2200m, 3000m. radiusdagi maydonda shaharni bevosita ko'rib o'rganish asosida tanlanadi. Shu bilan birga joylarni o'ziga qarab rasmini chizib, suratga yoki rejaga tushirib borish kerak.

U qadar aniq bo'lmagan yondashuvda ( $120-130^{\circ}$  qo'rish maydoni bo'lgan holda) yodgorlikni idrok etish quyidagicha taqsimlanadi:

- ko'rish burchagi  $18^{\circ}$  bo'lgan taqdirda inshoot umuman (yodgorlikning  $\approx 3h$ ) idrok etiladi;

- ko'rish burchagi  $27^{\circ}$  bo'lgan holda inshoot umuman va qismlari belgilari bilan (yodgorlikning  $\approx 2h$ ) qabul qilinadi;

- ko'rish burchagi  $45^\circ$  bo'lgan taqdirda inshootning qismlari (yodgorlikning  $\approx h$ ) idrok etiladi;

- ko'rish burchagi  $10^\circ$  dan kam bo'lganda, binoning oldingi yuzasi umuman idrok qilinmay qoladi.

Shundan kelib chiqib, belgilarni (yodgorlikni kuzatuvchining ko'zi to'g'ri keladigan sath va hokazo) sathdagi yuzaga nisbatan hisoblab chiqiladiki, bunday yuzalar to'g'ri burchakdagi barcha nuqtalarda tik chiziqlar bilan kesishadilar (ilovaga qarang).

Boltiq dengizida Kronshtadt o'lchamidagi nol orqali o'tadigan yuza asos xizmatini o'tovchi sath yuzasi sifatida qabul qilingan.

Har bir nuqta uchun quyidagi formulalar asosida hisob-kitob olib boriladi:

$$tg\alpha_1 = (H_t - H_K) / S$$

$$tg\alpha_2 = (H_K - H_{\bar{e}}) / S$$

$$h_i = tg\alpha_1 * S_{KH_i}$$

$$H_{\bar{a}} = H_K + \Delta h_i \quad ;$$

$$h\bar{o} = \Delta h_i - (H_{\bar{e}} - H_K);$$

$$S_{khi} = (\Delta h_i) / tg\alpha_1;$$

$$\alpha = \alpha_1 + \alpha_2; \quad h = H_t - H_{\bar{e}}$$

Hisob-kitob kuzatuvchi turgan nuqtaga, ya'ni shartli sath yuzasiga nisbatan olib borilgan holda (unday bo'lganda  $H_{\bar{e}} = 0$ ), (2 va 5 formulalari) quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$tg\alpha_2 = (H_K) / S;$$

$$h\bar{o} = \Delta h + H_K;$$

Boshqa formulalar (1), (3), (4), (6) saqlanib qoladi, bunda,

$\alpha$  - kuzatuvchining ko'rish burchagi;

$\alpha_1$  - eski imorat yuqorisiga nazar tashlashdagi tik qarash burchagi;

$\alpha_2$  - bino pastiga nazar tashlashdagi tik qarash burchagi;

$H_{\bar{e}}$  - yodgorlik oldidagi yer sathi belgisi;

$H_m$  - devorlar tepasi yoki cheti atrofidagi imoratlar tomining chekkalarini ko'rsatuvchi belgilar;

$H_K$  - kuzatuvchining ko'ziga to'g'ri keladigan sath belgisi;

$S$  - kuzatish nuqtasidan yodgorlikkacha bo'lgan masofa;

$S_{KH}$  - kuzatish nuqtasidan qurilish bo'ladigan joyiga qadar bo'lgan masofa;

$H_{\bar{a}}$  - yangi binolar tomlarining chekkasini ko'rsatuvchi belgilar (xohlagan

masofadan keyin o'zgartirish kiritish mumkin);

$h\bar{o}$  - yangi bino uchun yo'l qo'yib bo'ladigan balandlik;

$\Delta h$  - kuzatuvchi ko'ziga to'g'ri keladigan sathdan yuqorida yorug'likning ko'payib ketishi;

$i$  - 0, 1, 2, 3, . . . . m.

Yodgorlik orqasida qurilgan imorat  $18^{\circ}$ ,  $27^{\circ}$ ,  $45^{\circ}$  burchakdan qaralganda kuzatuvchi ko'ziga tashlanmaslik uchun quyidagi shartlar bajarilmog'i zarur:

$$H_A < H_K + \Delta h_i = H_K + tg\alpha_1 * S_{KKH}$$

ya'ni, yangi binoning balandligi ko'ziga to'g'ri keladigan sath belgisi bilan ko'z nuri yig'indisidan kam bo'lmasligi kerak. Aks holda quyidagi tengsizlik amalga oshirilmog'i lozim:

$$H_A > H_K + \Delta h_i = H_K + tg\alpha_1 * S_{Kni};$$

Bu shart bajarilgan taqdirda, albatta yangi qurilgan bino to'liq ko'rinmaydi, uning ko'ziga tashlanadigan bir qismi esa yodgorlik ko'rinishiga ta'sir qiladi va h.k.

Shunday qilib, tarix va madaniyat yodgorliklariga ega bo'lgan tarixiy shaharlarning markaziy qismi batafsil rejasini qayta tuzib chiqishda muayyan tartib o'rnatilgan go'shalarini vujudga keltirish yuzasidan, zarur shaharsozlik tadbirlarini to'liq hisobga oladigan hamda boshqa masalalarga aloqador talablarni ko'zda tutadigan o'zgartishlar kiritish lozim bo'ladi.

Qo'riqxonalarini tashkil etishga doir loyihani ishlab chiqishda quyidagi tadqiqot usullari qo'llaniladi:

### **1. Shaharning tarixan shakllanishida uning tuzilishi qanday rejalashtirilganligini o'rganish va tadqiq etish:**

- shaharning va undagi tarixiy yodgorliklarning barpo bo'lish tarixini o'rganish;

- tarixiy markazning rejaga asosan tuzilishining o'ziga xosligi;

- yodgorliklarning asosiy shaharsozlik xususiyatlari;

- ko'cha va imoratlar uyg'unligi, ya'ni ansambllar majmualar tuzilishi.

Bunday tadqiqot hujjatli ma'lumotlarni, adabiy manbalarni, shaharning turli davrlardagi rejalarini o'rganish, O'zbekiston shaharsozlik loyihalari ilmiy-tekshirish instituti. O'zbekiston tarixiy yodgorliklarni ta'mirlash ilmiy-tekshirish va loyihalash instituti, O'zbekiston shaharsozlik va arxitektura nazariyasi ilmiy-tekshirish institutlarining turli yillarda ishlab chiqilgan loyihalari hamda kuzatuvlari asosida, binolarning hozirgi ahvolini suratga olish orqali olib boriladi.

### **2. Shaharning me'moriy-hududiy tashkil qilinishi quyidagi omillarni hisobga olishini taqozo etadi:**

- maydonlar va ko'chalar uyg'un birliklarining tuzilishi;

- loyihalashtirishdagi o'zaro aloqalar;



- ko'lamdagi mutanosibliklar;
- hududiy tashkil etilishi;
- ichki ko'rinishlarning rivojlantirilishi;
- qo'shni imoratlar uyg'unliklari va yodgorliklarga ochiqqligi.

**3. Shahar imoratlarini ularning tarixiy-badiiy va shaharsozlik qiymati nuqtai nazaridan tadqiq etish quyidagi bosqichlarda olib boriladi:**

- ba'zi imoratlar uyg'unligi (ansambllar) va binolarning shaharni shakllantirishdagi ahamiyatini aniqlash;
- madaniyat yodgorliklari sifatida saqlab qolinishi zarur bo'lgan tarixiy -badiiy qiymatga ega imoratlarni aniqlash;
- binolarga shahardagi imoratlar uyg'unligini, ya'ni ansambllarni, uning arxitektura qiyofasini shakllantirishdagi roli va ahamiyatiga qarab tavsif berish.

**4. Arxeologiya tadqiqotlarini talab qiladigan madaniy qatlamni – hududni aniqlash;**

**5. Shahar binolar uyg'unligini, ansamblini uning tashqi nuqtalardan va yo'nalishlardan ko'rinishini hisobga olib, savlatiga qanday e'tibor berilganligini tahlil etish:**

- shahar tuzilishida yetakchi ahamiyatga ega bo'lgan binolar majmuasini, ko'lamlarni, balandliklarni hisobga olib joylashtirish;
- binolar bichimining mahalliy, tabiiy sharoitlarga va qanday ko'rinib turishiga bog'lab moslanishi;
- yetakchi imoratlar o'rtasida ko'zga ko'rinarli aloqalar mavjudligi;
- shahar shakli va umumiy ko'rinishining tadrijiy rivojlanishdagi ahvoli;
- tashqaridan ko'zga tashlanib turadigan nuqtalar va yo'nalishlarni joylashtirish, hamda ulardan turib shahar imoratlari uyg'unligini, ansambllarini kuzatuv imkoniyati sharoitlari;
- arxitektura yodgorliklari bilan tevarak atrofdagi turar joy binolari imoratlarining o'lchamlari jihatidan nisbati.

Shu maqsadda tarixiy shahar markazlarining, ya'ni markaziy arxitektura uyg'unligining majmua(ansambl)lari eng yaxshi ko'rinadigan hududning ko'z ilg'ab olinadigan chegaralari belgilanadi.

**Takrorlash uchun savollar.**

1. Tamirlash va qayta tiklash loyiha yechimlarini bajarishdan keyingi ishlar tartibi qay usulda bajariladi?
2. Muhofaza hududidagi yodgorliklarni moslashtirishda ichki ko'rinishlarning loyiha yechimlari nimalardan iborat?

## **Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1.O.M.Salimov. Magistrlik dissertasiyasini yozish bo'yicha uslubiy qo'llanma. T., 2003. 24 bet.
- 2.X.Sh.Po'latov, A.S.Urolov. Arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash va qayta qurish. O'quv qo'llanma. T., 2002. 85 bet.

## **ME'YORIY XUJJATLAR**

### **MADANIY MEROS OBYEKTLARINI ASRASH**

#### **Madaniy meros obyektlarini asrash chora-tadbirlari(20-modda)**

Moddiy madaniy meros obyektlarini asrash chora-tadbirlari ularni konservasiyalash, tuzatish, ta'mirlash, hozirgi zamonda foydalanishga moslashtirishni, shuningdek ular bilan bog'liq ilmiy va ilmiy-texnik tadqiqotlar, loyihalash hamda ishlab chiqarish ishlarini o'z ichiga oladi.

Moddiy madaniy meros obyektini konservasiyalash — moddiy madaniy meros obyektini mavjud ko'rinishida asrash va uning holati yomonlashuvining oldini olish maqsadida amalga oshiriladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadqiqotlar, loyihalash hamda ishlab chiqarish ishlari majmui.

Moddiy madaniy meros obyektini tuzatish — moddiy madaniy meros obyektining muhofaza mazmunini tashkil etuvchi o'ziga xos xususiyatlarini o'zgartirmagan holda obyektini foydalanish holatida saqlab turish maqsadida amalga oshiriladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadqiqotlar, loyihalash hamda ishlab chiqarish ishlari majmui.

Moddiy madaniy meros obyektini ta'mirlash — moddiy madaniy meros obyektining tarixiy va estetik qimmatini aniqlash hamda saqlab qolish va uning but saqlanishini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadqiqotlar, loyihalash hamda ishlab chiqarish ishlari majmui.

Moddiy madaniy meros obyektini hozirgi zamonda foydalanishga moslashtirish — moddiy madaniy meros obyektining tarixiy-badiiy qimmatini va asralishini o'zgartirmasdan uning tarixiy-madaniy qimmatga ega bo'lgan unsurlarini ta'mirlash asosida undan hozirgi zamonda foydalanishga shart-sharoit yaratish maqsadida amalga oshiriladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadqiqotlar, loyihalash hamda ishlab chiqarish ishlari majmui.

Nomoddiy madaniy meros obyektlarini asrash chora-tadbirlari ilmiy va ilmiy-texnik tadqiqotlar, hujjatlashtirish, tarqatib qilish va rag'batlantirish ishlarini o'z ichiga oladi. Moddiy madaniy meros obyektini asrashga doir ishlar O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tomonidan beriladigan ruxsatnoma asosida amalga oshiriladi.

# O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISHGA INNOVASION YONDASHUV "ASSESSMENT" METODI

**Metodning maqsadi:** mazkur metod ta'lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

## Metodni amalga oshirish tartibi:

"Assesment" lardan ma'ruza mashg'ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

**Namuna.** Har bir katakdagi to'g'ri javob 5 bahogacha yoki 1-5 bahogacha baholanishi mumkin.



### Тест

1. Moslashtirish loyiha echimlarida k'urikxonalarни tashkil etish usullarida qандай амаллар бажарилади?
  - фикрингиз?..
  - C. super



### Қиёсий таҳлил

Тарихий ёдгорликни тўлиқ таъмирлашга муносабатингиз?



### Тушунча таҳлили

- Консервация сўзини изоҳланг...



### Амалий кўникма

- Ёдгорликликни функциясига қараб керакли вазифага мослаштиринг.

## **2.4. MUHOFAZA HUDUDLARIDA OLIB BORILADIGAN TADBIRLAR**

### **REJA:**

- 1. Qo'riqxonalar ko'lami va shaklini belgilashda arxitektura yodgorliklaridan zamonaviy maqsadlarda foydalanish.*
- 2. Tartibga solinib turiladigan hududlarda qo'llaniladigan tartib-qoidalar.*
- 3. Shaharsozlikda muhofaza hududlarini tashkil etish tartibi.*

### **Annotasiya**

*Ushbu mavzuda, muhofaza hududlarida olib boriladigan tadbirlar, qo'riqxonalar ko'lami va shaklini belgilashda arxitektura yodgorliklaridan zamonaviy maqsadlarda foydalanish usullari hamda, shaharsozlikda muhofaza hududlarini tashkil etish tartibi to'g'risida bayon etilgan.*

*Bundan tashqari yodgorliklarning shaharsozlik, tarixiy-me'morchilik qiymatini aniqlash, binolar va inshootlarni tasniflash qoidalari keltirilgan.*

### **TAYANCHIBORALAR:**

*Qo'riqxonalar. Madaniyat yodgorliklari. Muhofaza hududlari. Me'morchilik. Arxitektura yodgorliklari. Shaharsozlik. Tarixiy xarita. Topografiya.*

Qadimiy madaniyat yodgorliklari bo'lgan shaharlarni qayta tiklashda arxitektura yodgorlikdarini tomosha qilish uchun zarur sharoitlarni ta'minlash maqsadida qo'riqxonalarni (arxitektura yodgorliklari joylashgan go'shalar) va tartibga solib turiladigan (alohida tartibda quriladigan) go'shalarni vujudga keltirish borasida maxsus tadbirlar ishlab chiqilishi kerak, chunki bunday yodgorliklar hududida obidalarni saqlab qolish hamda yangi qurilishlar olib borish manfaatlariga to'qnash keladi.

Qo'riqxonaga eng avvalo yodgorlik bilan uning tevarak atrofi o'rtasidagi reja viy mazmuniy aloqalarni mustahkamlash vositasi bo'lib xizmat qiladi. Qo'riqxonalarni tashkil etish yodgorliklarning arxitektura, badiiy sifatlarini va ularni idrok qilishdagi eng yaxshi shart-sharoitlarni, eng to'liq ravishda ochib berish bilan bir qatorda, shu obidalardan zamonaviy maqsadlarda foydalanish masalasini hal etishni ham ko'zda tutadi.

Qo'riqxonalar ko'lami va shaklini belgilashda arxitektura yodgorliklaridan zamonaviy maqsadlarda foydalanish ham muhim ahamiyatga egadir. Bu masalalar o'zaro bog'liq bo'lib, tarixiy yodgorliklardan oqilona foydalanish ularning umrini uzaytirishning eng zarur choralaridan biridir.

Yodgorliklardan hozirgi ehtiyojlar uchun foydalanish, ularni ta'mirlashga qaratilgan umumiy loyihaning eng zarur va ma'suliyatli qismi bo'lib, bu obidalarni asrash, hamda arxitektura yodgorliklarini mehmonlar va sayyohlarga yaxshi namoyish qilishni tashkil etish imkonini beradi. Shuning uchun qo'riqxonalar hududining kengligi (ko'lami) va ularning rejaga asosan tuzilishi, hamda obodonchilik xususiyatlari quyidagi holatlarni hisobga olgan holda amalga oshirilmog'i lozim:

- yodgorlikning tasnifiy guruhlaridan kelib chiqib – xoh u muzey binosi, madaniy markaz bo'ladimi, xoh u ma'muriy yoki savdo muassasasi bo'ladimi – ular joylashgan joyning kengligi bilan bog'liq ravishda shu obidalardan zamonaviy maqsadlarda foydalanish lozim;

- joyning tarixiy xaritasi (topografiyasi – hududning shakli, u yerdagi binolarning balandligi va obodonligi imkoni boricha yodgorlik joylashgan maydonning tarixiy shart-sharoitlarini oydinlashtirishga xizmat qilmog'i lozim);

- yodgorlikning yangi barpo etilayotgan uyg'unlik – ansamblning bir qismi sifatida yaxshi ko'zga tashlanib turishi (uning atrofidagi yangi binolar bilan mazmunan bog'liqligini ta'minlash zarur);

- yodgorlik uzoq vaqt avaylab asralishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish (uni jamiyatning hozirgi ehtiyojlariga moslashtirish);

- obidadan sayyohlar tomosha qiladigan joy sifatida foydalanish (unga olib boradigan yo'llar, avtomobil bekatlari, rastalar, boshqa xizmat qiluvchi muassasalar tashkil etilganligini hisobga olish zarur);

- yaqin atrofidagi hududlarning umumiy obodonchiligi.

Yuqoridagi sanab o'tilgan barcha taraflarning uyg'unligi qo'riqxonalar hududining ko'lami belgilash uchun ishonchli va asoslangan talablar asosidagina mezonlar yaratiladi.

Qo'riqxonalarni uslubiy jihatdan belgilash quyidagicha amalga oshiriladi:

- ilgaridan shakllanib kelgan imoratlar, xususiy uylar, ko'chalar, maydonlar, jamoatchilik va xizmat ko'rsatish joylari bo'lgan dahalar ko'zdan kechiriladi va o'rganiladi;

- texnik jihatdan o'z holicha saqlab qolishni va ta'mirlashnigina talab qiladigan to'liq saqlangan binolar;

- ichki ko'rinishlari, hujralari va peshtoqlari saqlanib qolgan imoratlarni;

- qadimiy tuzilishi asosida qayta tiklanayotgan va boshqa binolar ajratiladi;

- ko'kalamzorlar, ta'mirlanayotgan maydonlar mavjudligi, aniqlangan sug'orish va boshqa suv taralash shahobchalari mavjudligi, hamda yo'llarning ustki

qatlami qanday holatda ekanligi qo'riqxonalar uchun zarur mezonlarni belgilashda to'g'ri shartlar bo'lib xizmat qiladi.

Oldindan shakllanib kelgan dahalardagi binolarning ko'p qavatlilik darajasi ham muhim ahamiyatga egadir.

Shaharni tarixiy me'moriy jihatdan tahlil etish natijasida quyidagicha tasniflanadigan tarixiy hudud(maydon)lar tizimi ishlab chiqiladi:

- tarixiy-me'moriy qo'riqxonalar;
- yodgorlik qo'riqlanadigan maydon;
- tartibga solib turiladigan (muayyan tartib belgilangan) qurilishlar maydoni;
- qo'riqlanadigan muhit hududi.

Shu hududlarning har birida binolarning tuzilishi, me'moriy qiyofasi shaharning ulardan qanday vazifada foydalanishga ehtiyoji borligini hisobga olgan holda imoratlarni ishga solish masalalari hal etiladi.

Imoratlarning uzoqdan ko'rinishi yuqoridagi hisob-kitoblarga asosan, shahar rejasiga shu tekshirilayotgan imoratlarni qayd etib ko'rsatish yo'li bilan belgilanadi. Ayni paytda inshoot joylashgan yerning past-balandligi, tarixiy imoratlar mavjudligi, keyinchalik vujudga kelgan tuproq(yer) qatlami, shuningdek, taqab qurilgan imoratlar, haddan tashqari o'sib ketgan daraxtlar, arxeologiya inshootlari va h.k. singari qo'riqxonalar hududini chegaralovchi omillar aniqlab olinadi.

Qo'riqxonalar tartibga solib turiladigan yoki binolarni qayta qurishni alohida tartibi o'rnatilgan kengliklar, shaharning bevosita yaqin atrofidagi tarixiy binolar va zamonaviy qurilishlar bo'lgan hududlari doirasiga kiradi. Yangi qurilishlar bilan bevosita yaqinlikda bo'lgan arxitektura yodgorliklari mujassam bo'lgan shaharning markaziy qismida alohida hududlar tashkil etish ayniqsa murakkabdir. Bunday hududlarni tashkil etishda har bir shahardagi va uning markazidagi atrof muhit xususiyatlarini hisobga olish lozim. Shu o'rinda ta'kidlash zarurki, yodgorliklarni qayta tiklashning alohida tartibi o'rnatilgan hududlarda qurilish olib borishda, shu hududlar ichida va undan tashqarida joylashgan kuzatish nuqtalari bilan mutanosiblikka erishish lozim. Bu imoratlar shaklini samarali nazorat qilib borib shaharning tarixan vujudga kelgan qiyofasini ko'p qavatli yangi binolar bilan tartiblashtirish maqsadga muvofiqligi yoki imkoniyatlarni belgilab borishga sharoit yaratadi.

Tarixiy shahar markazlarini qayta tiklashni loyihalashtirish amaliyotida qadimiy yodgorliklar bilan yangi qurilishlarning to'qnash keladigan, "**tartibga solib turiladigan**" hududlarini alohida ajratish tavsiya etiladi. Shaharning bunday qismlarini "**imoratlarni qayta qurishning alohida tartibi o'rnatilgan hududlarni**" yoki qo'shimcha qurilishlar olib boriladigan hududlar deb atash ham mumkin.

Madaniy yodgorliklarni o'rab turgan hududlarda tabiiy muhitning tarixiy manzarasi va tevarak-atrofdagi tabiat bilan aloqasini saqlab qolish qayta tiklashni ta'minlashga davat etilgandir, ular hududida quyidagi tartib-qoidalar o'rganiladi:

a) tarixiy muhitni buzib ko'rsatadigan binolar va inshootlar bartaraf etiladi;

b) qulay vaziyat, tevarak-atrof havosining tozaligi, harakatlar ta'sirdan himoya va havfsizligi ta'minlanadi;

v) yodgorlikka jisman zarar yetkazadigan, eski shaharning tarixiy qismida katta miqdorda yuk tashilishini keltirib chiqaradigan, yerni va havoni ifloslantiradigan sanoat korxonalarini, ustaxona va omborxonalar olib chiqib ketiladi;

g) havo orqali elektr simlari tortishga, transformator kichik stansiyalarini, do'konchalar va bevosita yodgorlikka tegishli bo'lmagan, hamda uning ko'rinishiga putur yetkazadigan, tomosha qilishga halaqit beradigan reklama taxtalarini va boshqa qurilmalarni o'rnatishga yo'l qo'yilmaydi;

d) obidani qo'riqlash bilan bog'liq bo'lmagan har qanday ishga, jumladan, qishloq xo'jalik ishlariga ruhsat berilmaydi;

ye) madaniyat yodgorliklarini qo'riqlovchi idoralar bilan kelishilgan holda quyidagi ishlarni amalga oshirish mumkin bo'ladi:

- yodgorlik binolarini tiklash-ta'mirlash, o'z holicha saqlab qolish va ulardan foydalanish ishlari;

- obodonlashtirish va sirdan yoritish, yodgorlikka doir ko'rgazma taxtalarini o'rnatish;

- ko'chirilayotgan korxonalarining binolarini tarixiy muhit xususiyatini qayta tiklovchi imorat va inshootlar bilan almashtirish;

j) madaniy qatlamning qo'riqlanadigan hududda arxeologiyaga oid go'shada har qanday tuproq ishlari yodgorliklarni qo'riqlash idoralarining qaroriga binoan va arxeologlarning kuzatuv ostida, bu hududlarda qurilishlar boshlashdan oldin olib boriladi.

Qo'riqxonalarining yaqin atrofida joylashib, madaniyat yodgorliklari uchun muhit yaratib turadigan, shaharning tashkil topgan arxitektura maydonida shu muayyan obida ahamiyatini saqlab qolishga yordam beradigan, uning yaxshi ko'zga tashlanib turishi uchun qulay shart-sharoit yaratadigan hududlardir.

Tartibga solinib turiladigan hududlarda quyidagicha tartib-qoida o'rnatiladi:

a) qadimiy reja yoki tabiiy muhitning bizning davrimizgacha saqlanib qolgan bo'laklari va qimmatli belgilari saqlab qolinadi, yodgorliklarning shaharsozlik bobidagi ahamiyati mustahkamlanadi yoki qayta tiklanadi, ularni qo'rib, idrok etish shart-sharoitlari ta'minlanadi, tarixiy muhitga nomutanosib bo'lgan va yodgorliklar ahamiyatiga putur yetkazadigan inshootlar bartaraf etiladi, me'moriy jihatdan badiiy qiymatga ega bo'lgan ko'rkam muhit yaratuvchi gilam nus'ha ya'ni naqshindor

imoratlar imkon qadar to'liq saqlanadi, harob ahvoldagi binolar va ayrim qismlari asta-sekin yangilanishi yoki mahsus ravishda loyihalashtirilgan binolar bilan almashtirilishi mumkin;

b) havoni ifloslantiradigan, hamda yong'in havfi bo'lgan sanoat korxonalarini joylashtirish taqiqlanadi;

v) juda kamdan-kam hollarda va yodgorliklarni qo'riqlash idoralari bilan maslahatlashib tuzilgan loyihalar asosidagina muhandislik va transport inshootlari bunyod etishga yo'l qo'yiladi; shaharning tarixiy qismiga munosib kelmaydigan texnikaviy uslublar va shakllargina qo'llaniladi;

g) binolar tartibga solib turiladigan o'rnlarda imoratning vazifasiga, balandligi va uzunligiga, tuzilishiga, ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish xususiyatiga, tebranishga, bardoshligiga, qurilish ashyolari hamda ularni maqsadli usulda qo'llash va boshqa uslubiy imkoniyatlariga qarab chegaralab turiladi.

Tabiiy muhitning tarixiy manzarasi va tevarak-atrofdagi tabiat bilan aloqasini saqlab qolish va qayta tiklashni ta'minlashga da'vat etilgandir; ular hududida quyidagicha tartib-qoida o'rnatiladi:

a) tarixiy muhitni buzib ko'rsatadigan binolar va inshootlar bartaraf etiladi;

b) o'simliklar turi saqlab qolinadi va tartibga solib turiladi;

v) piyodalar uchun yo'laklar va maydonlar bunyod etiladi, biroq tabiiy manzarani ifloslantiradigan va buzadigan inshootlar qurilmasligi lozim.

Muayyan arxitektura yodgorliklarining qiymati unga ta'rif-tavsif bo'lib xizmat qiluvchi va o'zaro muntazam aloqada bo'lgan bir qator omillar bilan quyidagicha belgilanadi:

- arxitektura yodgorliklarining tarixiy qiymati;
- arxitektura yodgorliklarining shahar tarkibidagi o'rni;
- arxitektura yodgorliklarining bir-biriga nisbatan joylashuvi;
- arxitektura yodgorliklarining fizik holati;
- arxitektura yodgorliklarining dastlabki vazifasi.

Bu alohida arxitektura yodgorliklarining asosiy omillari o'zining tarkibiy belgilariga ega bo'lgan butun bir tizimni tashkil qiladi, bu belgilar quyidagilardan iborat:


### **1. Arxitektura yodgorliklarining tarixiy qiymati:**

- qurilgan vaqti, muallifi (mualliflari);
- mo'ljallangan vazifasi;
- shakliy-tuzilish xususiyatlari;
- badiiy ifoda vositalari;
- binoning noyobligi.

### **2. Arxitektura yodgorliklarining shahar tarkibidagi o'rni:**



- markazda;
- muhim joyda;
- shahar chekkasida;
- bog'lar orasida;
- shaharning tashqarisida;



**АРХИТЕКТУРА ЁДГОРЛИКЛАРИНИ АСОСИЙ СИФАТЛАРИ.**

### **3. Arxitektura yodgorliklarining bir-biriga nisbatan joylashuvi;**

- obidaning asosiy xususiyatlari;
- majmuaning ikkinchi darajali xususiyatlari;
- mustaqil holda joylashuvi.

### **4. Arxitektura yodgorliklarining fizik holati:**

- yaxshi holatda saqlangan;
- qisman ta'mirlashni talab qiladi;
- to'liq ta'mirlashga muhtoj;
- o'z holatida saqlab qolinishi lozim.

### **5. Arxitektura yodgorliklarining dastlabki vazifasi:**

- turar joy;
- diniy muassasa (masjid, madrasa, minora);
- fuqarolarga xizmat qiluvchi bino (hammom, rasadxona, karvonsaroy, rabod);
- savdo-sotiqqa mo'ljallangan (chorsu, toqi, timlar);
- o'quv muassasasi (madrasa);
- saroy;
- yodgorlikning obidasi (maqbara, xonahiq);
- muxandis inshooti (hovuz, sardoba, ariq).

Shunday qilib, yodgorlik bir maqsadga yoki sanab o'tilgan sifatlardan bir qanchasiga ega bo'lishi mumkin, bundan tashqari arxitektura yodgorligi ayni bir paytda ham tarix, ham madaniyat yodgorligi bo'la oladi.

Shahardagi tarixan shakllangan yodgorliklar uchun muhit bo'lib xizmat qiladigan va ular bilan birgalikda shaharning me'moriy uyg'unligini vujudga keltiruvchi ommaviy uy-joylar ham shunday bahoga munosib bo'lmog'i mumkin. Yodgorlik ustida olib boriladigan ishlar quyidagilardan iborat:

- arxitektura me'morchilik ansambl (go'sha)larini vujudga keltirish (bu uslub asosiy omillarni qiyoslashga va qo'riqlanadigan hududlarning ko'lamini aniqlashga asoslanadi);

- arxitektura yodgorliklarini zamonaviy vazifalarga moslashtirish (binoning dastlabki vazifasini hisobga olgan va hozirgi mo'ljallanayotgan xizmatini puxta o'ylagan holda) keltirib chiqaradi.

Bog'lar uchun qo'riqlanadigan o'ramlar amaldagi chegaralari doirasida belgilanadi. Alohida badiiy yoki tarixiy ahamiyatga ega bog'-istirohatgohlar majmui bundan mustasnodir. Bunday sayilgoh-istirohatgohlar uchun qo'riqlanadigan hududlar shu bog'ning yo'qolib ketgan qismlari qayta tiklanishini hisobga olib belgilanadi, saroy va qo'rg'on bog'-istirohatgohlar uchun qo'riqlanadigan o'ramlar

shu bog'ning yo'qolib ketgan qismlari qayta tiklanishini hisobga olib belgilanadi, saroy va qo'rg'on bog'-istirohatlari uyg'unligini tashkil etish uchun esa butun majmua uchun yaxlit qo'riqlanadigan o'ram hosil qilish zarur bo'ladi.

### **Shaharsozlikda muhofaza hududlarini tashkil etish tartibi.**

Shaharsozlikda tarixiy-me'morchilik tayanch rejasini tuzishda arxitektura yodgorliklarining muhofaza hududlarini tashkil etishda tadqiqot ishlarining asosiy usullari kuyidagi tartibda olib boriladi:

#### **1. Yodgorliklarning shaharsozlik, tarixiy-me'morchilik qiymatini aniqlash, binolar va inshootlarni tasniflash:**

- arxiv materiallari, hujjatlar va tarixiy manbalarga asosan tekshirish olib borib, unda muayyan hududni loyihalash va rivojlantirish to'g'risida qisqacha ma'lumot berish;

- shahar hududining ahvolini aslida tekshirib chiqish va saqlanib kelgan tarixiy-me'moriy hamda arxeologik nuqtai nazardan qiymatga ega barcha binolarni aniqlash va ularni tasniflash;

- ilmiy-nazariy tadqiqotlar asosidagi ma'lumotlarga qarab yodgorliklar doirasi chegaralab qo'yilgan joylarda shu yodgorliklarning aslini arxitektura va arxeologiya nuqtai nazaridan o'lchab chiqish;

- imoratlarning va mavjud an'anaviy tarixiy turar joylarning shaharsozlik bobidagi qiymatini aslicha tadqiq etish hamda ustuvor binolar va ularning barchasini muayyan kenglikdagi bog'liqligini aniqlash;

- eski mahallalar markazlarining qay darajada saqlanganligini va ular qanday vazifa bajarayotganligini tekshirib chiqish;

- ko'cha-yo'llar va boshi berk ko'cha shohobchasining ahvolini: kengligi, madaniy qatlamlarini, imorat xususiyatini, kengaytirish imkoniyatlarini, pasaytirish zaruriyatini tekshirish;

- shahar va viloyatning qadimiy-madaniy qatlamlari bo'lgan hududini aniqlab olish;

- shahar ichidagi tarixiy ulov-ko'lik, ya'ni transport va piyodalar yuradigan yo'llarni belgilash va shahar hududidagi ayrim joylar o'rtasida tarixda vujudga kelgan binolarning ma'lum masofadan ko'rinib turadigan aloqa vositalarini aniqlash;

- hududdagi tarixan shakllanib kelgan sug'orish shahobchalarini aniqlash;

- tadqiqotlar natijasiga qarab shaharning bosqichma-bosqich rivojlanib borganligini ko'rsatuvchi chizmasini tayyorlash;

- tadqiqotlarning sinab ko'rilgan ma'lumotlariga asosan shahar tarixiy qismining umumiy tayanch rejasini loyihasini ishlab chiqish.

**2. Tarixiy-me'moriy va arxeologiya nuqtai nazaridan qiymatga ega bo'lgan binolar, inshootlar va yodgorlik joylariga atab savol-javob varaqalarini tuzish:**

- tarix, arxitektura va arxeologiya yodgorliklariga doir ma'lumotlar;
- tarixiy-me'moriy qiymatiga beriladigan ta'rif-tavsif, shahar miqyosidagi o'rni;
- tarix va madaniyat yodgorligini qayd etish ma'lumotlari.

**3. Imoratlar qiymatini har taraflama tekshirib chiqish va tayanch rejasi loyihasini bajarish uchun takliflar tayyorlash:**

- hududning tarixiy rivojini tahlil etish va shakllanish bosqichlari (rivojlanish harakatlari);
- hududni zamonaviy nuqtai nazardan rejalashtirish, uning ko'lam tuzilishi va foydalanilishi;
- imoratlarning tarixiy me'moriy va arxeologiya nuqtai-nazaridan qiymati;
- hududning tabiiy manzarasi ta'rif-tavsifi;
- tarixiy ko'rinishi buzilgan hududlarni va qiymati kam imoratlarni belgilab chiqish;
- ular hududining chegaralarini belgilash.

**4. Shaharning tarixan shakllanib qolgan qismlarini saqlab qolishga doir takliflar:**

- aniqlangan tarixiy-me'moriy qiymatga ega binolar va inshootlarni davlat muxofazasiga olish uchun takliflar;
- tarixiy-badiiy qiymatga ega bo'lmagan, tarixiy muxitni buzib ko'rsatadigan, xamda tarix va madaniyat yodgorliklarini bemalol ko'rib, idrok qilishga xalaqit beradigan imoratlarni aniqlash;
- tarixiy - me'moriy ahamiyatga ega bo'lgan imoratlarni, hamda ayrim binolar va inshootlarni saqlash yuzasidan takliflar;
- tarixiy-me'moriy ahamiyatga ega binolar va inshootlardan zamonaviy maqsadlarda foydalanish;
- buzilayotgan va buzilgan hududlarni saqlab qolinayotgan hududlar ta'sirini xisobga olgan xolda rejalashtirish va qo'rish takliflari.

**5. Shaharning hozirgi ahvolini tekshirish natijalari asosida uning tarixiy-shaharsozlik rejasini tuzib chiqish: shaharning miqyos va kenglikdagi tuzilishida o'z aksini topgan rejalashtirilishini, imoratlari va shaharsozlik kompozitsiyasini o'rganish jarayonida shaharsozlik merosini uning butun o'zaro aloqalari va yaxlitligi bilan aniqlash;**

- saqlanib qolgan moddiy belgilarga qarab o'tmish merosining bugungi kun uchun ahamiyatini aniqlash (uzoq o'tmish bilan hozirgi davrimizni uyg'unlashtirish).

Tadqiqot natijasi asosida shahar tuzilishining muttasil rivojlanib borganligini rejalashtirishda va ulov-ko'lik, ya'ni transport aloqalarida xamda keng ko'lamli imoratsozlikda yuz bergan tarixiy o'zgarishlar jarayoni chizmasini tuzib chiqish, bu xolda shaharning hozirgi davrimizgacha yetib kelgan qismlarinigina emas, balki uning yo'qotib yuborilgan qismlarini va shahar tuzilishiga oid xususiyatlarini ham xisobga olish lozim.

Shaharning tarixiy-me'moriy bosh rejasini ishlab chiqishning asosiy usullari shaxarni xamda tumanlarni tarixiy arxitektura va shaharsozlik nuqtai nazaridan tadqiq etish natijasida tarixiy ya'ni zonalar tizimi ishlab chiqiladi, bu o'ramlar quyida gicha taqsimga ega bo'ladi:

### **1. Qo'riqlanadigan hududlar chegarasini va ulardan foydalanish tartibini belgilash:**

- qo'riqxonalar (tarixiy-me'moriy qo'riqxonalar);
- yodgorlikni qo'riqlash o'rami;
- tartibga solib turiladigan uy-joylar, binolar o'rami;
- qo'riqlanadigan tabiiy muxit o'rami;
- arxeologiya nuqtai-nazaridan tadqiqotlar o'tkazishni talab qiluvchi madaniy qatlam mintaqasi.

Bu hududlarning har birida binolar tarixi va arxitektura qiyofasining o'ziga xos xususiyatlarini xisobga olgan holda ulardan foydalanish masalalari hal etiladi. Shahar yoki tumanning tayanch rejasida inshootlarni tekshirish nuqtalarini belgilab qo'yish yo'li bilan ko'zga tashlanib turadigan o'ram kengroq ko'lamda belgilanadi.

Ayni paytda yerning past-balandligi, tarixiy inshootlar mavjudligi, keyin vujudga kelgan qatlam, qo'shimcha qurilishlar, binolar balandligida oshirib qurilishlar, daraxtlarning haddan tashqari bo'y cho'zib ketishi va x.k. o'ramning chegaralovchi omillari aniqlanadi.

### **2. Tarix, madaniyat va shaharsozlik yodgorliklari tasnifi belgilab chiqiladi (taklif tariqasida).**

- shaharning tarixiy qismi chegarasi qadimiy reja va inshootlarning yo'qolib ketgan belgilarini aniqlash (tarixiy muhitdagi binolar va imoratlarni qayta tiklash, hamda ulardan foydalanish yo'li bilan belgilab chiqiladi);

- shahar ichidagi transport va piyodalarga mo'ljallangan yo'llarning o'zaro bog'lanishi hamda shaharning tarixiy va tabiiy jihatdan ajralib turadigan alohida tumanlari o'rtasidagi miqyosiy-zohiriy ko'rinishdagi bog'liqlik ahvoli aniqlanadi.

**3. Umumiy xizmat ko'rsatish tarmoqlariga bo'lgan yalpi extiyojni xisobga** olgan xolda, shahar muxitida, tarix va madaniyat yodgorliklarining xozirgi holati va ulardan foydalanish ahvoriga tavsif beriladi (ulardan foydalanishga doir tavsiyalar).

Har bir tarix madaniyat yodgorligining qiymati arxitektura obidasini tavsiflovchi bir qator omillar bilan belgilanadiki, bunday obidalar qo'yidagi xususiyatlar bilan o'zaro uzviy bog'liqlikda bo'ladi:

- yodgorlikning tarixiy qiymati;
- yodgorlikning shahar tuzilishidagi tutgan o'rni;
- boshqa obidalarga nisbatan mavqeyi;
- yodgorlikning saqlanish holati;
- yodgorlikning dastlabki vazifasi;
- yodgorlik atrofidagi hududning obodonlashtirilganligi.

Tarixan shakllangan shahardagi arxitektura majmualarini qayta tiklash shahar qurilishining umumiy darajasini, o'tmish merosimizga bo'lgan munosabatini, jamiyatning moddiy texnikaviy negizini, uning kelajak to'g'risidagi g'amho'rlikni aks ettiradi.

Bizning bugungi avlodimiz O'zbekiston shaharlari tarixiy qismlariga yangicha qiyofa baxsh etish sohasida amalga oshirilayotgan sifat o'zgarishlarining shohidi bo'lmoqda. Bu o'zgarishlarning mohiyati shundan iboratki, eski shaharga xozirgi zamonaviy hayotning barcha jihatlari kirib kelib, sog'lomlashtiruvchi ruh bag'ishlayotganligi bilan bir paytda qanday saqlanib qolganligidan qat'iy nazar ayrim me'moriy yodgorliklarninggina emas, balki tarixiy shahar qurilishi - uy-joy mahallalari, fuqarolar uchun va mudofaa maqsadida bunyod etilgan inshootlar qurilishi madaniyatining mislsiz qimmatini aholining tobora kengroq qatlamlari anglab yetmoqdalar.

Kelajakda kutilayotgan o'zgarishlarni ishning ko'zini bilib baholashning murakkabligi bir qator holatlarga bog'liqdir. Moddiy madaniy yodgorliklar bir jam bo'lib joylashgan go'shalarni qo'riqlashga shaharsozlik nuqtai nazaridan yondoshishning nisbatan yangiligi, O'zbekiston shaharlarining Ovro'pa shaharlarida bo'lgani singari imoratga butunlay boshqacha qiyofa bag'ishlab, uning ichki tuzilishini ham to'liq zamonaviylashtirish tajribasini qo'llashga imkon bermaydigan o'ziga xos xususiyatlari ana shunday jihatlar sirasiga kiradi.

Shaharning tarixiy qismida joylashgan arxitektura majmualarini loyihalash nuqtai nazaridan har taraflama to'liq tadqiq qilish, shakllangan shahar ko'rinishini hamda tabiiy manzaraning betakror jihatlarni saqlab qolishga e'tiborni qaratadi. Lekin shunday bo'lsa-da, bizda katta yo'llar solishning me'yoriy usullarini tarixiy markazlarga nisbatan ham bemalol qo'llayverish odatiga barham berilmagan.

Masalan, Toshkentda eski shahar qismi bilan yangi shahar qismini qo'shish muammosi asosan 1966 yilgi zilzilaga qadar hal etilgan edi. Uning hozirgi zamonaviy shaharsozlikka xos darajadagi yechimi esa, amalda eski shaxarni katta yo'llar orasidagi hududlarga bo'lib tashlanishiga olib keldiki, ular doirasida eski ko'chalar shahobchasini saqlash mumkin bo'lmay qoldi. Bunda eski va yangi shahar o'rtasidagi tafovutni tugatish g'oyasiga to'g'ri yondashuv o'z ifodasini topdi.

Oldinda turgan vazifa esa ancha murakkab: qulay transport yo'llari tarmog'ini, saqlanib qolgan eski shahar muhitidan zamonaviy ko'p qavatli imoratlarga o'tilishini hal qila oladigan yerning past-balandligiga qarab pog'ona-pog'ona joylashtirilib, qulay rejalashtirilgan uy-joylar qurish zaruriyati yuzaga keladi.

Hozirgi paytda shaharlarning tarixiy qismlarini boshqacha qiyofaga kiritish darajasi bilan u yerlarda qilinayotgan ishlar orasida katta uzilish yuzaga kelgan. Tarixiy-madaniy jihatdan diqqatga sazovor joylar tobora ommalashib, ko'proq kishilar e'tiborini tortadigan bo'lib boryapdi. Tarixiy jihatdan qadri yuksak bo'lgan joylar muhitida, masalan Chorsu maydonidagi majmualar (Ko'kaldosh madrasasi yaqinida), Hazrati Imom, Shayhontohur me'morchilik majmui atrofida bir qator yangi binolar va inshootlarning paydo bo'lishi mazkur eski shahar o'zagining an'anaviy tartibi buzilishiga olib keldiki, bu o'sha maydonlar, yodgorliklar majmualari ansambllarini hoshiyalab, ularni eski shahar ko'chalari radiusidagi shahobchalarga aylantirish vazifasini ko'ndalang qo'ygan. Oqibatda tarixiy muxit birligi va yaxlitligiga, yangi imoratlar bilan eski binolar ko'lamidagi nisbatiga putur yetgan. Shu boisdan shaxarning tarixiy qismini qayta qurishning tayanch rejasida tarixiy joylar yangi daha va mahallalarni shakllantirish negizini tashkil qilmog'i lozim.

Shaharning tarixan qaror topib qolgan imoratlarini qayta qurish shahar birligini uning tadrijiy rivojlanishi o'zaniga burib yuborishga qaratilgan o'ta murakkab vazifadirki, bu bir-biriga tutash go'shalarining kutilayotgan kelajak taraqqiyot jarayonidagi faoliyatining mazmuniy va ijtimoiy jixatlarga tayanuvchi ilmiy asoslangan nuqtai-nazar bo'lishini talab qiladi. Shunday qilib, oldimizda turgan keskin muammolar munosabati bilan shaharlarning tarixiy qismlarini qayta tiklashga doir loyixalarini ishlab chiqish muhim masalalardan biridir. Bundan ko'zlangan maqsad shahar qiyofasini shakllantirishga xizmat qiladigan ko'lamda muzey-qo'riqxonalar tashkil qilish lozim.

Shahar tarixiy qismiga taalluqli har taraflama yaxlit tarixiy-me'moriy shaharsozlik tayanch rejasi loyiha ishlab chiqish uchun asosiy birlamchi hujjat rejasi vazifasini o'taydi. Bu loyiha ishi har taraflama quyidagi manbalarga asoslangan hujjatlarni ishlab chiqish bilan belgilanishi kerak:

a) tarixiy-jo'g'rofiy va axborot manbalarida, jumladan xo'jalik sohasiga oid har xil qonun hujjatlarida bayon etilgan shahar tuzilishiga doir ma'lumotlarga;

b) madaniyat va shaharsozlik tarixiga taalluqli, hozirda mavjud barcha turdagi yodgorliklarning soni, qayerda joylashganligi va ahvoli to'g'risidagi manbalarga;

v) shahardagi umumiy imoratlar va zamonaviy me'morchilik xususiyatini ko'rsatib beruvchi ma'lumotlarga.

Vazifaning o'ziga xosligi munosabati bilan yuqoridagi "a" bandeda bayon etilgan ma'lumotlar birinchi darajali ahamiyat kasb etadiki, bu ma'lumotlar eski shaharning tarixiy shaharsozlik bobidagi mohiyatini ochibgina qolmay, balki saqlanib qolgan har bir yodgorlikning o'rni va ahamiyatini ham aniqlab berishi lozim bo'ladi. Birlamchi ma'lumotlar har taraflama qamrovli bo'lishini belgilab beruvchi bunday hujjatni yaratish shaharni bosqichma-bosqich shakllantirib va rivojlantirib borish tuzilmalarini qayta tiklash bilan bog'liq ko'plab tarixiy shaharsozlik yodgorliklarini teran va atroflicha nazariy tadqiq etishni talab qiladi.

Rejalashtirish va uning amaliy ijrosini tashkil qilishni qulay hal etish maqsadida belgilangan ishlar majmui uch qismga bo'linib, ular mazmunan quyidagicha nomlangan mustaqil dasturlarga bo'linadi:

- tarixiy shaharsozlik tayanch rejasi;
- bosh reja va shahar tarixiy qismining tumanlarga bo'lingan rejasi;
- shaharning tarixan shakllanib qolgan ko'lam kengliklari va reja asosida tuzilishini qayta qurish tamoyillari (texnikaviy-iqtisodiy asoslar - TEO);

Loyiha ishida shaharning tarixan shakllanib kelgan tarixiy, shaharsozlik va arxitektura yodgorliklari qismini saqlab qolish ko'zda tutilmog'i kerak, chunki undagi qurilishlarni ochishga doir barcha masalalar tarixiy-madaniy merosni asrash shartlari vositasida tartibga solib turilishi lozim.

Yuqoridagi yondoshish va qoidalar asosida maxsus loyiha ishlari olib boriladi, jumladan, loyiha tuzib chiqishda quyidagi masalalar yoritiladi:

1. Qo'riqlanadigan o'ramlar shaharning bosh loyihalarida chizib ko'rsatiladi.
2. Qo'riqlanadigan o'ramlar chegarasi rejada 1:500 ko'lamida yoki batafsil rejalashtirish va obodonlashtirish loyihasini ishlab chiqishda 1:1000 ko'lamida aniqlashtirib ko'rsatiladi.

3. Loyihaning dasturiy topshirig'i quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olmog'i lozim:

- binoning tarixiy tavsifi;
- yodgorlik va hududni qo'riqlash, o'rganishga va ulardan foydalanishga doir mo'ljallanayotgan tadbirlarning aniq-ravshan ta'rif-tavsifi;



- shaharsozlik yodgorliklarining mo'ljallangan ta'mirlanishiga doir loyiha ma'lumotlari;

- umumshahar qurilishi rejasida tumanning ko'zda tutilayotgan ta'mirlash ishlariga doir loyiha ma'lumotlari va boshqa talablar.

Ushbu loyiha ishlari (aniq-real loyiha asosida) ixtisoslashgan loyiha tashkilotlarida, tarixiy shaharlarda joylashgan arxitektura majmualarini qayta tiklash va yodgorliklarni ta'mirlash loyihalari bilan bir qatorda kompleks asosida ishlab chiqilmog'i lozim.

Shunday qilib, O'zbekiston shaharsozligida muhofaza hududlarini tashkil etishda qator muammolarni hal qilish imkonini beruvchi, xatto ularning yuzaga kelishini bartaraf qiluvchi o'ziga xos reja ishlab chiqarish talab etiladi va undan tashqari olib borilgan ilmiy-tadqiqotlarni tahlil qilish natijasida me'moriy yodgorliklarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish muammolarini yechiladi, hamda muhofaza hududlarini tashkil etish vazifasi, tarixiy shahar markaziy qismining me'moriy qiyofasining tuzilishi, silueti va o'ziga xosligini saqlash, tarixan shakllangan shahar atrof muhitining uyg'unlashgan birligini yaratiladi.

Bundan tashqari me'moriy yodgorliklarini saqlash uchun va uning atrof muhit bilan va shahar zamonaviy majmuasi bilan rejalashtirilgan aloqalarini mustahkamlash uchun tarixiy muhitlar belgilanadi.

### **Takrorlash uchun savollar.**

1. Arxitektura yodgorliklarining qo'riqchalarini tashkil etishda ilmiy tadqiqotning asosiy turlariga nimalar kiradi?
2. Arxitektura yodgorliklarining muhofaza hududlarini ishlab chiqishda nimalarga e'tibor berish kerak?
3. Qo'riqchalardagi arxitektura yodgorliklaridan foydalanishda asosiy vazifalar nimalarda iborat?
4. Arxitektura yodgorliklarining muhofaza hududi rejasini va shaklini tuzishda nimalar e'tiborga olinadi?

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O.M. Salimov. Magistrlik dissertatsiyasini yozish bo'yicha uslubiy qo'llanma. T., 2003. 24 bet.
2. X.Sh. Po'latov, A.S. Urolov. Arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash va qayta qurish. O'quv qo'llanma. T., 2002. 85 bet.

**ME'YORIY XUJJATLAR**  
**MODDIY MADANIY MEROS OBYEKTLARIGA EGALIK QILISH,**  
**ULARDAN FOYDALANISH VA ULARNI TASARRUF ETISH**  
(23-modda)

Moddiy madaniy meros obyektining mulkdori o'ziga qarashli bo'lgan moddiy madaniy meros obyekti yo'qotilsa uning o'rni to'ldirib bo'linmasligini hamda uning tarixiy, madaniy yoki ilmiy, ahamiyatini hisobga olgan holda, uni saqlab turish vazifasini zimmasiga oladi.

Moddiy madaniy meros obyektlari joylashgan yer uchastkalarining egalari (mulkdorlari) zimmasiga mazkur obyektlarni saqlab turish vazifasi, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar yuklanishi mumkin.

Moddiy madaniy meros obyektining ijarasi ijara shartnomasi asosida amalga oshirilib, unda moddiy madaniy meros obyektini saqlash talablari qayd etilgan bo'lishi kerak. Davlat mulkida turgan moddiy madaniy meros obyektlari davlat tasarrufidan chiqarilishi va xususiylashtirilishi mumkin emas.

**Moddiy madaniy meros obyektlaridan foydalanish(24-modda)**

Moddiy madaniy meros obyektlarining mulkdorlari bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar:

- moddiy madaniy meros obyektining tashqi va ichki ko'rinishini moddiy madaniy meros obyektining pasportiga kiritilgan muhofaza mazmuni ma'lumotlariga muvofiq holda saqlash;
- moddiy madaniy meros obyekti hududining chegaralarida yerqazish, yertuzish, qurilish, meliorasiya, xo'jalik ishlari vaboshqa ishlarni o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligining ruxsatnomasini olish;
- alohida muhofaza qilinadigan tarixiy-madaniy hududlarni saqlab turish tartibotini ta'minlash;
- moddiy madaniy meros obyektining mulkdori tomonidan belgilanadigan shartlardagi moddiy madaniy meros obyektining hamma uchun ochiqligi talablarini albatta bajargan holda ularning asralishini ta'minlashga majburdirlar.

## **Moddiy madaniy meros obyektidan foydalanish huquqlarining cheklanishi (25-modda)**

Moddiy madaniy meros obyektidan foydalanish shartlari O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tomonidan mazkur moddiy madaniy meros obyektining, uning tevarak atrofidagi tabiiy muhitning muhofaza qilinishi, asralishi, targ'ib qilinishi va undan foydalanilishi uchun, jismoniy va yuridik shaxslar, shuningdek davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi uchun qay darajada zarur bo'lsa, shu darajada cheklanishi mumkin.

Xususiy mulkda turgan moddiy madaniy meros obyektidan foydalanish huquqi qonunda nazarda tutilgan hollarda sud qarori bilan cheklanishi mumkin.

## **ALOHIDA MUHOFAZA QILINADIGAN TARIXIY-MADANIY HUDUDLAR**

### **Alohida muhofaza qilinadigan tarixiy-madaniy hududlarni tashkil etish (29-modda)**

Moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastriga kiritilgan alohida tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan moddiy madaniy meros obyektlari hududida alohida muhofaza qilinadigan tarixiy-madaniy hududlar tashkil etilishi mumkin.

Alohida muhofaza qilinadigan tarixiy-madaniy hududlar tarixiy-madaniy qo'riqxonalar, muzey-qo'riqxonalar, tarixiy manzilgohlar ko'rinishida va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa shakllarda tashkil etiladi.

Alohida muhofaza qilinadigan tarixiy-madaniy hududlarni tashkil etish tartibi hamda ularni saqlash tartiboti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

### **Tarixiy-madaniy qo'riqxonalar (30-modda.)**

Diqqatga sazovor joy yoki uning bir qismi hamda shu tegrada joylashgan yodgorliklar va ansambllar birgalikda tarixiy-madaniy qo'riqxonaga hisoblanib, unda alohida tartibot o'rnatiladi. Bu tartibot moddiy madaniy meros obyektlari tevarak atrofidagi tarixiy muhit bilan birga asralishini, tarixiy-madaniy qo'riqxonaga hududining yaxlitligini, shuningdek mazkur hudud chegaralarida qurilish va xo'jalik faoliyati tartibga solib turilishini ta'minlaydi.

Tarixiy-madaniy qo'riqxonaga va u bilan bog'liq tabiiy landshaft tarkibiga

kiruvchi moddiy madaniy meros obyektlarida muzeylar yaratilsa, shuningdek tarixiy-madaniy qo'riqxonada hududida ilgari udum bo'lgan an'anaviy xo'jalik faoliyatini va boshqa faoliyatni tiklash zarurati tug'ilsa, mazkur tarixiy-madaniy qo'riqxonada muzey-qo'riqxonada deb hisoblanadi.

## **O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISHGA INNOVASION YONDASHUV VENN DIAGRAMMASI METODI**

**Metodning maqsadi:** Bu metod grafik tasvir orqali o'qitishni tashkil etish shakli bo'lib, u ikkita o'zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko'rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

### **Metodni amalga oshirish tartibi:**

-ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko'rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o'ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralari ichiga yozib chiqish taklif etiladi;

-navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to'rt kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiriladi va har bir juftlik o'z tahlili bilan guruh a'zolarini tanishtiradilar;

-juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko'rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

### **Namuna: Arxitektura yodgorliklarini muhofaza qilish bo'yicha**



O'qituvchi magistrantlarga besh minut vaqt davomida **“Yodgorliklarni asosiy buzilish sabablsri”** haqida bilganlarini daftarlariga yozishni so'raydi. Vaqt tugagach, ba'zi magistrantlardan yozganlarini o'qib berishni so'raydi. Vaqtdan yutish uchun qolgan magistrantlar avval o'z yozganlarini o'qib bergan magistrantlarnikiga o'xshamagan fikrlarini aytishlari mumkin.

## **MUSTAQIL ISH BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR**

Arxitektura yodgorliklarining muhofaza hududlarini tashkil etish usullaridan mustaqil ta'lim ishlari bo'yicha topshiriqlar:

- arxitektura yodgorliklarning shaharsozlikdagi o'rni, ularni saqlash va foydalanish bo'yicha hukumat qarorlari;
- arxitektura yodgorliklarini muhofaza qilishning nazariy asoslari va vazifalari;
- shaharsozlikda me'moriy majmualarni qayta tiklash loyahasini yaratishdagi tadqiqot usullari;
- arxitektura yodgorliklarida kuzatuv ishlarini olib borish;
- arxitektura yodgorliklari, ansambllarning uyg'unligini aniqlashda tadqiqot ishlari olib borish;
- tarixiy-me'moriy shaharsozlik tayanch rejasini tuzish usullari; tarixiy shahar markazlarini qayta tiklashda loyihalashning asosiy vazifalari;
- shaharning tarixiy-me'moriy bosh rejasini ishlab chiqishning asosiy usullari;
- tarixiy shaharlarda qo'riqxonalarni tashkil qilishda ilmiy-tadqiqotning asosiy turlari;
- muhofaza hududlarini tashkil etishning umumiy qonun-qoidalarini;
- muhofaza hududida qo'riqxonalarni tashkil etish vazifalari;
- tarixiy me'moriy qo'riqxonani tashkil etish;
- tarixiy “hududlar” tizimini ishlab chiqish; shaharsozlikda tartibga solib turiladigan qurilish va “kuzatuv” maydonlarni tashkil etish usullari.
- qo'riqxonani hududi;
- qo'shimcha bino hududi;
- qo'riqlanayotgan landschaft hududi.
- shaharning rejayiy tuzilmasini uning shakllanish tarixiy jarayonida o'rganish va xususiyatlarini aniqlash;
- morfologik tuzilmani o'rganish va aniqlash;
- yodgorliklarning shahar qurilishi xususiyatlarini o'rganish va aniqlash;

- transport kommunikasiyalari tizimining ma'qul variantlarini o'rganish va aniqlash;

- tashqi ko'rish nuqtalarini hisobga olgan holda shahar majmuasini tahlil qilish va variantlar tanlashda tavsiya berish;

- shahar tuzilmasida asosiy binolar joylashishini va yetakchi binolar orasidagi kuzatuv aloqalarni aniqlash;

- yodgorliklar va tashqi qurilishlar masshtab munosabatini aniqlash;

- hududni hisoblab chiqish va uni tarxda qurish;

- muhofaza hududlarini tashkillashtirishning aniqlashtirilgan tamoyillari;

- Buxoro arxitektura yodgorliklarini loyihalashtirish usullarini tekshirish;

- funksional vazifasi bo'yicha ishlab chiqilgan tasnifidan olingan qoniqarli natijalarni loyihalashtirish tajribasida qo'llash va tavsiya etish imkonini yaratish..

Tarixiy shaharlar markazlari sharoitlariga mos keluvchi qo'shimcha binolar uchun qurilish olib borishning aniqlashtirilgan formulasi keltiriladi.

## Terminlar lug'ati

- Modernizasiya** - zamonaviy talablarga javob beruvchi o'zgartirish, mukammallashtirish.
- Regenerasiya** - shaharsozlik kompleksining me'moriy-badiiy boyliklarini tiklash.
- Revalorizasiya** - binolar modernizatsiyasi va rekonstruksiyasi yechimlarini to'liqroq muvofiqlashtirish zaruriyati.
- Kompleksnaya sanasiya** - hududlarni puturdan ketgan, kam qiymatli qurilmalardan tozalash, hovli maydonlarini obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish, me'yoriy sanitar sharoitlarga xalaqit beruvchi binolarni buzish.
- Revitalizasiya** - tarixiy-madaniy merosni saqlash va samarali foydalanish maqsadida shaharsozlik kompleksi vazifalarining mukammallashuvi.
- Rekonstruksiya** - me'morchilik, haykaltaroshlik, amaliy san'at, shuningdek shahar, qishloq yodgorliklarining (arxeologiyada) dastlabki qiyofasini tiklash.
- Konservasiya** - arxeologik predmetlarni, ularning to'liq va uzoq saqlanishini ta'minlovchi sharoitlarda saqlash.

## Словар терминов:

- Модернизация** - изменение, усовершенствование, отвечающее современным требованиям.
- Регенерация** - возрождение восстановление архитектурно-художественной ценности градостроительного комплекса.
- Ревалоризация** - необходимость более полкой увязки решения модернизации и реконструкции зданий.
- Комплексная санация** - расчистка территорий от ветхих, малоценных строений с благоустройством и озеленением дворовых пространств, снос зданий, препятствующих нормальным санитарным условиям.

**Ревитализация** - овершенствование функций градостроительного комплекса с целью сохранения и эффективного использования историко-культурного наследия.

**Реконструкция** - восстановление первоначального облика памятника (в археологии) архитектуры, скульптуры, прикладного искусства, а также города, селения и т.д.

**«Arxitektura yodgorliklarining muhofaza hududlarini tashkil etish usullari»**

fanidan o'zlashtirish natijasini mustahkamlash bo'yicha savollar va javoblar.

<b>№ №</b>	<b>Savollar</b>	<b>B</b>	<b>Savollarga doir javoblar</b>
1.	Arxitektura yodgorliklarini saqlash bo'yicha qanday qonun va qarorlarni bilasiz?	2	“Madaniy yodgorliklarni saqlash va foydalanish” to'g'risida O'zb. R. qonuni. 30.08.2001y., “Shaharsozlik kodeksi”, O'zb.R. qonuni asosida 04.04.2002y. tasdiqlangan., “O merax po dalneyshemu sovershenstvovaniyu oхраны i ispolzovaniy obyektoy kulturnogo naslediya” to'g'risidagi O'zb.R. Vazirlar mahkamasi tomonidan 29.07.2002y. 269-sonli qarori.
2.	“Revalorizasiya” degan-da nimani tushunasiz	2	Tarixiy shaharsozlikda arxitektura, majmua va ansamblarning badiiy ko'rinishini tiklash
3.	Arxitektura yodgorlik-larining turlari qan-day bo'lishi mumkin?	2	Saroylar, ma'muriy binolar, xonaqoh, minora, masjid, madrasa va savdo binolari. Arxeologiya topilmalari, devoriy rasmlar, qalalar, tepaliklar va boshqalar.
4.	Yodgorliklarning muhofaza hududlarini tashkil etish shart sharoitlari nimalardan iborat?	2	Tadqiqot ishlari. Shaharning tarixiy hududida joylashgan arxitektura yodgorliklarini tahlil qilish. Ta'mirlash va moslashtirishga bag'ishlangan loyiha ishlari. Bajarilgan loyiha ishlari bo'yicha yozma va tushuntirish ishlaridan.



5.	Yodgorliklarni yangi vazifaga moslashtirish uchun nimalarga e'tibor berish lozim?	2	Iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligiga. Nafosat nuqtai jihatidan muvofiqligiga. Yodgorlikning ashyoviy daliliga. Muxandislik tarmoqlariga. Yodgorliklarning turiga qarab.
6.	Shaharning tarixiy arxitekturasini saqlash bo'yicha loyihaviy tadbirlar nimalardan iborat?	2	Tarixiy hududlar rejimining xarakterlarini belgilash. Qurilish ishlarini tartibga solish. Qo'riqxonahududlanini tashkil etish maqsadi. Shahar rejasini va tarixiy muhitda yangi binolar barpo qilish. Obodonlashtirish, kichik me'moriy shakllar
7.	"Modernizasiya" deganda nimani tushunasiz?	2	O'zgartirish kiritish. Zamonaviy talablarga javob berish.
8.	Zamonaviy shaharsozlik-da muhofaza hududlari vazifalarida nimalarga e'tibor berish kerak?	2	Arxitektura yodgorliklarining atrof muxitiga. Atrofdagi qurilishlarning ko'rinishiga. Boshqa qurilishlar bilan yodgorliklar orasidagi masofaga. Transportga. Obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirishga.
9.	Zamonaviy shaharsozlik-da ansambllarning yangi vazifalarida nimalarga e'tibor berish kerak?	2	Shahar atrof muxitiga. Ansamblning tuzilishiga (kompozitsiyasiga). Ansamblning shakli(silueti)ga. Xissiy muxitga. Muhofaza maydoniga.
10.	"Rekonstruksiya" degan-da nimani tushunasiz?	2	Arxitektura yodgorliklarining dastlabki ko'rinishini qayta tiklash.
11.	Arxitektura yodgorliklaridan foydalanish uchun nimalarga e'tibor berish kerak?	2	Vazifasiga. Shakli(badiiy timsoli)ga. Bor holatida saqlash(konservasiya)ga. Muzei ko'rgazmasiga. Tomosha manbaiga. Tiklash(ta'mirlash)ga. Diniy inshootlardan foydalanishga. Dastlabki vazifasi va badiiy timsolini saqlash va rivojlantirishga.

12.	“Revitalizatsiya” deganda nimani tushunasiz?	2	Shaharsozlikda tarixiy madaniy yodgorliklarni saqlash va ulardan foydalanish.
13.	Muhofaza hududlarini tashkil etish loyihasi nima uchun bajariladi?	2	Tarixiy yadroning shakllanish qonuniyatlariga. Tarixiy shahar markaz majmuasida yodgorliklarning vazifasi va ularning ahamiyatiga. Shahar muhitining morfologik ko’rinishlariga.
14.	Muhofaza hududlarining asosiy vazifalari nimadan iborat?	2	Qarovsiz qolgan arxitektura yodgorliklari ustida tadqiqot ishlari olib borish. Tamirlash ishlarini bajarishdan oldin. Zamonaviy maqsadlarda to’g’ri foydalanish.
15.	Muhofaza hududida konsepsiyalarni shakllantirish deganda nimani tushunasiz?	2	“Yodgorlik” tushunchasining kengayishi, diqqat mar-kazini alohida yodgorliklardan butun bir arxitektura muhitiga qaratish. Yodgorliklarni saqlashga nisbatan e’tibor. “Venesiya xartiyasi” (1964 yil).
16.	Muhofaza hududida bajariladigan amaliy ishlar nimadan iborat?	2	Ilmiy tadqiqot amaliyoti davrida arxitektura yodgorliklari ustida amaliy mashg’ulotlar o’tkazishdan iborat.
17.	Arxitektura yodgorliklarining muhofaza hududlarini tashkil etish uslublari nimalardan iborat?	2	Tadqiqot ishlari. Shaharning tarixiy hududida joylashgan arxitektura yodgorliklarini tahlil qilish. Ta’mir va moslashtirishga bag’ishlangan loyiha ishlari. Bajarilgan loyiha ishlari bo’yicha yozma tushuntirish ishlaridan iborat..
18.	Tarixiy shaharning markaziy hududida joylashgan yodgorliklar- ni saqlashda nimalarga e’tibor berish kerak?	2	Tarixiy muxitiga va elementlarini aniqlashga. Maydonini o’rganishga. Qayta qurishning asosiy tamoyillariga. Binolarning strukturasi, qadriyatlariga va zamonaviy funksiyalariga. Tarixiy binolarni yangi funksiyalarga moslashtirishga.
	Shaharda		Yodgorliklarning shaxsiy sifatlariga.

19.	arxitektura yodgorliklarini davrlarga bo'lishda nimalarga e'tibor berish kerak?	2	Xususiyatlarini klassifikasiyalashga. Shaharsozlik ansamblidagi roliga. Arxitektura yodgorliklarining ro'yxatiga. Shaharda yalpi qurilishlarning uzviy bog'likliklariga.
20.	Tarixiy shahar markazlarida joylashgan yodgorliklar ustida muhofaza hududi loyiha ishlari haqida ma'lumot bering.	2	Shaharning tarixiy tayanch rejasi. Shahar tarixiy hududlarining tizimi va yodgorliklarni analitik tadqiq qilishning hajmi, tarkibi va xarakteri. Ta'mirlash loyihasi. Yodgorlikning batafsil loyihaviy rejasi va uning fragmentlarini qayta tiklash. Yodgorliklarni ta'mirlash va ulardan foydalanish.
21	Arxitektura yodgorliklarini muhofaza qilishning nazariy asoslari nimalardan iborat?	2	Arxitektura yodgorliklarining tarixiy ahamiyati va shaharsozlikdagi o'rni. Shaharsozlikda me'moriy majmualarni qayta qurish loyihasini yaratishdagi tadqiqot usullari. Arxitektura yodgorliklarida kuzatuv ishlarini olib borish.
22.	Yodgorliklarining tari-xiy ahamiyati va zamon-aviy shaharsozlikdagi o'rni deganda nimani tushunasiz?	2	Hozirgi zamon ijtimoiy fanlari bilan aloqada bo'lishini. Me'moriy yodgorliklarini saqlash va foy-dalanish to'g'risidagi qonunni bilishi. Yodgorliklar-ning ilmiy va amaliy ahamiyatini. Yodgorliklarning turlari va ularning rivojlanish bosqichlarini.
23.	Arxitektura yodgorlik-lari ustida amaliy ish-lar bajarishda nimalar-ga e'tibor berish lozim?	2	Ilmiy tadqiqot ishlari. Yodgorliklarning barpo bo'lish tarixini o'rganish. Yodgorliklarning asosiy shaharsozlik xususiyatlari, binolarning uyg'unligi. Yodgorliklarni qayta tiklashdagi asosiy vazifalar.
24.	Tarixiy shahar markaz-larida joylashgan arxi-tekturna obidalari ustida kuzatuv	2	Yodgorliklar va ansambllar uyg'unligiga. Kuzatuv nuqtalarini aniqlash usullariga. Muhofaza hududi rejasini tuzishda yodgorlikni kuzatish nuqtalarini belgilashga. Yodgorliklarni kuzatishda halaqit beruvchi imoratlarni aniqlash shartlariga.

	ishla-rini olib borishda nimalarga e'tibor berish kerak?		Yodgorliklarning vizual ko'rinishini tashkil etishga.
25.	Muhofaza hududlarida yodgorliklar uyg'unligi-ni aniqlashdagi nima-lar e'tiborga olinadi?	2	Yetakchi ahamiyatga ega bo'lgan yodgorliklarni tahlil etish. Shaharsozlik tayanch rejasini tuzish va usullariga. Tarixiy shahar markazlarini qayta tiklashda loyihalashning asosiy vazifalariga.
26.	Tarixiy shaharlarning tuzilishida yetakchi ahamiyatga ega bo'lgan yodgorliklar majmuasini tahlil qilishda nimalarga e'tibor berish kerak?	2	Ansambllarni tashqi nuqtalardan va turistik yo'nalishlardan ko'rinishini aniqlashga. Yetakchi imoratlar o'rtasida aloqalar mavjudligiga. Tashqaridagi turizm yo'nalishlaridan turib, tarixiy imoratlar va ansambllarning uyg'unligini kuzatish imkoniyatini yaratish usullariga.
27.	Yodgorliklarning muhofaza hududlari loyahasini tuzishda nimalarga e'tibor berish kerak?	2	Arxitektura yodgorliklarining shaharsozlikdagi tarixiy qiymatini aniqlashga. Tarixiy arxiv materiallari ustida tadqiqot ishlari olib borish so'rovnomalari va javob varaqalari asosida aholidan anketa yig'ishga. Binolar qiymatini aniqlash va takliflar tayyorlashga.
28.	Arxitektura yodgorliklarini qayta tiklashda asosiy vazifalar nimalardan iborat?	2	Arxitektura yodgorliklarini ta'mirlashda, qayta tiklash jarayonida tadqiqot ishlari olib borish. . Loyihalash chizmalarida moslashtirish rejasini tuzish tizimlarini belgilash usullariga. Loyiha ishlarini ekspertizadan o'tkazish.
29.	Arxitektura yodgorliklarini saqlashda nimalarga e'tibor berish lozim?	2	Yodgorliklar atrofida qo'riqxonalarni tashkil qilishda ilmiy tadqiqotning asosiy turlariga. Muhofaza hududida qo'riqxonalarni tashkil etishning umumiy qonun qoidalari va vazifalariga.

30.	Arxitektura yodgorlik-larining muxofaza hududlarini ishlab chiqishda nimalarga e'tibor berish kerak?	2	Arxitektura yodgorliklaridan zamonaviy maqsadlarda foydalanish uchun tavsiyalar belgilash omillariga. Loyihani texnik iqtisodiy jihatdan asoslashga. Tashqi taqrizga berish, ekspertizadan o'tkazish va uni keng mutaxassislar kengashida himoya qilishga.
31.	Arxitektura yodgorlik-larining qo'riqxonalarini tashkil etishda ilmiy tadqiqotning asosiy turlariga nimalar kiradi.	2	Qo'riqxonalarini tashkil etishda arxitektura yodgorliklarining sifatleri, asosiy omillari va tarkibiy belgilari. Tarixiy ahamiyati va vazifalari. Boshqa yodgorliklarga nisbatan joylashuvi. Yodgorlikning fizik holati. Dastlabki vazifasi. Qo'riqlanadigan o'ramlarning ko'lami.
32.	Muhofaza hududlarini tashkil etishning umumiy qonun qoidalarida nimalarga e'tibor berish kerak?	2	Arxitektura yodgorliklar, ansambllar, majmualarni saqlab qolishga. Muhofaza hududlarini tashkil etish loyihasini yaratishda qo'riqxonalar ustida tadqiqot ishlarini olib borishga. Arxiv ma'lumotlari, tarixiy bibliografik ma'nalarga. Shahar qurilishida turli davr loyiha rejalarini o'rganishga.
33.	Muhofaza hududida qo'riqxonalarini tashkil etish vazifalari nimalardan iborat?	2	Tarixiy me'moriy qo'riqxonalarini tashkil etish. Tarixiy shahar markazlarida tadqiqot ishlari olib borish usullari. Tarixiy "zonalar" maydonlar tizimini ishlab chiqishdan iborat.
34.	Qo'riqxonalar tizimining qanday turlari bor?	2	Tarixiy me'moriy qo'riqxonalar. Yodgorlik qo'riqlanadigan maydon. Tartibga solib turiladigan qurilish maydoni. Qo'riqlanadigan muhit hududi. Vizual maydonni tashkil etish usullari.
35.	Arxitektura yodgorlik-lari muhofaza hududlarini va shaklini belgilashda nimalarga e'tibor berish kerak?	2	Obodonlashtirish ishlariga. Sayyohlar uchun qulay shart sharoitlar yaratishga. Arxitektura yodgorliklarini ta'mirlashda dastlabki vazifalarni xisobga olgan holda ulardan zamonaviy maqsadlarda foydalanish usullariga.

36.	Tarixiy shahar markazlari deganda nimani tushunasiz?	2	Tarixiy shaharlarning XX asrning boshlarigacha zich joylashgan, markaz sifatida ijtimoiy holatini saqlab qolgan qismini.
37.	Muhofaza hududlari muammosini hal qilish uchun eng asosiy muammolardan iborat?	2	Arxitektura yodgorliklaridan zamonaviy maqsadlarda foydalanish masalasi eng dolzarb muammolardan biri bo'lib xisoblanadi.
38.	Muhofaza hududida yodgorliklarning tarixiy ahamiyati nimalardan iborat?	2	Badiiy qiymatlarini aniqlash. Moslashtirishning me'moriy rejaviy yechimi. Yodgorlik klassifikatsiyasi. Funktsional guruhlariga ajratishdan iborat.
39.	Yodgorliklarning yangi vazifasini aniqlash uchun qanday ishlar bajariladi?	2	Rejaviy yechimining tuzilish xususiyatlari aniqlanadi. Obyektning tarixiy me'moriy biografiyasi, ta'mirlash loyihasi to'g'risida ma'lumotlar. Moslashtirishning iqtisodiy va mantiqiy maqsadlarga muvofiqligi.
40.	Yodgorlikdan foydalanish uchun qanday vazifalar va yechimlar bajariladi?	2	Yodgorlikning tuzilish xususiyatlari. Moslashtirishda ichki ko'rinishlar loyiha yechimlari. Qo'riqxonalar tashkil etish usullari. Zamonaviy maqsadlarda foydalanishning uslubiy asoslari. Interyerlarning zamonaviy yechimlari va uslublari. Yangi funksiyaga moslashtirish loyihalarining asosiy yechimlari.
41.	Muhofaza hududidagi yodgorliklarni moslashtirishda yodgorliklarning tuzilishi nimalardan iborat?	2	Turistlar uchun qulay sharoitlar yaratish. Yodgorlikning xajmiy rejaviy yechimi. Konstruktiv va qiyofa tasnifini iloji boricha saqlab qolish.. Yodgorlikning faoliyat ko'rsatishda noma'qul tartibga keltirib chiqaruvchi ishlab chiqarish jarayonini bartaraf etish. Yodgorlik uchun rejalashtirish, o'zgartirishlarni talab qilmaydigan vazifalarni ta'minlash.
	Muhofaza hududidagi		Zamonaviy mebellar va jixozlar bilan interyerning ko'rinishini va tarixiy tiklanishini hal etish.

42.	yodgorliklarni moslash-tirishda ichki ko'rinish-larning loyiha yechimlari nimalardan iborat?	2	Stilizasiya. Etnografik aniqlik. O'tmishning ba'zi ko'rinishlarini moslashtirish. Keskin farq qiluvchi kontrast uslublari. Nozik farqli nyuans uslublari.
43.	Moslashtirish loyiha yechimlarida qo'riqxonalar-ni tashkil etish usullarida qanday amallar bajariladi?	2	Hududiy chegara, atrof muhitni tashkil etishda kompozision jihatdan yot bo'lgan elementlardan saqlash. Atrof muhitda muhofaza hududini tashkil etish. Tarixiy landshaftni tiklash. Vizual bog'lanishni ishlab chiqish usullari bajariladi.
44.	Shaharsozlikda muhofaza hududlarining uslubiy asoslari nimalardan iborat?	2	Shaharsozlikda tabiiy, madaniy va moddiy muxitni saqlashning umumiy masalalarini hal etish. Tarixiy yodgorliklar darajasining o'ziga xos yechimlari va ulardan foydalanish vazifasi. Foydalanishda shahar tizimining tarixiy me'moriy morfologik tahlili. Binolarning yodgorliklarga ta'sir ko'rsatuvchi hududlarini aniqlash.
45.	Muhofaza hududidagi yodgorliklar interyerlarining zamonaviy yechimi va uslublarida qanday amallarga e'tibor beriladi?	2	Kontrast yechimlarning mebel va jihozlar shaklida zamonaviylik va geometrik shakllar eski arxitektura shakli bilan keskin farqi. Nyuans yechimi mebel va jihozlar shakllarining o'ziga xosligi. Interyerlarni loyihalashda kompozision va plastik chiziq xususiyatlarining tahlili. Konstruktiv uslub. Dekorativ shakllar xosil qiluvchi elementlarga.
46.	Qo'riqxonalaridagi yodgorliklarni moslashtirish loyihalarining asosiy yo'nalishi va yechimlarini hal qilishda nimalar e'tiborga olinadi?	2	Me'moriy yodgorliklar tarixi. Mavzu tanlash. Iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi. Nafosat nuqtai nazaridan muvofiqligi. Yodgorlikning ashyoviy tarkibi. Muxandislik tarmoqlari. Yodgorlikning turi, tipologiyasi.

47.	Tamirlash va qayta tiklash loyiha yechimlarini bajarishdan keyingi ishlar tartibi qay usulda bajariladi?	2	Obodonlashtirish. Bosh reja."tarx". Kichik shakllar. Ko'kalamzorlashtirish. Muhandislik asbob uskunalari. Muxandislik tarmoqlari. Moliyaviy xisob - kitob xom cho'ti.
48.	Moslashtirishda muxandislik me'moriy loyiha yechimida qaysi ishlar bajariladi?	2	"Konstruksiya" qurilmasi. Texnologiyaga doir shartli chizmalar. Ichki ko'rinishini pardoqlash, Jihozlar, uskunalar, muxandislik asbob uskunalari. Moliyaviy xisob - kitob xom cho'ti.
49.	Qo'riqxonalar tashkil etilgan zamonaviy shahar tuzilishida yodgorliklardan foydalanish omillariga nimalar kiradi?	2	Arxitektura yodgorliklari va ansambllarning yangi xizmat vazifalari. Atrof muhitlaridagi qurilishlarning ta'siri, boshqa qurilishlar orasidagi masofa va bog'likligi, avtoulav (transport)ning yodgorliklarga ta'siri. Obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish yechimlari. Shaharning fazoviy atrof muxitlari tuzilish "kompozitsiyasi", shakllar siluettlari, xissiy muhit. Muhofaza maydonlari.
50.	Qo'riqxonalaridagi arxitektura yodgorliklaridan foydalanishda asosiy vazifalar nimalarda iborat?	2	Yodgorliklarni bor holatida saqlash. Badiiy timsolini saqlash rivojlantirish. Interyerning ichki ko'rinishini saqlash. Ma'lum davr me'morchilik shakllari, jihozlarini ijodiy qayta takomillashtirish. Eski me'morchilik bilan zamonaviy jihozlar o'rtasida farqni saqlash.

Вопросы и отведенные рейтинговые баллы по предмету  
**«Методы организации охранной зоны памятников архитектуры».**

№ №	Вопросы	Баллы	Примеры для ответов
